3-son, 2026

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qaroriga muvofiq pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Innovatsion pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:
Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor
Mas’ul muharrir:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor

Musahhih:
Norkulova G.S. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Quchqorova N.M.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Niyozmetova R. X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Nazarova D.A.	*Pedagogika fanlari nomzodi, professor;*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Alimbayeva Sh.T.	*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Egamberdieva Farida Oktamovna
Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlari 4
Norkulova Gulida Sodikovna
Oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishda tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari 14
Mo‘ydinov Maxsudbek Rustambek o‘g‘li
Belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari va metodik asoslari 22
Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna
Generativ sun’iy intellekt va prompt injiniring yordamida filologik ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari 34
Usmanova Gulxumor Saidakbarovna
Oliy ta’limda o‘quv jarayonini boshqarishning edukologik mexanizmini takomillashtirish 43
Norqo‘ziyeva Shaxnoza Ismoiljonovna
Masofaviy ta’limda avangard pedagogikasining didaktik imkoniyatlari 52
Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li
Inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tishda maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini takomillashtirish 63
G‘afurova Mehriniso Muqimovna
Nutqni tinglab tushunishdagi asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish strategiyalari 78
O‘rozaliyev Oybek Abdujamol o‘g‘li
“Preventiv boshqaruv” tushunchasining mazmun-mohiyati va huquqbuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyati 87

PSIXOLOGIYA

Zhang Na
Psychological and sociocultural adaptation in relation to academic adaptation among international students in China 96
Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o‘g‘li
Talabalarda akademik prokrastinatsiyani kamaytirishning psixologik determinantlari 108
Хакимова Насиба Тургуновна
Мотивационные модели в образовании психологических терминов 118
Санаев Алишер Комилжон ўғли
Влияние социальных сетей на проявление эмоциональной интровертированности у студентов 126
Rustamova Barno Abduxalilovna
Emotional intelligence and its association with psychological well-being among university students 138
Xudayberdiyeva Svetlana Vladimirovna
Психическое развитие в пожилом возрасте и периоды старения 144

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING METAKOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

PEDAGOGICAL CHALLENGES IN DEVELOPING STUDENTS’ METACOGNITIVE SKILLS IN CONTEMPORARY EDUCATION AND MECHANISMS FOR ADDRESSING THEM

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ И МЕХАНИЗМЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Egamberdieva Farida Oktamovna
Professor, Oriental Universiteti
Tashkent, Uzbekistan
Tel.: +99899-803-84-85
E-mail: faridaegamberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot mavzuga oid adabiyotlarni qiyoslash va pedagogik modellashtirishga asoslangan. Xalqaro nazariyalar hamda o‘zbekistonlik olimlarning ishlari o‘qitish va baholash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Tayyor algoritmlarga ortiqcha tayanish, faqat yakuniy javobni baholash hamda rejalashtirish va refleksiyani bevosita o‘rgatmaslik asosiy cheklovlar sifatida ajratiladi. Maqsadli rejalashtirish, monitoring, strategik tuzatish va refleksiv baholashni birlashtiruvchi model taklif etiladi. Uning komponentlari o‘quvchi harakatlari, pedagogik ko‘mak va kuzatiladigan baholash mezonlari bilan bog‘lanadi. O‘zbekiston ta’limiga oid xalqaro hisobotlar modelni qo‘llash sharoitlarini yoritadi. Model nazariy taklif bo‘lib, uning samaradorligi tajriba-sinov orqali tekshirilishi lozim. Amaliy tavsiyalar dars topshiriqlariga rejalashtirish kartalari, o‘zini tekshirish savollari va refleksiv qaydlarni kiritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: metakognitsiya; metakognitiv ko‘nikmalar; rejalashtirish; monitoring; strategik tuzatish; refleksiya; pedagogik ko‘mak; o‘rganish strategiyalari.

Abstract. This article examines pedagogical barriers to developing students’ metacognitive skills and proposes ways to address them. The study uses comparative literature analysis and pedagogical modelling. International theories and research by Uzbek scholars are considered in relation to teaching and assessment. Excessive reliance on prescribed algorithms, assessment focused only on final answers, and insufficient explicit instruction in planning and reflection are identified as key limitations. A model integrating purposeful planning, monitoring, strategic adjustment and reflective evaluation is proposed. Its components connect students’ actions with

teacher support and observable assessment criteria. Reports on education in Uzbekistan provide contextual evidence. The model remains a theoretical proposal requiring empirical testing. Practical recommendations include planning cards, checking questions and reflective learning records.

Keywords: metacognition; metacognitive skills; planning; monitoring; strategic adjustment; reflection; teacher support; learning strategies.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические препятствия развитию метакогнитивных навыков учащихся и способы их преодоления. Исследование основано на сравнительном анализе научной литературы и педагогическом моделировании. Международные теории и работы узбекистанских учёных анализируются с точки зрения организации обучения и оценивания. Выделены основные ограничения: чрезмерная опора на готовые алгоритмы, оценивание только конечного ответа и недостаточное обучение планированию и рефлексии. Предложена модель, объединяющая целевое планирование, мониторинг, корректировку стратегии и рефлексивное оценивание. Её компоненты соотнесены с действиями учащегося, педагогической поддержкой и наблюдаемыми критериями оценки. Международные отчёты об образовании в Узбекистане используются для характеристики условий применения модели. Предложение имеет теоретический характер и требует экспериментальной проверки. Практические рекомендации предусматривают включение в задания карт планирования, проверочных вопросов и рефлексивных записей.

Ключевые слова: метакогниция; метакогнитивные навыки; планирование; мониторинг; корректировка стратегии; рефлексия; педагогическая поддержка; учебные стратегии.

KIRISH

O‘quv topshirig‘ini to‘g‘ri bajarish o‘quvchining o‘rganish jarayonini ongli boshqarishini har doim ham ifodalamaydi. O‘quvchi tayyor algoritmni qo‘llashi mumkin, biroq uni nima uchun tanlaganini, qaysi sharoitda o‘zgartirish kerakligini yoki xatoni qanday tekshirishini izohlashda qiynalishi mumkin. Metakognitiv ko‘nikmalar o‘quv maqsadini belgilash, tushunish darajasini kuzatish va qo‘llanayotgan strategiyani baholash orqali shu tafovutni bartaraf etishga yordam beradi.

Metakognitiv faoliyatda o‘quvchi o‘z bilimlari va qiyinchiliklarini hisobga oladi, vazifaga mos usulni tanlaydi hamda natijani dastlabki maqsad bilan qiyoslaydi. Shu amallarni dars mazmuniga kiritish o‘quv mustaqilligini rivojlantirishning pedagogik shartidir. Mustaqillik topshiriqlar hajmini oshirish hisobiga emas, o‘quvchiga rejalashtirish, tekshirish va tuzatishni izchil o‘rgatish orqali shakllantiriladi.

Baholash asosan yakuniy javobga qaratilganda o‘quvchining unga qanday erishgani e’tibordan chetda qoladi. Reproduktiv topshiriqlarning ustuvorligi, refleksiv

savollarning muntazam qo‘llanmasligi va o‘qituvchining fikrlash strategiyalarini yetarlicha namoyish etmasligi o‘quvchining o‘z faoliyatini boshqarish tajribasini cheklashi mumkin. Bu omillarni alohida ko‘rib chiqish ularning o‘qitish metodlari va baholash tizimi bilan bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Metakognitsiyani o‘rganishda J.H. Flavellning metakognitiv bilim haqidagi qarashlari tayanch bo‘lib xizmat qiladi (Flavell J. H., 1979: 906-907). B.J. Zimmerman o‘rganishni rejalashtirish, bajarish va refleksiya sikli orqali izohlaydi (Zimmerman B. J., 2002: 67-68). E. Panadero oltita modelni qiyoslab, metakognitiv jarayonlarni motivatsion va emotsional boshqaruv bilan birga tahlil qiladi (Panadero E., 2017: 1). Ushbu manbalar o‘quv mustaqilligining nazariy tuzilishini tushuntiradi.

O‘zbekistonlik olimlar Laylo Axmedova va Diloromxon Sodikova boshlang‘ich ta’limda reflektiv hamda raqamli yondashuvlarni yoritgan (Axmedova L., 2025: 319-321; Sodikova D., 2025: 186-187). Nilufar O‘rinova va Ra’no Nosirovaning ishlari pedagogik tayyorgarlikdagi metakognitiv kompetensiyaga bag‘ishlangan (O‘rinova N., 2025: 181-183; Nosirova R., 2026: 162-164). Dilnoza Kurbanbayeva o‘qish kompetensiyasini, Nargiza Sabirova refleksiyani, Erkin Rasulov esa raqamli ko‘makni tadqiq qilgan (Kurbanbayeva D., 2026: 1006; Sabirova N. Yu., 2026: 83; Rasulov E. M., 2025: 82). Mazkur yo‘nalishlarni qiyoslash bizning tahlilimizda o‘qituvchi ko‘magi, o‘quvchi harakati va baholash mezonlarini bir modelda bog‘lashga asos beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, mavzuga yo‘naltirilgan adabiyotlar tahlili, modellarni qiyoslash va pedagogik modellashtirish usullariga asoslandi. Metakognitiv bilim, rejalashtirish, monitoring, strategiya tanlash va refleksiv baholash o‘rtasidagi funksional aloqalar tahlil qilindi. Xalqaro, mintaqaviy va O‘zbekiston tadqiqotlari o‘qitish hamda diagnostikaga qo‘shgan hissasi bo‘yicha qiyoslandi, xalqaro hisobotlardan esa mahalliy sharoitni tavsiflash uchun foydalanildi. Manbalar sharhi tizimli sharh yoki meta-tahlil sifatida taqdim etilmaydi. Pedagogik eksperiment va so‘rovnoma o‘tkazilmagani sababli modelning didaktik mantiqi nazariy jihatdan asoslanadi, uning samaradorligi keyingi empirik tekshiruvga bog‘liq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv faoliyat axborotni tushunish va qayta ishlashga yo‘naltirilsa, metakognitiv faoliyat shu jarayonni kuzatish va tartibga solishga xizmat qiladi. Masalan, matnning asosiy fikrini aniqlash kognitiv amal, uni to‘g‘ri tushunganini tekshirish uchun savol tuzish esa metakognitiv amaldir. Darsda ushbu ikki amalni farqlash o‘quvchiga javobni topish bilan birga uni qanday tekshirganini ham tushuntirishga yordam beradi.

Tadqiqotchi B.J.Zimmermanning siklik yondashuvida natijani baholash keyingi vazifaning maqsadi va strategiyasiga ta’sir qiladi (Zimmerman B.J., 2002: 67-68). Panadero tahliliga tayangan holda metakognitiv ko‘nikmalarni motivatsion, emotsional va xulqiy jarayonlar bilan birgalikda ko‘rib chiqamiz (Panadero E., 2017: 1). Shu sababli darsdagi monitoring topshiriqni bajarishga bo‘lgan munosabatdan ajratib qo‘yilmasligi kerak.

E. Yu. Savin va A.E. Fomin umumlashgan hamda predmetga xos metakognitiv ko‘nikmalar munosabatini talabalar o‘quv faoliyatida o‘rgangan. Ularning natijalariga ko‘ra, monitoring samaradorligi umumiy metakognitiv ko‘nikmalar va fan bo‘yicha bilimlarga birgalikda bog‘liq (Savin E. Yu., Fomin A. E., 2014:10). Bu xulosa strategiyalarni muayyan fan topshiriqlari orqali o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi; talabalar bo‘yicha olingan natijalarni maktab yoshiga tatbiq etishda yosh farqlari hisobga olinishi lozim.

Qozog‘istonda A.Sadikova va hammualliflar ikki maktabning 120 nafar 8-sinf o‘quvchisi ishtirokida metakognitiv savollarga asoslangan biologiya kursini o‘rgangan. O‘n haftalik kvazieksperimental tadqiqotda tajriba guruhining biologiya bo‘yicha natijalari va o‘z metakognitsiyasi haqidagi baholari taqqoslash guruhiga nisbatan yaxshiroq bo‘lgan (Sadikova A. va boshq., 2024: 1, 3, 5). Bu natija strategiyalarni fan mazmuniga kiritishning amaliy imkoniyatini ko‘rsatadi. Uni barcha o‘quv fanlari va yosh guruhlari uchun bir xil samara beradi, deb umumlashtirish mumkin emas.

O‘zbekistonda L.Axmedova boshlang‘ich ta’limda reflektiv yondashuv orqali rejalashtirish, nazorat va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini shakllantirish masalasini yoritgan (Axmedova L., 2025: 319-321). D.Sodikova esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining metakognitiv jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini ko‘rib chiqqan (Sodikova D., 2025: 186-187). Ushbu ishlar boshlang‘ich ta’limda refleksiv topshiriqlar va raqamli vositalarni aniq o‘quv maqsadiga bog‘lash imkoniyatlarini muhokama qiladi.

N.O‘rinovaning maqolasi tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini metakognitiv kompetensiya tamoyillari asosida takomillashtirishga bag‘ishlangan (O‘rinova N., 2025: 181-183). R. Nosirovaning maqolasi esa bo‘lajak pedagoglar uchun “Think–Track-Reflect” texnologiyasini yoritadi (Nosirova R., 2026: 162-164). Ushbu maqolalar pedagogik tayyorgarlikda metakognitiv kompetensiya va refleksiv faoliyat masalalarini muhokama qiladi.

D.Kurbanbayeva bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilgan (Kurbanbayeva D., 2026: 1006, 1008-1009). Unda o‘qish jarayonini rejalashtirish, tushunishni kuzatish va natijani baholashga asoslangan mashqlar ko‘rib chiqiladi.

O‘qituvchi tayyorlashga oid ushbu yondashuvlarni maktab o‘quvchilari uchun qo‘llash topshiriqlar va yordam hajmini yosh xususiyatlariga moslashtirishni talab etadi.

N.Sabirova talabalarda metakognitiv refleksiyaning pedagogik-psixologik mazmunini tahlil qilib, uning bilish, tartibga soluvchi va shaxsiy-refleksiv tarkiblarini ajratadi. Muallif o‘quv kundaligi, o‘zini o‘zi baholash varaqalari va guruhiy muhokamalarni refleksiv faoliyatni tashkil etish vositalari sifatida tavsiya etadi (Sabirova N. Yu., 2026: 83). Ushbu yondashuv metakognitiv amallarni o‘quvchining o‘z strategiyasini izohlashi va faoliyatiga tuzatish kiritishi bilan bog‘lashga yordam beradi.

E.Rasulov talabalar kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishda raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini yoritadi. Uning ishida elektron portfolio, onlayn kundalik va ta’limni boshqarish tizimlari o‘quv maqsadlarini qayd etish, bajarish jarayonini kuzatish hamda o‘z natijalarini tahlil qilish vositalari sifatida ko‘rib chiqilgan (Rasulov E. M., 2025: 82). Raqamli vositani tanlashda uning o‘quvchining rejalashtirish va refleksiya amallarini qanday qo‘llab-quvvatlashi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Mahalliy tadqiqotlarni qiyoslash asosida refleksiv topshiriqlar, o‘qituvchi tayyorgarligi va raqamli ko‘makni o‘zaro muvofiqlashtirishni taklif etamiz. Oliy ta’limga oid qarashlarni maktab ta’limiga tatbiq etishda topshiriq tili, murakkabligi va o‘qituvchi yordamining hajmi o‘quvchi yoshiga moslashtirilishi lozim.

O‘qituvchi fikrlash jarayonini namoyish etmaganda o‘quvchidan mustaqil nazorat talab qilinadi, ammo bu nazoratni qanday bajarish yetarlicha ochib berilmaydi. O‘qituvchining usul tanlash, xatoni aniqlash va yechimni tekshirish haqidagi mulohazalarini ovoz chiqarib izohlashi o‘quvchiga namuna beradi. Raqamli vositalar faqat topshiriqni tez bajarish uchun qo‘llansa, o‘quvchining rejalashtirish va refleksiya faoliyati chetda qolishi mumkin. Ularning didaktik vazifasi maqsadni qayd etish, bajarish jarayonini kuzatish va tanlangan strategiyani tekshirishga bog‘lanishi kerak. Rejalashtirish topshiriq maqsadini aniqlash, mavjud bilimlarni baholash va vazifaga mos strategiyani tanlash orqali o‘rgatiladi. Masalan, matn bilan ishlashdan oldin o‘quvchi nima aniqlashi kerakligini, qanday dalil izlashi va o‘z tushunishini qaysi savollar yordamida tekshirishini belgilaydi. Monitoring jarayonida tushunish darajasini tekshirishni anglatadi. O‘quvchi javobini dalillar bilan qiyoslaydi, noaniq joylarni qayd etadi va zarur bo‘lsa usulni o‘zgartiradi. O‘zini tekshirish savollari ushbu harakatlarni kuzatiladigan faoliyatga aylantiradi.

Refleksiv baholashda natija dastlabki maqsad bilan qiyoslanadi va keyingi vazifa uchun xulosa chiqariladi. J.Dunloskiy va hammualliflar mashq testlari hamda o‘rganishni vaqt bo‘yicha taqsimlashni samarali o‘rganish usullari qatoriga kiritgan (Dunlosky J. va boshq., 2013: 5). Bu usullarni tanlash va ularning samarasini tekshirish metakognitiv boshqaruv bilan bog‘lanishi mumkin. Education Endowment Foundationning mazkur qo‘llanmasida rejalashtirish, monitoring va baholashni bevosita

o‘rgatish hamda fan mazmuniga kiritish taklif etiladi. O‘qituvchi avval strategiyani namoyish etadi, keyin yo‘naltirilgan mashqni tashkil qiladi va o‘quvchining tayyorgarligiga qarab yordam hajmini kamaytiradi.


O‘zbekiston ta’limiga oid ma’lumotlar metakognitiv yondashuvni qo‘llash sharoitlarini muhokama qilishga yordam beradi. Bu ma’lumotlarni o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalariga bevosita tenglashtirmasdan, baholash mazmuni va ma’lumot yig‘ish usuliga ko‘ra talqin etish zarur.

PISA-2022 tadqiqotida O‘zbekistondagi 202 ta maktabning 7293 nafar o‘quvchisi ishtirok etgan. Kamida ikkinchi tayyorgarlik darajasiga erishgan o‘quvchilar ulushi matematikada 19 foiz, o‘qishda 14 foiz va tabiiy fanlarda 19 foizni tashkil etgan; OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlari tegishlicha 69, 74 va 76 foiz bo‘lgan. Bu natijalar bilimlarni vaziyatga mos qo‘llash va axborotni tahlil qilishga oid topshiriqlarni takomillashtirish uchun kontekst beradi. PISA natijalari metakognitiv ko‘nikmalarning bevosita diagnostikasi emas. Shu hisobotda O‘zbekiston o‘quvchilarining 68 foizi maktablar yana yopilgan sharoitda o‘quv ishini bajarishga o‘zini rag‘batlantira olishiga ishonch bildirgan. Ushbu javob motivatsiyaga oid subyektiv bahoni ifodalaydi; u rejalashtirish, monitoring va strategik tuzatishning amalda bajarilishini ko‘rsatmaydi. Bunday amallarni alohida topshiriqlar va kuzatuvlar bilan tekshirish kerak.

TALIS-2024 natijalarida O‘zbekistondagi o‘qituvchilarning 75 foizi o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari yoki xulqini anglash ko‘nikmalarini tez-tez yoki doim rivojlantirishini bildirgan. 73 foizi esa o‘qitishni o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirishga oid dars maqsadlariga sezilarli darajada erishayotganini qayd etgan. TALIS o‘qituvchilarning o‘z hisobotlariga asoslanadi; bu ko‘rsatkichlar dars jarayonini bevosita kuzatish natijasi emas.

UNICEFning rasmiy axborotiga ko‘ra, 2026-yil 18-avgustda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yangi Milliy o‘quv dasturi qamrovi hujjatini taqdim etgan. U UNICEF qo‘llovi hamda Cambridge University Press & Assessment bilan hamkorlikda takomillashtirilgan. Hujjatda aniq o‘quv maqsadlari, kompetensiyaviy yondashuv, inklyuzivlik va bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish ko‘zda tutilgan. UNICEFning o‘rta ta’lim dasturlari ham o‘quv dasturi, darsliklar, pedagoglar tayyorgarligi va baholashni takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishlar metakognitiv amallarni fan mazmuniga kiritish uchun tashkiliy imkoniyat beradi. Buning uchun dars topshiriqlarida rejalashtirish, o‘zini tekshirish va refleksiv baholash aniq belgilanishi kerak.


1-rasm. Metakognitiv strategiyalarni o‘rgatishda pedagogik ko‘makni bosqichma-bosqich kamaytirish



1-rasmdagi ketma-ketlikda o‘qituvchi tanlangan strategiyaning mantiqini tushuntiradi; o‘quvchi keyingi mashqda reja va tekshirish savollari yordamida ishlaydi. Mustaqil bosqichga o‘tish o‘quvchining strategiyani izohlashi va o‘z xatolarini tekshira olishiga qarab belgilanadi. Qiyinchilik saqlanib qolsa, pedagogik ko‘mak qayta kuchaytiriladi. Bosqichlarning davomiyligi o‘quv faniga, vazifa murakkabligiga va o‘quvchi tayyorgarligiga bog‘liq.

Taklif etayotgan konseptual modelimiz maqsadli rejalashtirish, refleksiv monitoring, strategik tuzatish va natijani baholash komponentlaridan iborat. Uning maqsadi o‘quvchining o‘z bilish faoliyatini ongli boshqarishidir. Modelni qo‘llashda muammoli topshiriqlar, refleksiv savollar, o‘qituvchining bosqichma-bosqich ko‘magi va zarur raqamli vositalar pedagogik shartlar sifatida qaraladi.

2-rasm. O‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli



2-rasmdagi model B.J. Zimmermanning siklik yondashuviga tayanadi va yuqorida bayon etilgan pedagogik ko‘mak tamoyillarini hisobga oladi (Zimmerman B. J., 2002: 6768). Yosh va individual xususiyatlar topshiriq mazmuni hamda pedagogik yordam hajmini belgilaydi. Modelni tekshirishda dastlabki va yakuniy diagnostika, o‘quvchi

faoliyatini kuzatish hamda fan topshiriqlari bo‘yicha natijalarni birgalikda tahlil qilish zarur.

Metakognitiv ko‘nikmalarni baholashda o‘quvchining o‘ziga bergan bahosi faoliyat dalillari bilan qiyoslanishi kerak. Masalan, javobning to‘g‘riligi tanlangan strategiyaning mantiqini anglash bilan bir xil ko‘rsatkich emas. 1-jadvalda model komponentlari va o‘quvchi mustaqilligiga mos kuzatiladigan belgilar keltirilgan.

1-jadval. Metakognitiv ko‘nikmalarni baholash mezonlari

Baholash mezoni	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
Maqsadni belgilash	O‘quvchi aniq va erishish mumkin bo‘lgan maqsadni ifodalay oladi
Rejalashtirish	Vazifani bosqichlarga ajratadi, vaqt va resurslarni belgilaydi
Metakognitiv monitoring	O‘z tushunish darajasini tekshiradi, xatolarini aniqlaydi
Strategik moslashuvchanlik	Samarasiz usulni o‘zgartiradi va muqobil strategiyani asoslaydi
Refleksiv baholash	Natijani maqsad bilan taqqoslab, dalillarga asoslangan xulosa chiqaradi
Mustaqil boshqaruv	Pedagogik ko‘mak kamayganda ham tegishli strategiyalarni qo‘llaydi

Mezonlarni kuzatuv protokoli, rejalashtirish kartasi, o‘quv kundaligi, topshiriq bajarilishiga oid yozuvlar va refleksiv suhbat orqali baholash mumkin. O‘quvchining harakati va uning izohi birgalikda qayd etiladi: qanday maqsad qo‘yildi, qaysi usul tanlandi, tushunish qanday tekshirildi va natijaga ko‘ra nima o‘zgartirildi. Elektron platformalar bu qaydlarni saqlash va ketma-ket topshiriqlardagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun qo‘shimcha vosita bo‘la oladi.

Bunday qo‘llab-quvvatlashning samarasi topshiriq mazmuni, o‘qituvchi rahbarligi va o‘quvchining mustaqil harakatiga bog‘liq. Tayyor javobga tayanish o‘rniga strategiyani tanlash, tekshirish va izohlash amallari o‘quvchining o‘zida qolishi kerak. Raqamli tizim faoliyatini baholashda javob tezligi bilan birga o‘quvchining dalillashi va xatodan keyingi tuzatishlari ham hisobga olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish rejalashtirish, monitoring, strategik tuzatish va refleksiv baholashni bevosita o‘rgatishni talab etadi. Adabiyotlar tahlilida tayyor algoritmlarga ortiqcha tayanish, faqat yakuniy javobni baholash va o‘quvchiga boshqaruv amallarini namoyish etmaslik pedagogik cheklovlar sifatida ajratildi.

Biz taklif etgan to‘rt komponentli model ushbu amallarni o‘qituvchi ko‘magi va kuzatiladigan baholash mezonlari bilan bog‘laydi. Amaliy tatbiqda fan topshiriqlariga rejalashtirish kartalari, o‘zini tekshirish savollari va qisqa refleksiv qaydlar kiritilishi, yordam hajmi esa o‘quvchining tayyorgarligiga qarab kamaytirilishi mumkin.

Maqolaning nazariy-tahliliy xarakteri model samaradorligi haqida empirik xulosa chiqarishni cheklaydi. Keyingi tadqiqotda mezonlarning yosh va fan xususiyatlariga mosligi, diagnostik vositalarning ishonchliligi hamda o‘quvchi faoliyatidagi o‘zgarishlar tajriba-sinov asosida tekshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedova L. B. (2025). Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 3-jild, 8-son. – B. 319–322. – DOI: 10.5281/zenodo.16880025.

2. Kurbanbayeva D. (2026). Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 8-jild, 6-son. – B. 1003–1010. – DOI: 10.70728/c.series.ped.v08.i06.157.

3. Nosirova R. (2026). Bo‘lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda “Think–Track–Reflect” texnologiyasining samaradorligi // O‘zMU xabarlari. – № 1/1.6. – B. 162–164. – DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.6.12492.

4. O‘rinova N. (2025). Tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini metakognitiv kompetensiya tamoyillari asosida takomillashtirish // O‘zMU xabarlari. – № 1/11/1. – B. 181–183. – DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.11.1.9863.

5. Panadero E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research // Frontiers in Psychology. – Vol. 8. – Article 422. – DOI: 10.3389/fpsyg.2017.00422.

6. Перикова Е. И., Бызова В. М. (2022). Факторная структура русскоязычной версии опросника «Метакогнитивная включенность в деятельность» // Культурно-историческая психология. – № 2. – С. 116-126.

7. Rasulov E. M. (2025). Talabalar kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli // Oriental Journal of Education. – Vol. 5, No. 05. – B. 78–83. – DOI: 10.37547/supsci-oje-05-05-10.

8. Sabirova N. Yu. (2026). Talabalarda metakognitiv refleksiya tushunchasining pedagogik-psixologik mazmuni va nazariy asoslari // Tamaddun Nuri. – 7-son, I qism (82). – B. 81–83. – DOI: 10.69691/bz1p4w90.

9. Савин Е. Ю., Фомин А. Е. (2014). Обобщенные и предметно-специфичные метакогнитивные навыки в учебной деятельности студентов // Психологические исследования. – Т. 7. – № 37. – DOI: 10.54359/ps.v7i37.599.

10. Zimmerman B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. – DOI: 10.1207/s15430421tip4102_2.

REFERENCES:

1. Axmedova L. B. (2025). Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 3-jild, 8-son. – B. 319–322. – DOI: 10.5281/zenodo.16880025. (In Uzbek)

2. Kurbanbayeva D. (2026). Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 8-jild, 6-son. – B. 1003–1010. – DOI: 10.70728/c.series.ped.v08.i06.157. (In Uzbek)

3. Nosirova R. (2026). Bo‘lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda “Think–Track–Reflect” texnologiyasining samaradorligi // O‘zMU xabarlari. – № 1/1.6. – B. 162–164. – DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.6.12492. (In Uzbek)

4. O‘rinova N. (2025). Tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini metakognitiv kompetensiya tamoyillari asosida takomillashtirish // O‘zMU xabarlari. – № 1/11/1. – B. 181–183. – DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.11.1.9863. (In Uzbek)

5. Panadero E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research // Frontiers in Psychology. – Vol. 8. – Article 422. – DOI: 10.3389/fpsyg.2017.00422.

6. Perikova E. I., Byzova V. M. (2022). Faktornaya struktura russkoyazychnoy versii oprosnika «Metakognitivnaya vklyuchennost v deyatelnost» // Kulturno-istoricheskaya psikhologiya. – Vol. 18, No. 2. – B. 116–126. (In Russian)

7. Rasulov E. M. (2025). Talabalar kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli // Oriental Journal of Education. – Vol. 5, No. 05. – B. 78–83. – DOI: 10.37547/supsci-oje-05-05-10. (In Uzbek)

8. Sabirova N. Yu. (2026). Talabalarda metakognitiv refleksiya tushunchasining pedagogik-psixologik mazmuni va nazariy asoslari // Tamaddun Nuri. – 7-son, I qism (82). – B. 81–83. – DOI: 10.69691/bz1p4w90. (In Uzbek)

9. Savin E. Yu., Fomin A. E. (2014). Obobshchennye i predmetno-spetsifichnye metakognitivnye navyki v uchebnoy deyatelnosti studentov // Psikhologicheskie issledovaniya. – Vol. 7, No. 37. – DOI: 10.54359/ps.v7i37.599. (In Russian)

10. Zimmerman B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. – DOI: 10.1207/s15430421tip4102_2.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARIX FANINI O‘QITISHDA TARIXIY LUG‘AT VA ATAMALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

DISTINCTIVE FEATURES OF USING HISTORICAL VOCABULARY AND TERMINOLOGY IN TEACHING HISTORY AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ СЛОВАРЕЙ И ТЕРМИНОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Norkulova Gulida Sodikovna
Oriental universiteti
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.:+99 895-220-14-88
E-mail: gulidanorqulova59@gmail.com
ORSID: https://orcid.org/0009-0006-9807-3233

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishda tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanishning pedagogik hamda metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy terminlarning talabalarda tarixiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash va manbashunoslik kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tarixiy tushunchalarni tizimli o‘qitish, terminologik tahlilni tashkil etish va tarixiy manbalar bilan ishlashning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Kichik guruhlarda ishlash, klaster, “T.A.R.I.X.” va “Xulosa-daraxt hosilida” kabi interfaol metodlarning tarixiy atamalarni o‘zlashtirishga ta’siri ochib berilgan. Elektron glossariy va raqamli lug‘atlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tarixiy lug‘at va atamalardan tizimli hamda kontekstual foydalanish tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashi va ilmiy nutqini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv tarixiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga hamda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy lug‘at, tarixiy atamalar, tarix ta’limi, tarixiy tafakkur, terminologik tahlil, interfaol metodlar, elektron glossariy, manbashunoslik kompetensiyasi.*

Annotation. This article analyzes the pedagogical and methodological features of using historical dictionaries and terms in teaching history at higher education institutions. The study highlights the role of historical terminology in shaping students' historical thinking, scientific worldview, and source analysis competence. Furthermore, it demonstrates effective methods for the systematic teaching of historical concepts, organizing terminological analysis, and working with historical sources. The impact of

interactive methods – such as small group work, cluster, "T.A.R.I.X. " and "Conclusion-Tree Harvest" – on the acquisition of historical terms is revealed. The didactic potential of using electronic glossaries and digital dictionaries is also analyzed. The research findings indicate that the systematic and contextual use of historical dictionaries and terms increases the effectiveness of history instruction and develops students' independent thinking and academic discourse. This approach serves as a crucial pedagogical foundation for the profound mastery of historical knowledge and the formation of professional competencies in future history teachers.

Keywords: *historical dictionary, historical terms, history education, historical thinking, terminological analysis, interactive methods, electronic glossary, source analysis competence.*

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические и методические особенности использования исторических словарей и терминов в преподавании истории в высших учебных заведениях. В исследовании раскрывается роль исторических терминов в формировании у студентов исторического мышления, научного мировоззрения и источниковедческой компетенции. Также показаны эффективные методы системного обучения историческим понятиям, организации терминологического анализа и работы с историческими источниками. Раскрыто влияние таких интерактивных методов, как работа в малых группах, кластер, «T.A.R.I.X.» и «Дерево выводов» на усвоение исторических терминов. Проанализированы также дидактические возможности использования электронных глоссариев и цифровых словарей. Результаты исследования показывают, что системное и контекстуальное использование исторических словарей и терминов служит повышению эффективности преподавания истории, развитию у студентов самостоятельного мышления и научной речи. Данный подход является важной педагогической основой для глубокого усвоения исторических знаний и формирования профессиональных компетенций будущих учителей истории.

Ключевые слова: *исторический словарь, исторические термины, историческое образование, историческое мышление, терминологический анализ, интерактивные методы, электронный глоссарий, источниковедческая компетенция.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirilmoqda. Tarix fanining asosiy vazifalaridan biri talabalarda tarixiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash va tarixiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu jarayonda tarixiy lug‘at va atamalar muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy atamalar ma’lum bir tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi. Ularning mazmunini to‘g‘ri anglash tarixiy voqealarni chuqur tushunish, sabab–oqibat aloqalarini aniqlash va ilmiy xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy terminlarning ayrimlari vaqt o‘tishi bilan ma’no jihatidan o‘zgarib boradi, shu sababli ularni tarixiy kontekst asosida o‘rganish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishda tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanishning pedagogik hamda metodik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning talabalarning bilim va kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tarixiy atama va lug‘at tushunchalarining nazariy asoslarini o‘rganish;
- tarixiy terminologiyadan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;
- interfaol metodlar asosida tarixiy atamalarni o‘qitish usullarini tahlil qilish;
- tarixiy manbalar bilan ishlashda terminologik tahlilning ahamiyatini ko‘rsatish;
- tarixiy lug‘atlardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarix fanini o‘qitishda tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanish masalasi pedagogika, tarix o‘qitish metodikasi hamda terminologiya sohalarining kesishgan nuqtasida o‘rganiladigan dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Mazkur mavzuni tadqiq etishda respublikamiz va xorij olimlarining tarix ta’limi, terminologiya va didaktikaga oid ilmiy ishlari muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo, Yarash G‘afforovning “Tarix o‘qitish metodikasi” asarida tarixiy bilimlarni shakllantirish, tarixiy tushunchalar tizimini hosil qilish hamda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish masalalari batafsil yoritilgan. Muallif tarixiy tushunchalar tarix fanining nazariy asosini tashkil etishini, ularni izchil va tizimli o‘qitish tarixiy voqealarni chuqur anglashga xizmat qilishini ta’kidlaydi (Гаффоров Я., 2019: 45-47). Ushbu manba tarixiy atamalarning ta’limiy va rivojlantiruvchi funksiyalarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

“Tarix o‘qitish metodikasi va nazariyasi” nomli o‘quv qo‘llanmada tarix ta’limining maqsadi, mazmuni va metodlari tahlil qilinib, tarixiy tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligi ko‘rsatib berilgan (Каримов А., 2020: 62-65). Unda tarixiy terminlardan foydalanish o‘quv materialini ilmiylashtirish, tarixiy hodisalarni umumlashtirish hamda talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi (Каримов А., 2020: 70).

Terminologiya masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham mavzuni yoritishda muhim o‘rin tutadi. “Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati” mavzusidagi ilmiy ishlarda terminlarning asosiy belgilariga

– aniqlik, ixchamlik, tizimlilik va bir ma’nolilik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan (Расулов Б., 2022: 33-35). Mualliflarning fikricha, ilmiy terminologiyaning me’yoriy qo‘llanishi fanlararo muloqotni yengillashtiradi hamda ilmiy axborotni aniq yetkazishga xizmat qiladi (Расулов Б., 2022: 36). Ushbu qarashlar tarixiy atamalarning oliy ta’limdagi metodik ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarix ta’limi metodikasi, pedagogika va terminologiya sohalariga oid ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tarix o‘qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va terminologik lug‘atlar o‘rganildi. Ushbu metod tarixiy atamalarning mazmuni, funksiyasi va ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlash imkonini berdi.

Tarix fanini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar – kichik guruhlarda ishlash, klaster, muammoli savollar, krossvord va vizual topshiriqlarning tarixiy terminlarni o‘zlashtirishga ta’siri kuzatildi. Tarixiy atamalarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq tushunchalar tizimi sifatida o‘rganish tamoyili asos qilib olindi. Bu yondashuv tarixiy jarayonlarning yaxlit manzarasini shakllantirishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy tilshunoslik va pedagogik adabiyotlarda atama deb ma’lum bir fan, texnika, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniyat yoki kasbiy faoliyat sohasiga oid aniq tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasiga aytiladi. Atama oddiy so‘zlardan o‘zining aniq semantik mazmunga ega bo‘lishi, ya’ni bitta tushunchani ifodalashga xizmat qilishi bilan farq qiladi. Oddiy so‘zlar ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin, atamalar esa imkon qadar bir ma’nolilikka, aniqlikka va ilmiy izchillikka ega bo‘lishi lozim.

Har qanday ilmiy va texnik sohada juda ko‘p miqdordagi terminologik birliklar mavjud bo‘lib, ular shu sohaning ilmiy apparatini tashkil etadi. Fan taraqqiyoti davomida yangi tushunchalar paydo bo‘lishi bilan yangi atamalar ham yuzaga keladi. Shu sababli terminologiya doimo rivojlanib boruvchi tizim hisoblanadi. Ayrim hollarda bir tushunchani ifodalash uchun bir necha sinonim terminlar qo‘llanishi mumkin, biroq ilmiy uslubda ularning eng aniq va umumqabul qilingan shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Atamalar tilning maxsus leksik qatlamini tashkil etadi. Ular nafaqat ilmiy axborotni qisqa va aniq ifodalashga, balki mutaxassislar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois terminologiya har bir fan rivojining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida turli tillar o‘rtasida termin almashinuvi kuchaymoqda. Ko‘plab ilmiy va texnik atamalar bir tildan boshqa tilga o‘tib, xalqaro leksik fond tarkibiga kirib bormoqda. Masalan, demokratiya, globalizatsiya, innovatsiya, integratsiya, modernizatsiya kabi atamalar dunyoning

ko‘plab tillarida deyarli bir xil shaklda qo‘llanadi. Bu jarayon ilmiy hamkorlik va axborot almashinuvini yengillashtiradi.

Terminologiya bilan shug‘ullanuvchi olimlarning asosiy vazifalaridan biri — mavjud atamalarni tartibga solish, izohlash, standartlashtirish va ularning qo‘llanish me’yorlarini belgilashdir. Ayniqsa, fan va texnikadagi atamalarning tartibsiz ishlatilishi tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun terminologik lug‘atlar yaratish, ularni muntazam ravishda yangilab borish hamda ta’lim jarayonida to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida atamalardan samarali foydalanish talabalarni ilmiy tafakkurga o‘rgatish, kasbiy nutqini rivojlantirish, mustaqil ilmiy izlanish olib borish va manbalarni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda davlatchilik, feodalizm, mustamlakachilik, jadidchilik, renessans, modernizatsiya kabi tarixiy atamalarni chuqur va izchil tushuntirish talabalarning tarixiy jarayonlarni ilmiy asosda anglashiga yordam beradi.

“Pedagogik terminlar uyadoshlik lug‘ati” da pedagogik va ilmiy terminlarni tizimlashtirish tamoyillari yoritilgan bo‘lib, undagi terminlarni semantik guruhlarga ajratish usuli tarixiy atamalarni ham tasniflashda qo‘llanishi mumkin (To‘xtayev N., 2018: 21-24). Bu esa tarixiy lug‘atlarni yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanishning metodik asoslarini aniqlashga yordam beradi.

Tarix ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarda elektron glossariylar, interaktiv lug‘atlar va raqamli ta’lim resurslarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan (Xolmatov D., 2023: 51-54). Xususan, tarixiy terminlarni multimedia vositalari orqali o‘rgatish talabalar tomonidan tushunchalarni vizual va assotsiativ qabul qilishni kuchaytirishi, mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishi qayd etilgan (Xolmatov D., 2023: 56).

Xorijiy tadqiqotchilar orasida tarixiy tafakkur va tarixiy tushunchalarni shakllantirish masalalarini o‘rgangan olimlarning ishlari ham alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida tarixiy terminlarni kontekst asosida o‘qitish, tarixiy manbalarni terminologik tahlil qilish hamda talabalarni tarixshunoslikdagi turli talqinlar bilan tanishtirish zarurligi asoslab berilgan (Seixas P., 2017: 88-92). Bu yondashuv tarixiy atamani faqat lug‘aviy birlik emas, balki tarixiy-madaniy va metodologik kategoriya sifatida o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi (Wineburg S., 2001: 134-136).

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanish masalasi tarix o‘qitish metodikasida muayyan darajada yoritilgan bo‘lsa-da, oliy ta’lim muassasalarida tarixiy terminologiyadan foydalanishning pedagogik-didaktik xususiyatlari, elektron glossariylarning imkoniyatlari va tarixiy atamalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasi yetarli darajada kompleks

tadqiq etilmagan. Mazkur holat tanlangan mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi va ushbu tadqiqotning zaruratini asoslaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, atamalar fan tilining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular aniqlik, ixchamlik, tizimlilik va ilmiylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Terminologik birliklarni to‘g‘ri qo‘llash nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ta’lim jarayonida ham bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shu sababli tarixiy lug‘at va atamalardan oqilona foydalanish oliy ta’limda tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanishning bir qator pedagogik va metodik afzalliklari aniqlandi.

Tarixiy tushunchalarni shakllantirishdagi ahamiyati:

Tarixiy atamalar talabalarning ilmiy tarixiy tafakkurini shakllantirishda muhim vosita ekanligi kuzatildi. Masalan, feodalizm, absolutizm, modernizatsiya, jadidchilik, mustamlakachilik kabi terminlarni tizimli o‘rganish tarixiy jarayonlarni umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilish imkoniyati:

O‘rta asrlar va yangi davr manbalarida uchraydigan qushbegi, parvonachi, kutvol, xazinachi, suyurg‘ol, yorliq kabi terminlarni izohlash orqali talabalar tarixiy davlat boshqaruvi tizimini chuqurroq tushunishga erishadilar. Bu esa manbashunoslik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning samaradorligi:

Tahlillar quyidagi metodlarning samarali ekanligini ko‘rsatdi:

- **Kichik guruhda ishlash** – talabalarning jamoaviy fikrlashini rivojlantirdi;
- **Klaster metodi** – tarixiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam berdi;
- **“T.A.R.I.X.” usuli** – tarixiy voqealarni tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirdi;
- **“Xulosa-daraxt hosilida” usuli** – mavzuning asosiy mazmunini mustaqil ravishda chiqarish imkonini berdi;
- **Vizual-tahliliy topshiriqlar** – tarixiy sanalar va jarayonlarni eslab qolish samaradorligini oshirdi.

Elektron lug‘atlardan foydalanish – raqamli ta’lim resurslari asosida elektron glossariy va interaktiv lug‘atlardan foydalanish tarixiy terminlarni tezkor izlash, ularning izohlarini solishtirish va mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tarixiy lug‘at va atamalardan tizimli foydalanish talabalarning tarixiy bilimlarini chuqurlashtiradi.
2. Terminologik tahlil tarixiy manbalarni to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi.

3. Interfaol metodlar tarixiy tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

4. Elektron glossariylar mustaqil ta’lim va ilmiy izlanish faoliyatini rivojlantiradi.

5. Tarixiy terminlarni kontekst asosida o‘qitish tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’limda tarix fanini o‘qitishda tarixiy lug‘at va atamalardan foydalanish talabalarning tarixiy tafakkuri, ilmiy nutqi va manbashunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Tarixiy terminlarni tizimli, kontekstual va interfaol yondashuv asosida o‘qitish tarixiy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Tarixiy lug‘atlardan foydalanish:

- tarixiy tushunchalarni ilmiy asosda anglashga;
- tarixiy voqealarni qiyosiy tahlil qilishga;
- mustaqil ilmiy fikrlashni rivojlantirishga;
- tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, klaster, kichik guruhlarda ishlash, “T.A.R.I.X.” va “Xulosa-daraxt hosilida” kabi metodlar talabalarning darsdagi faolligini oshirishi va tarixiy terminlarni samarali o‘zlashtirishiga yordam berishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi *takliflarni* berish mumkin:

- Oliy ta’lim muassasalarida “Tarixiy terminologiya va glossariy bilan ishlash” mavzusida maxsus amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

- Har bir tarix faniga oid elektron glossariy va terminologik ma’lumotlar bazasi yaratish.

- Tarixiy manbalarni o‘rganishda terminologik tahlilga alohida e’tibor qaratish.

- Interfaol metodlarni tarix fanining seminar va amaliy mashg‘ulotlarida muntazam qo‘llash.

Umuman olganda, tarixiy lug‘at va atamalardan samarali foydalanish oliy ta’limda tarix fanini o‘qitish sifatini oshirish, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda tarixiy merosni ilmiy asosda o‘rganishga xizmat qiluvchи muhim pedagogik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ғаффоров Я. (2019) Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи. – 220 б.

2. Каримов А. (2020) Тарих ўқитиш методикаси ва назарияси. – Тошкент: ТДПУ нашриёти. – 256 б.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2021) Tarix fanining o‘quv-uslubiy majmuasi. – Toshkent. – 180 b.

4. Расулов Б. (2022) Терминологиянинг ўзига хос хусусиятлари ва унинг бугунги кундаги аҳамияти // Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент. – Б. 30-38.

5. Seixas P. (2017) Historical Thinking and Historical Consciousness. – Toronto: University of Toronto Press. – 210 p.

6. To‘xtayev N. (2018) Pedagogik terminlar uyadoshlik lug‘ati. – Toshkent: Fan. – 150 b.

7. Wineburg S. (2001) Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – Philadelphia: Temple University Press. – 255 p.

8. Xolmatov D. (2023) Tarix fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. – B. 50-57.

REFERENCES:

1. G‘afforov Y. (2019) Tarix o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. – 220 b. (In Uzbek)

2. Karimov A. (2020) Tarix o‘qitish metodikasi va nazariyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti. – 256 b. (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2021) Tarix fanining o‘quv-uslubiy majmuasi. – Toshkent. – 180 b. (In Uzbek)

4. Rasulov B. (2022) Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent. – B. 30-38. (In Uzbek)

5. Seixas P. (2017) Historical Thinking and Historical Consciousness. – Toronto: University of Toronto Press. – 210 p.

6. To‘xtayev N. (2018) Pedagogik terminlar uyadoshlik lug‘ati. – Toshkent: Fan. – 150 b. (In Uzbek)

7. Wineburg S. (2001) Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – Philadelphia: Temple University Press. – 255 p.

8. Xolmatov D. (2023) Tarix fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. – B. 50-57 (In Uzbek)

BELBOG‘LI KURASH MASHG‘ULOT JARAYONIGA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA METODIK ASOSLARI

PEDAGOGICAL CONDITIONS AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES INTO THE BELT WRESTLING TRAINING PROCESS

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ТРЕНИРОВОЧНЫЙ ПРОЦЕСС ПО ПОЯСНОЙ БОРЬБЕ

Mo‘ydinov Maxsudbek Rustambek o‘g‘li
Oriental universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti
Tel.: +998 93-523-11-10
E-mail: maxsudbek571@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarini qo‘llash jahon miqyosida jadal rivojlanmoqda. Biroq belbog‘li kurash kabi an’anaviy sport turlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-metodik asoslari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash nafaqat texnik, balki pedagogik yondashuvni ham talab etadi. Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar murabbiylar va sportchilarning raqamli texnologiyalarga moslashishini ta’minlaydi hamda mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, sun’iy intellekt, mashg‘ulot metodikasi, pedagogik shart-sharoit, raqamli transformatsiya, yakka kurash sport turlari, sportda innovatsion texnologiyalar.*

Abstract. The application of digital technologies and artificial intelligence tools in modern sports training is rapidly developing worldwide. However, the scientific and methodological foundations for implementing artificial intelligence technologies in traditional sports such as belt wrestling remain insufficiently studied.

This study aims to identify the pedagogical conditions necessary for integrating artificial intelligence technologies into the belt wrestling training process and to develop their methodological foundations.

Integrating artificial intelligence technologies into the belt wrestling training process requires not only a technical but also a pedagogical approach. The methodological recommendations developed based on the identified pedagogical conditions facilitate coaches' and athletes' adaptation to digital technologies and contribute to enhancing training effectiveness.

Keywords: *belt wrestling, artificial intelligence, training methodology, pedagogical conditions, digital transformation, combat sports, innovative technologies in sports.*

Аннотация. Применение цифровых технологий и инструментов искусственного интеллекта в современной спортивной тренировке стремительно развивается во всём мире. Однако научно-методические основы внедрения технологий искусственного интеллекта в такие традиционные виды спорта, как поясная борьба, остаются недостаточно изученными.

Настоящее исследование направлено на выявление педагогических условий, необходимых для интеграции технологий искусственного интеллекта в тренировочный процесс по поясной борьбе, и разработку их методических основ.

Интеграция технологий искусственного интеллекта в тренировочный процесс по поясной борьбе требует не только технического, но и педагогического подхода. Разработанные на основе выявленных педагогических условий методические рекомендации способствуют адаптации тренеров и спортсменов к цифровым технологиям и повышению эффективности тренировочного процесса.

Ключевые слова: поясная борьба, искусственный интеллект, методика тренировки, педагогические условия, цифровая трансформация, единоборства, инновационные технологии в спорте.

KIRISH

Belbog‘li kurash xalqaro miqyosda 50 dan ortiq davlatda rivojlanayotgan, boy tarixiy an'analarga ega bo‘lgan yakka kurash sport turidir. O‘zbekistonda belbog‘li kurash milliy sport turlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Karimov (2019) ta'kidlaganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston belbog‘li kurash maktabi xalqaro maydonda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mashg‘ulot jarayonlarini ilmiy-metodik ta'minlash borasida hali hal etilmagan qator muammolar mavjud (Karimov F.A., 2019: 45).

Zamonaviy sport fani jadal rivojlanayotgan bir davrda, ko‘plab rivojlangan davlatlar mashg‘ulot jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini faol joriy etmoqda. Bompa va Haff (2020) sportda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslarini ishlab chiqib, bu texnologiyalar sportchilarning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish imkonini berishini ko‘rsatgan (Bompa T., Haff G., 2020: 84). Biroq belbog‘li kurash kabi an'anaviy sport

turlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi bilan bog‘liq holda sport sohasida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nazarda tutiladi. Ushbu strategiyaga muvofiq, sport mashg‘ulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (Akbarov A., Musaev B.B., 2013: 112).

Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, sun'iy intellekt texnologiyalarini sport mashg‘ulotlariga joriy etish musobaqa natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Xolmurodov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kurash sport turlarida texnik-taktik harakatlarni bashorat qilish imkoniyatlarini isbotlagan (Xolmurodov R.D., 2022: 23).

Uchinchidan, belbog‘li kurashning o‘ziga xos xususiyatlari – bel tutashuvi, aylanish tezligi va muvozanatni saqlash kabi elementlar – maxsus sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqishni talab etadi. Bompa (2018) ta'kidlaganidek, yakka kurash sport turlarida zamonaviy monitoring vositalarining roli tobora ortib bormoqda (Bompa T.O., 2018: 77).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sport sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Sport natijalarini bashorat qilish. Impellizzeri va Menaspà (2021) sun'iy intellekt yordamida mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish bo‘yicha tadqiqotlarida mashinali o‘qitish algoritmlari sportchilarning charchoq darajasini yuqori aniqlikda bashorat qilishi mumkinligini ko‘rsatgan (Platonov V.N., 2015: 54).

Texnik-taktik harakatlarni tahlil qilish. Chen va Tian (2023) tomonidan ishlab chiqilgan kompyuterli ko‘rish va chuqur o‘qitish texnologiyalari sportchilarning harakat pozitsiyalarini real vaqt rejimida aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi (Tastanov N.A., 2021: 33).

Jarohatlarning oldini olish. James va Haff (2022) yakka kurash sport turlarida taqiladigan sensorlar va sun'iy intellekt yordamida jarohatlarni oldini olish bo‘yicha tizimli tahlilida sun'iy intellekt monitoring tizimlari ortiqcha yuklamalar natijasida yuzaga keladigan jarohatlarni sezilarli darajada kamaytirishini isbotlagan (Akbarov A. & Musaev B.B., 2013: 112).

Pedagogik integratsiya masalalari. Collins va MacNamara (2022) sport mashg‘ulotlarida raqamli transformatsiyaning pedagogik muammolarini o‘rganib, yangi texnologiyalarni joriy etishda murabbiylar va sportchilarning moslashuvi eng muhim omil ekanligini ta'kidlagan (Karimov F.A., 2019: 47).

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha ma'lum ilmiy asoslar mavjud. Biroq belbog‘li kurashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik asoslari hali maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan (Xolmurodov R.D., 2022: 25).

Tadqiqot maqsadi: Belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularning metodik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

2. Belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

3. Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalashning metodik asoslarini ishlab chiqish.

4. Ishlab chiqilgan metodik asoslarni ekspert baholashdan o‘tkazish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Ilk bor belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi va ilmiy asoslandi.
- Belbog‘li kurashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning metodik asoslari ishlab chiqildi.
- “Murabbiy – sun’iy intellekt tizimi – sportchi” uchligidagi o‘zaro hamkorlik modeli taklif etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy va empirik bosqichlarni o‘z ichiga olgan aralash metodli dizaynda tashkil etildi. Tadqiqot 2024-2025 yillar davomida uch bosqichda olib borildi.

1-Jadval. Tadqiqot bosqichlari va muddatlari

Bosqich	*Davr*	*Davomiyligi*	*Asosiy vazifalar*
1-bosqich	2024 yil sentabr – dekabr	4 oy	Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, xalqaro tajribani o‘rganish
2-bosqich	2025 yil yanvar – mart	3 oy	Pedagogik kuzatuv, ekspert so‘rovnomalari, metodik asoslarni ishlab chiqish
3-bosqich	2025 yil aprel – may	2 oy	Ekspert baholash, natijalarni umumlashtirish, xulosa va tavsiyalar tayyorlash

Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “Yakka kurash sport turlari” kafedrasi hamda belbog‘li kurash bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi mashg‘ulot bazasida olib borildi.

Ekspert guruhi tarkibi:

- Belbog‘li kurash bo‘yicha yuqori malakali murabbiylar (n=8)
- Sport axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar (n=3)
- Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi yo‘nalishidagi olimlar (n=4)

Jadval 2. Ekspert guruhi tavsifi

Ko‘rsatkich	Murabbiylar (n=8)	IT mutaxassislar (n=3)	Olimlar (n=4)	Jami (n=15)
Yoshi (yil)	42,5 ± 8,3	31,7 ± 5,1	48,2 ± 7,6	42,1 ± 8,9
Ish staji (yil)	14,8 ± 6,2	6,3 ± 2,5	18,5 ± 7,1	12,4 ± 5,7
Oliy toifali murabbiy	5	-	-	5

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil metodi. Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, jumladan, Scopus, Web of Science, Google Scholar va O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari tahlil qilindi. Adabiyotlarni tanlashda quyidagi kalit so‘zlardan foydalanildi: “artificial intelligence in sports”, “combat sports training”, “belt wrestling”, “digital transformation in physical education”.

Pedagogik kuzatuv metodi. Belbog‘li kurash bo‘yicha terma jamoa va olimpiya zaxiralari sportchilarining 12 ta mashg‘ulot jarayoni kuzatildi. Kuzatuv davomida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish, texnik-taktik harakatlarni baholash mezonlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish holati o‘rganildi.

Ekspert baholash metodi. Ekspert baholash uchun maxsus so‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma uch blokdan iborat bo‘ldi: belbog‘li kurashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi pedagogik to‘siqlar va taklif etilayotgan metodik asoslarning amaliy ahamiyati.

Statistik tahlil metodi. Olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash SPSS 26.0 dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirildi. Ekspert baholari o‘rtacha qiymat, standart og‘ish va variatsiya koeffitsiyenti ko‘rinishida ifodalandi. Ekspert fikrlarining muvofiqligi Kendall konkordatsiya koeffitsiyenti orqali baholandi.

Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ilmiy kengashining 2024-yil 15-sentabrdagi 3-sonli yig‘ilishida ma'qullangan. Barcha ishtirokchilardan tadqiqotda qatnashish uchun yozma rozilik olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida yakka kurash sport turlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi.

Jadval 3. Yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar taqsimoti (Web of Science, 2020-2024 yy.)

Sport turi	Tadqiqotlar soni	Foizda (%)
Boks	47	28,7%
Dzyudo	41	25,0%
Erkin kurash	38	23,2%
Taekvondo	26	15,9%
Boshqa turlar	10	6,0%
Belbog‘li kurash	2	1,2%
JAMI	164	100%

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar asosan boks (28,7%), dzyudo (25,0%) va erkin kurashga (23,2%) qaratilgan. Belbog‘li kurash bo‘yicha esa jami tadqiqotlarning atigi 1,2 foizi amalga oshirilgan.

Belbog‘li kurash bo‘yicha 12 ta mashg‘ulot jarayonini pedagogik kuzatish natijalari quyidagicha.

Jadval 4. Pedagogik kuzatuv natijalari (n=12)

Kuzatuv mezoni	Ha	Yo‘q	Foizda (Ha)
Yuklama hajmi obyektiv o‘lchanganmi?	2	10	16,7%
Sportchilar charchoq darajasi monitoring qilinganmi?	0	12	0%
Texnik harakatlar biomexanik tahlil qilinganmi?	0	12	0%
Video tahlil qo‘llanganmi?	4	8	33,3%
Sportchilar aqlli soat yoki fitnes treker ishlatadimi?	9	3	75%
Mashg‘ulot yuklamasi individual nazorat qilinadimi?	3	9	25%

Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulot yuklamalarining 83,3 foizi murabbiyning subyektiv bahosiga asoslanadi. Sportchilarning 75 foizi shaxsiy fitnes trekerlardan foydalansa-da, bu ma'lumotlar mashg‘ulot jarayonini boshqarishda hisobga olinmaydi.

Ekspert so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi va ularning ahamiyatlilik darajasi baholandi.

Jadval 5. Pedagogik shart-sharoitlarning ekspert bahosi (10 ballik shkala, n=15)

Pedagogik shart-sharoit	O‘rtacha ball (M±SD)	Variatsiya (V%)	Rank
Murabbiylarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish	9,2 ± 0,7	7,6%	1
SI vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish	8,8 ± 0,9	10,2%	2

Murabbiy va SI tizimi hamkorlik protokoli	8,5 ± 1,0	11,8%	3
Ilmiy-metodik ta'minotni yaratish	8,1 ± 1,1	13,6%	4
Sportchilarni raqamli texnologiyalarga moslashtirish	7,9 ± 1,2	15,2%	5
Moddiy-texnik bazani mustahkamlash	7,2 ± 1,4	19,4%	6

Kendall konkordatsiya koeffitsiyenti W = 0,78 ($p < 0,01$) ni tashkil etdi, bu ekspertlar fikrining yuqori darajada muvofiqligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va ekspert baholash natijalariga asoslanib, belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalashning metodik asoslari ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan metodik asoslar ekspertlar tomonidan baholandi.

Jadval 6. Ishlab chiqilgan metodik asoslarning ekspert bahosi

Metodik komponent	O‘rtacha ball (M±SD)	Tavsiya etiladi
Raqamli savodxonlikni oshirish moduli	8,7 ± 1,0	Ha
SI vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish modeli	8,4 ± 1,2	Ha
Murabbiy va SI tizimi hamkorlik protokoli	7,9 ± 1,3	Ha
Umumiy o‘rtacha	8,3 ± 1,2	Ha

Ushbu tadqiqot doirasida belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi va ularning metodik asoslari ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar asosan boks, erkin kurash va dzyudo yo‘nalishlariga qaratilgan. Belbog‘li kurash bo‘yicha esa maxsus tadqiqotlar deyarli mavjud emas (jami tadqiqotlarning atigi 1,2%). Bu holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ekspert baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda eng muhim pedagogik shart-sharoit sifatida murabbiylarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish (9,2±0,7 ball) e'tirof etilgan. Bu natija Collins va MacNamara (2022) tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bilan hamohang bo‘lib, ular ham sport mashg‘ulotlarida raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati birinchi navbatda murabbiylarning tayyorgarligiga bog‘liqligini ta'kidlagan (Collins D., MacNamara Á., 2022).

Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirildi. James va Haff (2022) tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlilda yakka kurash sport turlarida sun'iy intellekt monitoring tizimlari ortiqcha yuklamalar natijasida

yuzaga keladigan jarohatlarni 15-25% gacha kamaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan (James L.P., Haff G.G., 2022). Bizning tadqiqotimizda ishlab chiqilgan metodik asoslar aynan shu imkoniyatni belbog‘li kurash sharoitida ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Impellizzeri va Menaspà (2021) tomonidan ilgari surilgan sun'iy intellekt yordamida mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish konsepsiyasi (Impellizzeri F. M., & Menaspà, P. (2021).) bizning tadqiqotimizda belbog‘li kurashning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirildi. Xususan, belbog‘li kurashda bel tutashuvi va aylanish harakatlarining ahamiyatini hisobga olgan holda, sun’iy intellekt tizimida biomexanik parametrlarni o‘lchashga alohida e’tibor qaratish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqotimiz sun’iy intellekt texnologiyalarini sport mashg‘ulotlariga joriy etishda pedagogik yondashuvning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. An’anaviy murabbiy-sportchi munosabatlariga uchinchi element – sun’iy intellekt tizimining qo‘shilishi yangicha pedagogik vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu vaziyatda murabbiy nafaqat sport tayyorgarligi bo‘yicha mutaxassis, balki raqamli ma'lumotlarni talqin qiluvchi va ular asosida pedagogik qarorlar qabul qiluvchi yangi rolga moslashishi talab etiladi.

Ishlab chiqilgan “Murabbiy – sun’iy intellekt tizimi – sportchi” hamkorlik modeli aynan shu yangi pedagogik reallikni aks ettiradi va 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi doirasidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar qatoriga qo‘shilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega. Birinchidan, tadqiqotda empirik ma’lumotlar asosan ekspert baholash va pedagogik kuzatuvga asoslangan bo‘lib, sun’iy intellekt tizimining real amaliyotda qo‘llanishi bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar hali to‘planmagan. Ikkinchidan, tanlanmaning kichikligi (15 nafar ekspert) natijalarni kengroq populyatsiyaga umumlashtirish imkonini cheklaydi. Uchinchidan, tadqiqot faqat O‘zbekiston sharoitida olib borilganligi sababli, boshqa davlatlarning belbog‘li kurash maktablari xususiyatlari hisobga olinmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

1. Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili yakka kurash sport turlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha sezilarli ilmiy asoslar mavjudligini ko‘rsatdi. Biroq belbog‘li kurashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus tadqiqotlar deyarli olib borilmagan (jami tadqiqotlarning 1,2%), bu esa ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

2. Belbog‘li kurash mashg‘ulot jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur:

- Murabbiylarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish (ekspert bahosi: 9,2 ball);
- Sun’iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish (8,8 ball);
- Murabbiy va sun’iy intellekt tizimi o‘rtasidagi hamkorlik protokolini ishlab chiqish (8,5 ball).

3. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik asoslar uchta o‘zaro bog‘liq komponentni – raqamli savodxonlikni oshirish moduli, sun’iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish modeli va murabbiy-sun’iy intellekt hamkorlik protokolini o‘z ichiga oladi.

4. Ekspert baholash natijalari ishlab chiqilgan metodik asoslarning amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi (umumiy o‘rtacha ball: 8,3±1,2).

Amaliy tavsiyalar:

1. Belbog‘li kurash bo‘yicha murabbiylar malakasini oshirish kurslari dasturiga “Sportda sun’iy intellekt texnologiyalari” modulini kiritish tavsiya etiladi.

2. Belbog‘li kurash bo‘yicha terma jamoa va olimpiya zaxiralari mashg‘ulotlarida sun'iy intellekt monitoring tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Oliy ta'lim muassasalarining “Yakka kurash sport turlari” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Sportda raqamli texnologiyalar” fanini kiritish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni . O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – 2020.

2. Abdullayev I. X. (2023) Improvement of the special physical training model of greco-roman junior wrestlers // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – B.9-20.

3. Болтаев А.А. (2018) Талабаларнинг олий таълим муассасаларидаги маданий холатга мослашишининг психологик хусусиятлари // Жисмоний тарбия ва спорт. – B.126-129.

4. Chen Y., Tian Y. (2023) Computer vision and deep learning for human pose estimation in sports // IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence. – Vol. 45, № 6. – B.7234-7251. https://doi.org/10.1109/TPAMI.2022.3224567

5. Collins D., MacNamara Á. (2022) Digital transformation in sports training: Pedagogical challenges and opportunities // Journal of Sports Sciences. – Vol. 40, № 14. – B.1567-1580. https://doi.org/10.1080/02640414.2022.2098765

6. Davidov B. (2025) Self-management during the student period: Pedagogical-psychological characteristics // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – Vol. 6, № 08. – B.565-572.

7. Davidov B. (2026) Talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Conference of Modern Science & Pedagogy. – Vol. 2, № 1. – B.266-269.

8. Impellizzeri F. M., Menaspà P. (2021) The role of artificial intelligence in individualizing training loads: A narrative review // International Journal of Sports Physiology and Performance. – Vol. 16, № 7. – B.931-939.

9. James L.P., Haff G.G. (2022) Wearable sensors and AI for injury prevention in combat sports: A systematic review // Sports Medicine. – Vol. 52, № 8. – B. 1845-1865. https://doi.org/10.1007/s40279-022-01678-5

10. Johnson M., Smith K. (2022) Pedagogical conditions for implementing digital technologies in physical education // Physical Education and Sport Pedagogy. – Vol. 27, № 3. – B.289-304. https://doi.org/10.1080/17408989.2021.1923456

11. Khasanov I.T. (2021) Sport pedagogikasida innovatsion texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTSU.

12. Kruszewski A., Kruszewski M. (2023) Machine learning approaches for technical-tactical performance prediction in wrestling // International Journal of Performance Analysis in Sport. – Vol. 23, № 1. – B.45-62.

13. Ma’murbekova G. (2024) Improving the speed and agility of national wrestlers // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – Vol. 4, № 12. – B.34-37.

14. Ma’murbekova G. (2024) Yuqori malakali sambochi qizlarni funksiyanal xolatiga tezkor kuchning ta’sri // Modern Science and Research. – Vol. 3, № 12. – B.1387-1390.

15. Mo‘ydinov M., Jaynarov N. (2025) O‘smir yoshdagi og‘ir atletikachilarning ratsional ovqatlanishini samarali tashkillashtirishning usullari // Modern Science and Research. – Vol. 4, № 6. – B.398-406.

16. Muidinov M.R. (2024) Technical training in belbogli kurash wrestling through coordination exercises development // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – Vol. 5, № 03. – B.106-115.

17. Po‘latov L.A. (2024) Davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirishda intellektual salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlashning ustuvor vazifalari // News of the NUUz. – Vol. 1, № 1.6. – B.141-143.

18. Rakhimov S.B. (2022) Yakka kurash sport turlarida texnik-taktik tayyorgarlikni nazorat qilishning zamonaviy usullari // Pedagogika va psixologiya. – № 3 (52). – B.78-85.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – 2020. (In Uzbek)

2. Abdullayev I. X. (2023) Improvement of the special physical training model of greco-roman junior wrestlers // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – B.9-20.

3. Болтаев А.А. (2018) Талабаларнинг олий таълим муассасаларидаги маданий холатга мослашишининг психологик хусусиятлари // Жисмоний тарбия ва спорт. – B.126-129. (In Uzbek)

4. Chen Y., Tian Y. (2023) Computer vision and deep learning for human pose estimation in sports // IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence. – Vol. 45, № 6. – B.7234-7251. https://doi.org/10.1109/TPAMI.2022.3224567

5. Collins D., MacNamara Á. (2022) Digital transformation in sports training: Pedagogical challenges and opportunities // Journal of Sports Sciences. – Vol. 40, № 14. – B.1567-1580. https://doi.org/10.1080/02640414.2022.2098765

6. Davidov B. (2025) Self-management during the student period: Pedagogical-psychological characteristics // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – Vol. 6, № 08. – B.565-572.

7. Davidov B. (2026) Talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Conference of Modern Science & Pedagogy. – Vol. 2, № 1. – B.266-269. (In Uzbek)

8. Impellizzeri F. M., Menaspà P. (2021) The role of artificial intelligence in individualizing training loads: A narrative review // International Journal of Sports Physiology and Performance. – Vol. 16, № 7. – B.931-939.

9. James L.P., Haff G.G. (2022) Wearable sensors and AI for injury prevention in combat sports: A systematic review // Sports Medicine. – Vol. 52, № 8. – B. 1845-1865. https://doi.org/10.1007/s40279-022-01678-5

10. Johnson M., Smith K. (2022) Pedagogical conditions for implementing digital technologies in physical education // Physical Education and Sport Pedagogy. – Vol. 27, № 3. – B.289-304. https://doi.org/10.1080/17408989.2021.1923456

11. Khasanov I.T. (2021) Sport pedagogikasida innovatsion texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTSU. (In Uzbek)

12. Kruszewski A., Kruszewski M. (2023) Machine learning approaches for technical-tactical performance prediction in wrestling // International Journal of Performance Analysis in Sport. – Vol. 23, № 1. – B.45-62.

13. Ma’murbekova G. (2024) Improving the speed and agility of national wrestlers // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – Vol. 4, № 12. – B.34-37.

14. Ma’murbekova G. (2024) Yuqori malakali sambochi qizlarni funksiyanal xolatiga tezkor kuchning ta’sri // Modern Science and Research. – Vol. 3, № 12. – B.1387-1390. (In Uzbek)

15. Mo‘ydinov M., Jaynarov N. (2025) O‘smir yoshdagi og‘ir atletikachilarning ratsional ovqatlanishini samarali tashkillashtirishning usullari // Modern Science and Research. – Vol. 4, № 6. – B.398-406. (In Uzbek)

16. Muidinov M.R. (2024) Technical training in belbogli kurash wrestling through coordination exercises development // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – Vol. 5, № 03. – B.106-115.

17. Po‘latov L.A. (2024) Davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirishda intellektual salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlashning ustuvor vazifalari // News of the NUUz. – Vol. 1, № 1.6. – B.141-143. (In Uzbek)

18. Rakhimov S.B. (2022) Yakka kurash sport turlarida texnik-taktik tayyorgarlikni nazorat qilishning zamonaviy usullari // Pedagogika va psixologiya. – № 3 (52). – B.78-85. (In Uzbek)

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT VA PROMPT INJINIRING YORDAMIDA FILOLOGIK TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

MODERN APPROACHES TO IMPROVING THE QUALITY OF PHILOLOGICAL EDUCATION USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND PROMPT ENGINEERING

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И PROMPT-ИНЖИНИРИНГА

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna
Oriental universiteti,"Matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchi
Tel.: +99897-748-58-11
E-mail: zukhra_doctor@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida generativ sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan, xususan, filologik ta'limda generativ SI vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritilib, prompt injiniring (PI) asosida ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari ishlab chiqilgan. ChatGPT kabi yirik til modellari asosidagi vositalardan filologik ta'lim jarayonida samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot Oriental universiteti filologiya yo'nalishlari talabalari ishtirokida olib borilgan tajribaviy izlanishlarga asoslanadi. Tajriba jarayonida arab, turk, xitoy va koreys filologiyasi yo'nalishlarida tahsil olayotgan 114 nafar talabaning ChatGPT dan foydalanish natijalari qiyosiy o'rganildi. Tajriba davomida talabalar dastlab ChatGPT ga oddiy va qisqa so'rovlar yuborgan holatda topshiriqlar bajardilar. Keyingi bosqichda esa PI tamoyillari asosida aniq maqsad, kontekst, rol va javob formati ko'rsatilgan so'rovlar bilan ishlash tashkil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oddiy so'rovlar bilan olingan javoblar sifati o'rtacha 65% bo'lsa, aniq va boyitilgan so'rovlar bilan o'rtacha 95% qiymatgacha yetdi.

Tadqiqot yakunida ta'lim jarayoniga prompt tuzish kompetensiyalarini integratsiya qilish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda SI texnologiyalari bilan ishlash mezonlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *generativ sun'iy intellekt texnologiyalari, ChatGPT, prompt injiniring, filologik ta'lim, ta'lim sifati, prompt dizayni, interaktiv ta'lim, sun'iy intellekt kompetensiyalari.*

Abstract. This article highlights the didactic potential of using generative artificial intelligence technologies in the higher education system and examines modern methods

for improving the quality of philological education through prompt engineering. The study explores the effective use of tools based on large language models, such as ChatGPT, in the educational process.

The research is based on an experimental study conducted with students of philological specialties at Oriental University. During the experiment, the results of using ChatGPT by 114 students majoring in Arabic, Turkish, Chinese, and Korean philology were comparatively analyzed. At the initial stage of the experiment, students completed tasks by sending simple and short prompts to ChatGPT. In the following stage, the work was organized according to the principles of prompt engineering, where prompts included clearly defined objectives, context, role specifications, and response formats. The study results showed that the quality of responses obtained through standard queries averaged 65%, while the use of detailed and enriched prompts increased this indicator to an average of 95%.

Based on the results of the research, scientific and practical recommendations are proposed regarding the integration of prompt-construction competencies into the educational process, the organization practical training sessions, and the implementation for working with artificial intelligence technologies.

Keywords: *technologies of generative artificial intelligence, ChatGPT, prompt engineering, philological education, quality of education, prompt design, interactive learning, artificial intelligence competencies.*

Аннотация. В данной статье освещаются дидактические возможности использования технологий генеративного искусственного интеллекта в системе высшего образования, в частности, рассматриваются современные методы повышения качества филологического образования на основе промпт-инжиниринга. Исследуются вопросы эффективного использования в учебном процессе инструментов на базе больших языковых моделей, таких как ChatGPT.

Исследование основывается на экспериментальной работе, проведенной с участием студентов филологических направлений университета Ориентал. В ходе эксперимента были сравнительно изучены результаты использования ChatGPT 114 студентами, обучающимися по направлениям арабской, турецкой, китайской и корейской филологии. В ходе эксперимента студенты сначала выполняли задания, отправляя в ChatGPT простые и короткие запросы. На следующем этапе работа была организована на основе принципов промпт-инжиниринга, где запросы содержали чётко определённые цели, контекст, роль и формат ответа. Результаты исследования показали, что качество ответов, полученных с помощью обычных запросов, в среднем составляло 65 %, тогда как при использовании детализированных и расширенных запросов данный показатель достигал в среднем до 95 %.

По итогам исследования были предложены научно-практические рекомендации по интеграции компетенций составления промптов в образовательный процесс, организации практических занятий, а также внедрению критериев работы с технологиями искусственного интеллекта.

Ключевые слова: *технологии генеративного искусственного интеллекта, ChatGPT, промпт-инжиниринг, филологическое образование, качество образования, дизайн промптов, интерактивное обучение, компетенции в области искусственного интеллекта.*

KIRISH

So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan, yirik til modellari (LLM) oliy ta’lim jarayonida keng qo‘llanila boshladi. ChatGPT kabi tizimlar filologik ta’limda matn tahlili, tarjima, izohlash va akademik yozuv jarayonlarini avtomatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda.

Biroq, SI natijalarining sifati foydalanuvchi tomonidan berilgan so‘rov (prompt) sifatiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois “prompt injiniring”, ya’ni so‘rovlarni mantiqan va strukturali shakllantirish – zamonaviy pedagogik kompetensiya sifatida shakllanmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – filologik ta’lim jarayonida generativ SI samaradorligini oshirishda prompt injiniringning rolini aniqlash va uning didaktik mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Ushbu tadqiqot ChatGPT dan foydalanish orqali o‘qitish-tahlil jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo’lib, o‘zbek tili kontekstida, promt injiniringni qo‘llash orqali talabalar ChatGPT natijalarini qanday yaxshilashi mumkinligi sinovdan o‘tkazildi. Taqdim etilayotgan tadqiqotda talabalarga avval oddiy usulda savol berish so‘raldi, keyin promt injiniring bo‘yicha qisqa seminar o‘tkazilib, takomillashtirilgan ko‘rsatma bilan yana SI testlandi. Maqolada tadqiqot usullari, olingan natijalar va ta’limiy-amaliy tavsiyalar batafsil bayon etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

AIEd (Artificial intelligence in education) sohasida sun’iy intellekt baholash, talabaning natijalarini prognoz qilish, moslashtirilgan repetitorlik va o‘quv jarayonini boshqarish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda (Jacobsen LJ, Weber K. 2025:35).

Ayniqsa ChatGPT va boshqa yirik til modellari inson tilida murakkab matnlar yaratish imkoniyati tufayli talabalar va o‘qituvchilar e’tiborini qozondi. Ularning afzalligi – o‘quv jarayonida tez va keng qamrovli ma’lumot taqdim etishidir. Shuning uchun SI vositalaridan samarali foydalanish masalasi dolzarbdir. Lee va Palmer (2025) ta’kidlaganidek (Lee D., Palmer 2025), generativ SI vositalaridan muvaffaqiyatli foydalangan holda natija olish uchun beriladigan so‘rovlarni mantiqan va maqsadga muvofiq tuzish zarur.

So‘rov dizayni (prompt engineering) – bu katta til modellariga (LLM) beriladigan savol yoki ko‘rsatma yaratish jarayonidir. Ya’ni foydalanuvchi aniq, izchil savollar tuzib, mos natija olishni maqsad qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ChatGPT kabi modellarning natijalari sifati faqatgina o‘z asosiy algoritmi yoki o‘qitilgan ma’lumotlarga emas, balki ularga berilgan so‘rovlarning aniqligi va mazmuniga ham bog‘liq (Jacobsen LJ, Weber K. 2025; 6(2):35). Misol uchun, Kipp (2023) promt yaratishda to‘rtta asosiy element – kontekst, asosiy savol, javob formati va misollarni belgilab beradi (Jacobsen LJ, Weber KE. 2025; 6(2):35). Lo va hammualliflari esa samarali so‘rovlar uchun CLEAR (Concise, Logical, Explicit, Adaptive, Reflective) tamoyillarini ilgari surgan (Jacobsen LJ, Weber KE. 2025; 6(2):35.; Lo, L.S. 2023: 49, 102720.).

M.A.Davlatova va M.V.Speranskaya (2026) ta’kidicha, promt dizayni zamonaviy o‘qitishda yangi generative SI bilan samarali muloqot uchun zarur bo‘lgan multidisiplinar kompetentsiya hisoblanadi (Davlatova M.A., Speranskaya M.V. 2026; 35(2):53-73.).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot eksperimental va qiyosiy tahlil metodlariga asoslandi. Tadqiqot bazasi sifatida Oriental universiteti tanlandi. Tadqiqotda arab, turk, xitoy va koreys filologiyasi yo‘nalishlaridan jami 114 nafar talabalari qatnashdi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1-bosqich (bazaviy holat): Tadqiqotning dastlabki bosqichida talabalar ChatGPT ga sodda, qisqa va umumiy ko‘rinishdagi promptlar berishdi. Masalan, arab filologiyasi yo‘nalishi talabalariga “Arab tilida izofa tushunchasi” yoki “Maf’ulun bihi mavzusini tushuntirib ber” kabi qisqa va oddiy so‘rovlar kiritish vazifasi berildi. Turk, xitoy va koreys filologiyasi talabalariga ham o‘z mutaxassislik tillariga mos oddiy grammatik va lingvistik so‘rovlar tadqim etildi. Ushbu bosqichda ChatGPT tomonidan taqdim etilgan javoblar umumiy, ayrim hollarda yuzaki hamda metodik jihatdan yetarli darajada chuqur bo‘lmaganligi kuzatildi.

2-bosqich (eksperimental holat): Bu bosqichda talabalar uchun ilg‘or prompt injiniring tamoyillariga asoslangan takomillashtirilgan so‘rovlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida prompt injiniring tamoyillari asosida ikki xil takomillashtirilgan so‘rov usuli qo‘llanildi:

1) Birinchi usulda SI modeliga rol va akademik kontekst berildi. Bunda prompt injiniring asosida quyidagi elementlar qo‘llanildi:

- rol belgilash;
- kontekst berish;
- javob formatini belgilash;
- bosqichma-bosqich so‘rovlar.

Masalan: “Sen arab tili bo‘yicha yaxshi mutaxassissan. Menga “Maf’ulun bihi” mavzusini oliy ta’lim akademik darajada batafsil bayon qil”.

2) Ikkinchi usulda esa so‘rov maksimal strukturali akademik prompt dizayni asosida tuzildi.

Masalan:

“Mavzu: Maf’ulun bihi
Daraja: PhD
Mutaxassislik: Arab filologiyasi
Matn turi: To‘liq va batafsil
Misollar: Har bir holat uchun 10 tadan”

Quyidagi jadvalda tadqiqotda ishlatilgan oddiy va takomillashtirilgan so‘rovlardan ba’zi namunalar keltirilgan:

Oddiy prompt	Takomillashtirilgan prompt (1-usul)	Takomillashtirilgan prompt (2-usul)
“Maf’ulun bihi mavzusini tushuntirib ber”	“Sen arab tili bo‘yicha yaxshi mutaxassissan. Menga “Maf’ulun bihi” mavzusini oliy ta’lim akademik darajada batafsil bayon qil”	Mavzu: Maf’ulun bihi Daraja: PhD Mutaxassislik: Arab filologiyasi Matn turi: To‘liq va batafsil Misollar: Har bir holat uchun 10 tadan
“Murakkab izofa mavzusini tushuntirib ber”	Rol berish uchun 1-prompt: “Sen arab tili grammatikasi bo‘yicha zo‘r mutaxassissan. Menga arab tili grammatikasi bo‘yicha chuqur yordaming kerak. Yordam bera olasanmi?” Mavzuga kirish uchun 2-prompt: “Murakkab izofa” mavzusini arab filologiyasi Oliy ta’lim akademik darajada arab tilida misollar bilan tushuntirib ber”	Mavzu: Murakkab izofa Daraja: Oliy ta’lim akademik Mutaxassislik: Arab filologiyasi Misollar: Har biriga 10 tadan misol ber
“Xitoy tilidagi L grammatikani tushuntirib ber”	“Sen xitoy tili bo‘yicha zo‘r o‘qituvchisan. Menga L mavzusini xitoy filologiyasi oliy ta’lim akademik darajada xitoy tilidagi misollar bilan batafsil tushuntirib ber”	Mavzu: L grammatika Daraja: oliy ta’lim akademik Mutaxassislik: Xitoy filologiyasi Misollar: Har bir holat uchun 10 tadan
“고 싶다 grammatikasini tushuntirib ber”	“Sen koreys tili bo‘yicha zo‘r mutaxassissan. Menga고 싶다 mavzusini koreys filologiyasi oliy ta’lim akademik darajada koreys tilidagi misollar bilan tushuntirib ber”	Mavzu: 고 싶다 grammatika Daraja: oliy ta’lim akademik Mutaxassislik: Koreys filologiyasi Misollar: Har bir holat uchun 10 tadan

Ushbu takomillashtirilgan promptlar asosida olingan natijalar sezilarli darajada sifatli, tizimli va ilmiy jihatdan boy bo‘ldi.

Keyingi bosqichda esa olingan natijalarni yanada tizimlashtirish maqsadida talabalarga ChatGPTdan olingan javoblarni **jadval ko‘rinishida formatlash** bo‘yicha qo‘shimcha promptlar berildi. Natijada SI tomonidan quyidagi turdagi strukturali jadvallar shakllantirildi:

Tahlil turi	Oddiy prompt natijasi	Strukturali prompt natijasi
Grammatik izoh	Umumiy tushuntirish	Bosqichma-bosqich tahlil
Misollar	Kam va tasodifiy	10+ tizimli misollar
Terminologiya	Cheklangan	Akademik va keng
Tushunarlilik	O‘rtacha	Yuqori daraja

Shundan so‘ng talabalar ChatGPT tomonidan yaratilgan jadvallarni **MS Word formatiga transformatsiya qilish** bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egalladilar. Bu jarayonda ular SI natijalarini:

- Word jadval strukturasiga o‘tkazish,
- sarlavha va bo‘limlarga ajratish,
- akademik hujjat formatiga moslashtirish va boshqa ko‘nikmalar bo‘yicha amaliy tajriba orttirdilar.

Natijada har bir talaba o‘z mavzusi bo‘yicha Word formatidagi ilmiy baza yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy va strukturali tuzilgan promptlar SI javoblarining aniqligi, izchilligi va ilmiy-uslubiy sifatini sezilarli darajada oshirdi.

Ko‘rsatkich	Oddiy prompt (%)	Strukturali prompt (%)
Javob aniqligi	61	89
Matn tahlili sifati	58	91
Tarjima sifati	64	93
Talaba qoniqishi	67	95

Kuzatuv natijalariga ko‘ra quyidagilar aniqlandi:

- Strukturali promptlar javoblarning akademik darajasini oshirdi;
- Talabalar SI bilan ishlashda faolroq va aniqroq natijaga erishdi;
- Lingvistik tahlil chuqurlashdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, generativ SI va PI texnologiyalari filologik ta’lim sifatini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Strukturali va mantiqan asoslangan promptlar SI natijalarining aniqligi va ilmiy qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Quyida talabalar tomonidan tadqiqotni bajarishda olingan ba’zi natijalar keltirilgan:









例句 (misol)	了 turi	Grammatik vazifa	Izoh
我去了图书馆	动态助词了	harakat tugadi	borib bo‘ldi
布置了很多作业	动态助词了	harakat bajarildi	vazifa berildi
看了两个小时	动态助词了	tugallangan harakat	o‘qib bo‘ldi
我的朋友来了	句末了	yangi vaziyat	do‘st kelib qoldi
找到了新的工作	动作实现	natija yuz berdi	ish topildi
我们吃了饭	动态助词了	harakat tugadi	ovqat yeyildi
写完了报告	结果补语+了	natija + tugallanish	yozib tugatdi
已经很晚了	句末了	holat o‘zgarishi	vaqt kech bo‘ldi
回家了	句末了	yangi vaziyat	uyga ketdi
我累了	状态变化	holat o‘zgarishi	charchadi
明白了	变化	tushunish yuz berdi	anglab yetdi

Bajarilgan tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra aytish mumkinki, PI quyidagi didaktik imkoniyatlarni yaratadi:

- talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi;
- til kompetensiyasini mustahkamlaydi;
- mustaqil o‘qish samaradorligini oshiradi;
- akademik yozuv sifatini yaxshilaydi.

Shu bilan birga, noto‘g‘ri tuzilgan so‘rovlar SI javoblarining yuzaki va noaniq bo‘lishiga olib kelishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, prompt injiniring tamoyillari asosida aniq, mantiqiy va kontekstga boy shakllantirilgan so‘rovlar generativ SI javoblarining sifati hamda mazmuniy aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, matn tahlili, tarjima, izohlash va savollarga javob berish jarayonlarida talabalarning ishlash samaradorligi ortgani kuzatildi. Shuningdek, SI bilan ishlashda noto‘g‘ri yoki noaniq tuzilgan so‘rovlar natija sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, olingan natijalar generativ SI va prompt injiniring texnologiyalari ta’lim olish jarayonini tezlashtirishi, shuningdek uni strukturalashtirish, tizimlashtirish va akademik hujjat shakliga keltirishda ham muhim didaktik vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Bajarilgan tadqiqot ishi asosda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. O‘quv dasturlariga prompt injiniring modullarini kiritish;
2. SI bilan ishlash bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va talabalarga amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;
3. Baholash mezonlarini ishlab chiqish;
4. Akademik halollik va SI etikasi bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Demak, filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish jarayonida SI bilan prompt injiniring texnologiyalarini maqsadga qaratilgan holda sifatli promptlar ishlatish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Olingan sifatli natijalarni jadvallar ko‘rinishiga keltirish asosida tahlil qilish va Word hujjatga integratsiya qilish orqali keyinchalik yana qayta ishlash va axborot bazalari sifatida boyitib borish mumkinligi amaliy jihatdan asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cain W. (2024) Prompting Change: Exploring Prompt Engineering in Large Language Model AI and Its Potential to Transform Education // TechTrends. – Vol. 68. – B. 47-57.

2. Davlatova M. A., Speranskaya M. V. (2026) Промпт-инжиниринг как ключевая компетенция в образовании: сущность, особенности и подходы к оцениванию // Высшее образование в России. — Ташкент. 35, № 2. – С. 53-73.

3. Giray L. (2023) Prompt Engineering with ChatGPT: A Guide for Academic Writers // Annals of Biomedical Engineering. – Vol. 51, № 12. – B. 2629-2633.

4. Jacobsen L.J., Weber K.E. (2025) The Promises and Pitfalls of Large Language Models as Feedback Providers: A Study of Prompt Engineering and the Quality of AI-Driven Feedback // AI. – Vol. 6, № 2. – B. 35.
https://doi.org/10.3390/ai6020035

5. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. (2023) ChatGPT for Language Teaching and Learning // RELC Journal. – Vol. 54, № 2. – B. 537-550.

6. Lee D., Palmer E. (2025) Prompt engineering in higher education: a systematic review to help inform curricula // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – Vol. 22. https://doi.org/10.1186/s41239-025-00503-7

7. Lin Z. (2024) Prompt Engineering for Applied Linguistics: Elements, Examples, Techniques, and Strategies // English Language Teaching. – Vol. 17, № 9. – B. 14.

8. Lo L.S. (2023) The CLEAR path: A framework for enhancing information literacy through prompt engineering // The Journal of Academic Librarianship. – Vol. 49, № 4. – 102720.

REFERENCES:

1. Cain W. (2024) Prompting Change: Exploring Prompt Engineering in Large Language Model AI and Its Potential to Transform Education // TechTrends. – Vol. 68. – B. 47-57.

2. Davlatova M. A., Speranskaya M. V. (2026) Prompt-injiniring kak klyuchevaya kompetensiya v obrazovanii: sushnost, osobennosti i podxodi k otsenivaniyu // Vissheye obrazovaniye v Rossii. — Tashkent. 35, № 2. – S. 53-73. (In Russian)

3. Giray L. (2023) Prompt Engineering with ChatGPT: A Guide for Academic Writers // Annals of Biomedical Engineering. – Vol. 51, № 12. – B. 2629-2633.

4. Jacobsen L.J., Weber K.E. (2025) The Promises and Pitfalls of Large Language Models as Feedback Providers: A Study of Prompt Engineering and the Quality of AI-Driven Feedback // AI. – Vol. 6, № 2. – B. 35.
https://doi.org/10.3390/ai6020035

5. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. (2023) ChatGPT for Language Teaching and Learning // RELC Journal. – Vol. 54, № 2. – B. 537-550.

6. Lee D., Palmer E. (2025) Prompt engineering in higher education: a systematic review to help inform curricula // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – Vol. 22. https://doi.org/10.1186/s41239-025-00503-7

7. Lin Z. (2024) Prompt Engineering for Applied Linguistics: Elements, Examples, Techniques, and Strategies // English Language Teaching. – Vol. 17, № 9. – B. 14.

8. Lo L.S. (2023) The CLEAR path: A framework for enhancing information literacy through prompt engineering // The Journal of Academic Librarianship. – Vol. 49, № 4. – 102720.

OLIY TA’LIMDA O‘QUV JARAYONINI BOSHQARISHNING EDUKOLOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE EDUCOLOGICAL MECHANISM FOR MANAGING THE ACADEMIC PROCESS IN HIGHER EDUCATION

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭДУКОЛОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНЫМ ПРОЦЕССОМ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Usmanova Gulxumor Saidakbarovna
Oriental universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchisi
19. Verbitskiy A.A. Aktivnoe obuchenie v visshey shkole: kontekstniy podhod. – Moskva: Visshaya shkola, 1991. – 207 s. (In Russian)

INKLYUZIV TA’LIMDAN INKLYUZIV JAMIYATGA O‘TISHDA MAKTAB DIREKTORLARINING INNOVATSION BOSHQARUV SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

ENHANCING THE INNOVATIVE MANAGEMENT CAPACITY OF SCHOOL PRINCIPALS IN THE TRANSITION FROM INCLUSIVE EDUCATION TO AN INCLUSIVE SOCIETY

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕХОДА ОТ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБЩЕСТВУ

Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi, Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
Tel.: +998 94-643-25-34
E-mail: sultonmuminov4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, rahbarlarning strategik fikrlashi, inklyuziv muhitni shakllantirishdagi boshqaruv yondashuvlari hamda xalqaro tajriba o‘rganilgan. Shuningdek, direktorlarning kasbiy kompetensiyalari, liderlik ko‘nikmalari va qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligi muhim omil sifatida yoritiladi. Maqolada innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali ta’lim muassasalarida teng imkoniyatlar yaratish, barcha o‘quvchilar uchun qulay muhitni ta’minlash yo‘llari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’limni rivojlantirish va uni jamiyat darajasiga olib chiqishda maktab rahbarlarining rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlari: *Inklyuziv ta’lim, inklyuziv jamiyat, innovatsion boshqaruv, maktab direktori, liderlik, kompetensiya, strategiya, samaradorlik.*

Annotation. This article analyzes the issues of enhancing the innovative management capacity of school principals in the transition from inclusive education to an inclusive society. The study examines modern changes in the education system, strategic thinking of leaders, management approaches to creating an inclusive environment, and international experience. It highlights the importance of professional competencies, leadership skills, and effective decision-making processes of school principals. The article substantiates ways to ensure equal opportunities and create a supportive environment for all learners through the implementation of innovative

management mechanisms. The research findings contribute to strengthening the role of school leaders in advancing inclusive education towards building an inclusive society.

Keywords: *Inclusive education, inclusive society, innovative management, school principal, leadership, competence, strategy, efficiency.*

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования инновационного управленческого потенциала директоров школ в процессе перехода от инклюзивного образования к инклюзивному обществу. Рассматриваются современные изменения в системе образования, стратегическое мышление руководителей, управленческие подходы к формированию инклюзивной среды, а также международный опыт. Особое внимание уделяется профессиональным компетенциям, лидерским навыкам и эффективности принятия решений директорами школ. Обосновываются пути обеспечения равных возможностей и создания благоприятной среды для всех обучающихся на основе внедрения инновационных управленческих механизмов. Результаты исследования способствуют усилению роли руководителей школ в развитии инклюзивного образования и построении инклюзивного общества.

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, инклюзивное общество, инновационное управление, директор школы, лидерство, компетентность, стратегия, эффективность.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuzivlik tamoyillarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb etish, balki jamiyatda tenglik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim menejmentining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ta’lim muassasalari rahbarlari, xususan, maktab direktorlarining o‘rni beqiyosdir. Direktor qulay ta’lim muhitini yaratish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda asosiy subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shunga qaramay, inklyuziv ta’limni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, ushbu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish ta’lim tizimini boshqarishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar inklyuziv ta’limni keng joriy etish uchun zarur shart-

sharoitlarni yaratgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga samarali tatbiq etishda maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyati yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqarish, inklyuziv muhitni kompleks tashkil etish, turli hududlar o‘rtasidagi resurs va imkoniyatlar tafovutini kamaytirish, shuningdek, barcha ta’lim ishtirokchilari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion boshqaruv yondashuvlariga ehtiyoj keskin ortib bormoqda.

Mazkur holat inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishni dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida belgilaydi.

Shu bois, inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuzivlik tamoyillarini joriy etish global ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan qabul qilingan “Incheon Declaration for Education 2030: Towards Inclusive and Equitable Quality Education and Lifelong Learning for All” (2015) hamda United Nations tomonidan ilgari surilgan “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development” (2015) hujjati doirasidagi 4-maqsad - SDG 4: “Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all”da barcha uchun teng, sifatli va inklyuziv ta’limni ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” (1989) va “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” (2006) mazkur prinsipning xalqaro darajadagi huquqiy asoslarini belgilab beradi.

UNESCO “Policy Guidelines on Inclusion in Education”hujjatida inklyuziv ta’lim bir qator xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanishi ta’kidlanadi (2009).

Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) har bir insonning ta’lim olish huquqini belgilab beradi.

Shuningdek, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989) bolalarning diskriminatsiyasiz ta’lim olish huquqini mustahkamlaydi va ularning manfaatlarini ustuvor deb e’tirof etadi.

Bundan tashqari, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (2006) inklyuziv ta’limni alohida tamoyil sifatida belgilab, nogironligi bo‘lgan shaxslarning umumiy ta’lim tizimida teng asosda ishtirok etishini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. UNESCO

yondashuvida ushbu hujjat inklyuziv ta’limni rivojlantirishning eng muhim huquqiy asoslaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, Salamanka bayonoti (1994) inklyuziv ta’limning konseptual asoslarini belgilab bergan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Unda barcha bolalar, ularning individual xususiyatlaridan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida ta’lim olishi lozimligi alohida ta’kidlangan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948): Har bir insonning bilim olish huquqi borligini va ta’lim hamma uchun ochiq bo‘lishi kerakligini birinchi bo‘lib e’lon qilgan. UNESCO esa inklyuziv ta’limning global targ‘ibotchisi sifatida ushbu yo‘nalishning falsafasini belgilab bergan.

2000-yilda Dakarda qabul qilingan “Hamma uchun ta’lim” (Education for All) harakat dasturida 2015-yilgacha barcha bolalar, xususan kam ta’minlangan va imkoniyati cheklangan guruhlar uchun bepul va sifatli boshlang‘ich ta’limni ta’minlash maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, bu ta’limda tenglik va inklyuzivlikni global strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini o‘rganish maqsadida tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy ish jarayonida ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu hamda pedagogik tajriba-sinov usullari qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi ta’minlandi. Tadqiqot davomida innovatsion boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan model va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijada maktab direktorlarining inklyuziv boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan xulosalarga erishildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy nuqtayi nazardan inklyuziv ta’lim jamiyatdagi stigma (tamg‘alash) va kamsitishlarni yo‘qotishga xizmat qiladi. Tenglik va integratsiya: Bolalar yoshligidanoq xilma-xillikni tabiiy qabul qilishni o‘rganadi. Bu “biz” va “ular” degan to‘siqlarni buzadi. Ijtimoiy moslashuv: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jamiyatdan ajratilgan (Maxsus maktab) yopiq muhitida emas, balki real hayotiy muloqotda o‘sadilar. Bu ularning kelajakda mustaqil yashash qobiliyatini oshiradi. Boshqa (sog‘lom) bolalar mehribonlik, yordam berish va sabr-toqat kabi insoniy fazilatlarni amalda o‘rganadi.

Ko‘pchilik inklyuziv ta’limni yuqori moliyaviy xarajat talab qiladigan tizim sifatida baholaydi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda u davlat byudjeti uchun samarali va iqtisodiy jihatdan foydali investitsiya hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim orqali inson kapitali rivojlanadi: ta’lim olgan har bir bola kelajakda mustaqil kasb egallaydi, mehnat bozorida faol ishtirok etadi, soliq to‘lovchi sifatida davlat iqtisodiyotiga hissa qo‘shadi hamda jamiyatning faol va mas’uliyatli fuqarosiga aylanadi.

Shu jihatdan inklyuziv ta’lim nafaqat ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning ham muhim omili sifatida xizmat qiladi..

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim sohasida so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (2023) 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma har bir bolaning jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy xususiyatlaridan qat’i nazar, teng imkoniyatlar asosida sifatli ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta’lim olishi belgilangan.

Mazkur Qonunning 15-moddasida (2020) inklyuziv ta’lim “Ta’lim olish shakllaridan biri sifatida” e’tirof etilgan. 20-moddada esa inklyuziv ta’limning mohiyati alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlar xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat ekani aniq ifodalangan. Qonunning 55-moddasida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha davlat majburiyatlari belgilab berilib, ularga umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda qo‘shimcha ta’limni inklyuziv shaklda bepul olish kafolatlangan.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo‘nalishning amaliy mexanizmlarini ham belgilab berdi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

2021-2022-o‘quv yilida respublika bo‘yicha jami 31 ta umumta’lim maktabida inklyuziv ta’lim sinflari tashkil etilgan bo‘lib, ushbu sinflarda 87 nafar (55 nafar o‘g‘il, 32 nafar qiz) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi 46 ta sinfda ta’lim-tarbiya oldi. Shuningdek, Nukus, Andijon, Kogon va Urganch shaharlarida 4 ta boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilib, ularda bir xil tashxisli 35 nafar bola (19 nafar o‘g‘il, 16 nafar qiz) qamrab olindi.

2022-2023-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich yanada ortib, 195 ta umumta’lim maktabda inklyuziv sinflar tashkil etildi va 504 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar inklyuziv ta’lim jarayoniga jalb qilindi.

2023-2024-o‘quv yili sentabr holatiga ko‘ra esa, 415 ta umumta’lim maktabda 736 nafar bola inklyuziv sinflarga qamrab olindi. Bu ko‘rsatkichlar ta’limdagi inklyuziya jarayoni bosqichma-bosqich kengayib borayotganini anglatadi.

Yana ham ijobiy yangilik shuki, 2024-2025-o‘quv yili uchun rejalashtirilgan holatda 947 ta umumta’lim maktabda 1401 ta inklyuziv sinf faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ushbu sinflarga 1948 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar qamrab olinganligi qayd etildi (https://www.uzedu.uz/).

Bugungi kunda ya’ni 2025-2026-o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 1708 taga, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar soni esa 3710 nafarga yetdi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2026-yil 13 – yanvardagi 9-sonli buyrug‘i tasdiqlandi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari” 2026-yil 19 - yanvardagi 18-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha, umumiy o‘rta va qo‘shimcha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 29-yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3765)* 2026-yil 29-yanvardagi buyrug‘i ham tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi VM 391-sonli qarorlariga asosan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlar tashkil qilinmoqda.

Hozirgi kunda inklyuziv guruhlar tashkil etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari 236 tani inklyuziv guruhlar esa 234 tani tashkil etadi. Mazkur guruhlarga 462 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar qamrab olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmoniga muvofiq 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida Andijon va Buxoro viloyatlaridagi bittadan texnikumlarda inklyuziv ta’lim guruhlarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan inklyuziv ta’lim guruhlari tashkil etiladigan texnikumlarning o‘quv binolarini mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan inklyuziv ta’lim sharoitlarini hisobga olgan holda jihozlash ishlari amalga oshirilishi, texnikumlarda tashkil etiladigan inklyuziv ta’lim guruhlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya va korreksion-pedagogik ishlarni olib borayotgan texnikum pedagoglariga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga qo‘shimcha haq to‘lash bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish ham yuklatilgan.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasi ham davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 2024-yilda qabul qilinib, bolalarning xavfsiz va hurmatga asoslangan muhitda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni mustahkamladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 14-iyuldagi 440-son qarori bilan bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, xavf darajasini baholash, himoya rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi belgilandi.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish hamda boshqaruvda innovatsion va inklyuziv yondashuvlarni tatbiq etish masalalari, avvalo, xalqaro miqyosda keng o‘rganilgan va rivojlangan ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish, uni boshqarishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish va ta’lim menejmentida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu ilg‘or tajribalar asosida ta’lim tizimini transformatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda barcha ta’lim ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

So‘nggi yillarda mazkur yo‘nalish O‘zbekiston ta’lim tizimida ham izchil rivojlanib bormoqda. Jumladan, boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, uzluksiz ta’lim tizimida menejment faoliyatining samaradorligini oshirish, o‘qituvchilar va rahbar kadrlarning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar va amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida milliy ta’lim tizimining xalqaro tajriba bilan integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Jahonda Mel Ainscow (Inklyuziv ta’lim va maktab boshqaruvi integratsiyasi bo‘yicha eng yetakchi olimlardan biri hisoblanadi) (Ainscow M., 2016), Tony Booth, Mel Ainscow (2011) (“Index for Inclusion” modeli butun dunyoda keng qo‘llaniladi), Roger Slee (2011) (Inklyuziv ta’limni ijtimoiy adolat va siyosiy jarayon sifatida talqin qiladi), David Mitchell (2014) (Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun evidence-based (dalillarga asoslangan) yondashuvni ilgari surgan), Alma Harris, Kenneth Leithwood (Ta’lim menejmenti va liderlik bo‘yicha mashhur olimlar) René Valdés (2018), Inmaculada Gómez-Hurtado (Inklyuziv maktab boshqaruvi quyidagi 5 asosiy komponentga ega ekanini aniqlagan) kabi olimlar inklyuziv ta’limni tashkil etish, direktorlarning jamoaviy qaror qabul qilish, innovatsion metodlarni joriy etish, kompetensiyalarini asoslaydi.

Xususan, M.Fullan (2007) tomonidan ishlab chiqilgan “Educational change leadership” modeli maktab direktorlarining o‘zgarishlarni boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va inklyuziv madaniyatni shakllantirishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

J.Hattie (2009) tadqiqotlarida esa maktab rahbarligining ta’lim samaradorligiga bevosita ta’siri ilmiy asosda yoritilib, direktorlarning pedagogik yetakchilik kompetensiyalari muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Skandinaviya mamlakatlarida (Norvegiya, Shvetsiya, Finlyandiya) maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish milliy darajadagi tayyorlash dasturlari, malaka tizimlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimlarda inklyuzivlik, tenglik, demokratik qadriyatlar va barqaror rivojlanish tamoyillari integratsiyalashgan bo‘lib, ular ta’lim muassasalarida inklyuziv madaniyatni shakllantirish va sifatni ta’minlashga xizmat qiladi (European Agency for Special Needs and Inclusive Education 2021).

Tony Booth va Mel Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan “Index for Inclusion” modeli maktablarda inklyuziv rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan metodik vosita bo‘lib, u inklyuziv madaniyat, siyosat va amaliyotlar bo‘yicha indikatorlar tizimi orqali ta’lim muassasalarini baholash hamda strategik rejalashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur model Germaniya va boshqa Yevropa davlatlarida moslashtirilib, maktab boshqaruvida inklyuzivlikni joriy etishda muhim metodik asos sifatida qo‘llanilmoqda.

AQSH va Kanadada maktab direktorlarini tayyorlashda leadership for inclusion yondashuvi asosida transformatsion va distributiv boshqaruv modellari keng qo‘llanilib, bu jarayonda raqamli boshqaruv tizimlari, data-driven decision making hamda ta’lim monitoringi muhim o‘rin egallaydi (Booth T., Ainscow M. 2002).

Avstraliya va Yangi Zelandiyada maktab rahbarlarining inklyuziv boshqaruv salohiyatini rivojlantirishda **“Professional Learning Community (PLC)”** hamda reflektiv boshqaruv amaliyotlari samarali mexanizm sifatida qo‘llanilib, ular o‘qituvchilar va rahbarlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, reflektiv o‘rganishni rivojlantirish va inklyuziv ta’lim amaliyotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi (Denee R., 2024: 330-346).

Shuningdek, UNESCO, OECD va UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tavsiyalar va siyosiy hujjatlarda maktab rahbarlarining inklyuziv ta’limni boshqarishdagi kompetensiyalari, raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish hamda ta’lim tizimini inklyuziv jamiyatga yo‘naltirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Bundan tashqari, M.Friend, R.A.Villa, J.S.Thousand va T.Loreman kabi dunyoga tanilgan olimlar inklyuziv ta’lim sohasida fundamental ilmiy va amaliy asoslar yaratgan mutaxassislardir.

Ularning tadqiqotlari ta’lim tizimlarida barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi muhitni shakllantirish, pedagoglarni o‘quvchilarning xilma-xilligini qadrlovchi yondashuvlarga tayyorlash, shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Mel Ainscow va Lani Florian tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv ta’limga oid yondashuvlarda inklyuzivlik ta’limdagi tenglik va adolat tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi.

Shuningdek, Richard Villa va Jacqueline Thousandning hamkorlikda o‘qitish modellari hamda Tim Loreman tomonidan taklif etilgan inklyuziv ta’lim kompetensiyalari yondashuvi jahon amaliyotida keng qo‘llanilib, inklyuziv ta’limni rejalashtirish, amalga oshirish va baholashda muhim nazariy va metodik asos sifatida xizmat qiladi (Ainscow M., 2020: 123-134).

MDH olimlari, jumladan Nikolai Malofeev, Svetlana Alekhina, Vitaly Rubtsov, Evgeny Yamburg, Lev Vygotsky va Alexander Asmolov tadqiqotlarida inklyuziv ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirilib, inklyuzivlik ijtimoiy va madaniy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvlarda ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, individuallashtirish va diversifikatsiya qilish zarurligi asoslab

berilib, bu tamoyillar ta’lim boshqaruvida muhim metodologik asos sifatida qaraladi (Alekhina S.V., Samsonova E.V., Yudina T.A., 2018: 1(38), 33-60).

Rossiya va Qozog‘iston tajribasi asosida inklyuzivlikni ta’lim siyosati darajasida joriy etish, pedagogik kadrlar uchun yangi model va trening tizimlarini taklif qilish bilan ajralib turadi. Bu ishlarda inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik, metodik va menejment komponentlariga chuqur ilmiy asos berilgan va kommunikativ tayyorgarligini o‘rganib, ko‘p komponentli kompetensiya tizimlarini taklif qilgan.

O‘zbek olimlari, jumladan U.Y. Fayziyeva, F.U. Qodirova, D.B. Asqarova, M.A. Bozorova, L.A. Jo‘rayeva, N.Z. Karimova, S.S. Nazarova, O.J. Normurodova, N.I. Rasulova, N.X. Saidova, M.M. To‘xtayeva va D.Sh. Xatamova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish masalalari chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglarning kasbiy, metodik, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilib, bu yondashuv inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida talqin etiladi (Qodirova F.U. 2023:1(2), 10-17).

Tadqiqotlar maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, metodik va psixologik tayyorgarligi, shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda trening modullari, innovatsion metodik yondashuvlar hamda baholash mezonlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Mazkur ilmiy ishlanmalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, tajriba-sinov ishlari asosida samaradorlikni oshirish hamda mahalliy ta’lim ehtiyojlariga moslashtirilgan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni boshqarishning tizimli yondashuvi nuqtayi nazaridan ayrim yo‘nalishlar yetarlicha tadqiq etilmagan bo‘lib qolmoqda.

Xususan, maktab direktorlarining inklyuziv ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari, shahar va olis hududlardagi ta’lim muassasalari o‘rtasidagi inklyuziv resurslar hamda tayyorgarlik darajasidagi tafovutlarni ilmiy asosda tahlil qilish, turli fan yo‘nalishlarida (matematika, adabiyot, texnika, iqtisodiyot, san’at va boshqalar) inklyuziv yondashuvni joriy etish imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash hamda raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv ta’limni boshqarishning innovatsion modellarini ishlab chiqish masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur holat inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyatini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorida maktab direktorlariga alohida vazifalar:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim sinflariga qabul qilish o‘quv yili boshlanguncha hamda o‘quv yili davomida amalga oshirishi va buyruq bilan rasmiylashtiriladi;

inklyuziv ta’lim sinflarda dars mashg‘ulotlarining o‘z vaqtida olib borilishi, o‘quv dasturlarining bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

o‘quvchilarning majmuaviy tekshirilishini, psixologik-tibbiy-pedagogik konsilium faoliyatini tashkil etish va o‘tkazish buyruq asosida Kengash tuzadi:

o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari (Kengash raisi);

ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari (Kengash raisi o‘rinbosari);

inklyuziv ta’lim sinfi o‘qituvchilari;

psixolog;

maxsus pedagog;

yordamchi xodim (assistent-o‘qituvchi) ishtirok etadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’lim sinflariga qabul qilinishi uchun belgilangan tartibda shaxsan javob berishi belgilab berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim ishtirokchilari uchun metodik resurslarni ishlab chiqish, ularning malakasini oshirishga qaratilgan kurs va modullarni yaratish hamda o‘quv jarayonlarini tizimli tashkil etish masalalari ham dolzarb etib belgilangan.

Tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni boshqarish holatini aniqlash maqsadida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyati diagnostik tahlil qilindi. Dastlabki natijalar direktorlarning inklyuziv boshqaruv kompetensiyalari (strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, hamkorlikni tashkil etish, qaror qabul qilish) yetarli darajada tizimli shakllanmaganligini, ayniqsa raqamli boshqaruv va inklyuziv muhitni kompleks tashkil etish bo‘yicha kompetensiyalarda sezilarli bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot obyekti sifatida inklyuziv ta’lim tashkil etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlari innovatsion boshqaruv salohiyatini takomillashtirish jarayoni belgilab olindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Xorazm va Samarqand viloyatlaridagi davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 541 nafar maktab direktori ishtirok etdi.

Hudud	Maktab direktorlari soni	Foiz (%)
Toshkent shahri	210	38.8%
Samarqand viloyati	176	32.5%
Xorazm viloyati	155	28.7%
Jami:	541	100%

1-jadval. Hududlar bo‘yicha ishtirokchilar taqsimoti. Eng yuqori ulush Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan (38.8%).

Direktorlarning innovatsion boshqaruv salohiyati (o‘qituvchilar bahosi)

O‘qituvchilar maktab direktorlarining innovatsion boshqaruvini 3 ta darajada baholadi: yuqori, o‘rta va past.

Daraja	Soni (o‘qituvchilar fikri)	Foiz (%)
Yuqori	122	22.6%
O‘rta	284	52.5%
Past	135	24.9%
Jami	541	100%

2-jadval Innovatsion boshqaruv darajasi. Natijalarga ko‘ra, aksariyat respondentlar (52.5%) direktorlar innovatsion boshqaruvni o‘rta darajada amalga oshirayotganini bildirgan.

Inklyuziv boshqaruv amaliyotlari holati

Ko‘rsatkich	Ha (%)	Yo‘q (%)
Individual ta’lim dasturlari (ITD) joriy etilgan	71%	29%
Raqamli boshqaruv tizimlari qo‘llaniladi	76%	24%
Ota-onalar bilan tizimli hamkorlik	63%	37%
Maxsus pedagoglar bilan integratsiya	58%	42%

3-jadval Inklyuziv boshqaruv elementlarining joriy etilishi. Eng yuqori ko‘rsatkich raqamli boshqaruv tizimlarida (76%) kuzatildi.

Hududlar kesimida innovatsion boshqaruv darajasi

Hudud	Yuqori (%)	O‘rta (%)
Toshkent shahri	28%	55%
Samarqand	21%	53%
Xorazm	19%	50%
Hudud	Yuqori (%)	O‘rta (%)

4-jadval. Hududiy taqqoslash. Toshkent shahrida innovatsion boshqaruv darajasi nisbatan yuqori, Xorazm viloyatida esa past ko‘rsatkichlar ko‘proq.

Tahlil natijalari inklyuziv ta’lim sharoitida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyati o‘rta darajada shakllanganligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, 52.5% respondentlarning fikricha, direktorlar innovatsion boshqaruvni qisman amalga oshirmoqda. Bu holat tizimli innovatsion strategiyaning to‘liq shakllanmaganligini anglatadi.

Ikkinchidan, raqamli boshqaruv tizimlarining yuqori darajada qo‘llanilishi (76%) ta’lim jarayonida modernizatsiya jarayoni jadallashganini ko‘rsatadi. Biroq, bu texnologiyalar pedagogik jarayon bilan to‘liq integratsiyalashmagan.

Uchinchidan, individual ta’lim dasturlari (71%) mavjud bo‘lsa-da, ularning samaradorligi hududlar kesimida farqlanadi. Ayniqsa, Xorazm viloyatida bu ko‘rsatkich pastroq.

To‘rtinchidan, maxsus pedagoglar bilan hamkorlik (58%) nisbatan past bo‘lib, bu inklyuziv ta’limning eng muhim komponentlaridan biri sifatida muammoli yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim tizimining samaradorligi bevosita maktab direktori tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion boshqaruv modeli va uning yetakchilik salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amaldagi normativ-huquqiy asoslar inklyuziv ta’limni joriy etish uchun zarur tashkiliy va huquqiy sharoitlarni yaratgan bo‘lsa-da, uning real samaradorligi rahbarning strategik fikrlashi, innovatsion boshqaruv kompetensiyasi hamda inklyuziv qadriyatlarga sodiqligi darajasiga bevosita bog‘liq ekani aniqlanadi.

Tahlillar inklyuziv ta’lim sharoitida an’anaviy ma’muriy boshqaruv modeli yetarli emasligini ko‘rsatdi. Zamonaviy inklyuziv maktab direktori transformatsion, pedagogik hamda taqsimlangan yetakchilik tamoyillarini uyg‘unlashtirgan holda faoliyat yuritishi lozim. Bunday integrativ yondashuv rahbarni faqat boshqaruv va nazorat funksiyasini bajaruvchi subyekt emas, balki o‘zgarishlar tashabbuskori, pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi hamda ijtimoiy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi strategik yetakchi sifatida namoyon etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan inklyuziv innovatsion rahbarlik modeli besh o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat tizim sifatida asoslab berildi:

- qadriyatli-kompetensiyaviy;
- strategik-boshqaruvga asoslanganligi;
- pedagogik hamda metodik;
- resurslarni oqilona boshqarish;
- monitoring va refleksiya komponentlari.

Mazkur komponentlarning uyg‘un faoliyati inklyuziv ta’lim muassasasida barqaror, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi hamda maktab direktorining innovatsion boshqaruv salohiyatini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

Shu tariqa, ishlab chiqilgan inklyuziv innovatsion rahbarlik modeli umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqarishning yangi sifat bosqichini ifodalaydi. U ta’lim sifatini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatli ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, inklyuziv ta’lim sharoitida zamonaviy innovatsion rahbarlik modeli ta’lim muassasalarida barqaror rivojlanish, pedagogik yangilanishlar va jamiyatda ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/-4312785 ;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoni https://lex.uz/docs/-7128182

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmoni, https://www.lex.uz/docs/-7518465

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi VM 391-sonli qarori https://lex.uz/docs/-4333062

5. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the Rights of the Child, 1989-yil) - bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnoma

6. Ainscow M. (2016). Struggling for equity in education: The legacy of Salamanca. – Routledge. – 143 b.

7. Ainscow M. (2020). Inclusion and equity in education: Making sense of global challenges. // Prospects, 49, – P. 123-134.

8. Booth T., Ainscow M. (2002). Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE). https://index-for-inclusion.org/en/

9. Booth T., Ainscow M. (2011). Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools (3rd ed.). // Bristol: Centre for Studies in Inclusive Education (CSIE).

10. Denee R. (2024). The network professional learning community approach: An effective model for individual and group learning. // Teacher Development, 28(3), 330-346. https://doi.org/10.1080/13664530.2024.2307588

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/-4312785 (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoni https://lex.uz/docs/-7128182 (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmoni, https://www.lex.uz/docs/-7518465 (In Uzbek)

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi VM 391-sonli qarori https://lex.uz/docs/-4333062 (In Uzbek)

5. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the Rights of the Child, 1989-yil) - bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnoma.

6. Ainscow M. (2016). Struggling for equity in education: The legacy of Salamanca. – Routledge. – 143 b.

7. Ainscow M. (2020). Inclusion and equity in education: Making sense of global challenges. // Prospects, 49, 123-134. https://doi.org/10.1007/s11125-020-09506-w

8. Booth T., Ainscow M. (2002). Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE). https://index-for-inclusion.org/en/

9. Booth T., Ainscow M. (2011). Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools (3rd ed.). // Bristol: Centre for Studies in Inclusive Education (CSIE).

10. Denee R. (2024). The network professional learning community approach: An effective model for individual and group learning. // Teacher Development, 28(3), 330-346. https://doi.org/10.1080/13664530.2024.2307588

NUTQNI TINGLAB TUSHUNISHDAGI ASOSIY QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI
ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ АУДИРОВАНИЯ И ПОНИМАНИЯ РЕЧИ И СТРАТЕГИИ ИХ УСТРАНЕНИЯ
MAJOR DIFFICULTIES IN LISTENING COMPREHENSION AND STRATEGIES FOR OVERCOMING THEM

G‘afurova Mehriniso Muqimovna
Oriental Universiteti “Tillar-2” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 95 004-16-85
E-mail: mehrinisogafurova85@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chet tilidagi nutqni tinglab tushunish jarayonini qiyinlashtiradigan asosiy omillar – fonetik, leksik, grammatik, psixologik, kognitiv, shuningdek, akustik va texnik to‘siqlar har tomonlama tahlil qilinadi. Nutqni eshitib idrok etishning lingvistik va nolingvistik omillar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatib, ingliz tilini o‘qitish amaliyotida fonetik, leksik va grammatik qiyinchiliklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan mashqlar tizimini qo‘llash imkoniyatlarini yoritadi. Shuningdek, ishchi xotira, axborotni qayta ishlash tezligi, hissiy holatlar va o‘quvchining ichki “sozlamalari” (ruhiy tayyorgarligi)ning chet tilidagi eshitilgan nutqni to’liq anglashga ta’siri ko‘rsatiladi. Pedagogik tajriba-sinov natijalari esa kompleks mashqlar majmuasi qo‘llanilgan guruhlarda eshitib tushunish qobiliyatining ijobiy dinamika bilan rivojlanganini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *tinglab tushunish, auditiv qabul, fonetik qiyinchiliklar, leksik kompetentsiya, grammatik kompetentsiya, psixologik to‘siqlar, kognitiv jarayonlar, ishchi xotira, fon shovqini, multimodal qabul.*

Abstract. This article comprehensively analyzes the main factors that impede foreign language listening comprehension – phonetic, lexical, grammatical, psychological, cognitive, as well as acoustic and technical barriers. It demonstrates that linguistic and non-linguistic factors of listening are interrelated, and highlights the potential of using a comprehensive system of exercises in English language teaching to reduce phonetic, lexical, and grammatical difficulties. The influence of working memory, information processing speed, emotional state, and the learner’s internal “settings” (mental readiness) on the full understanding of foreign language speech by ear is demonstrated. The results of pedagogical experiments and testing confirm the positive dynamics of listening development in groups where a comprehensive set of exercises was used.

Keywords: listening, auditory perception, phonetic difficulties, lexical competence, grammatical competence, psychological barriers, cognitive processes, working memory, background noise, multimodal perception.

Аннотация: В статье комплексно анализируются основные факторы, затрудняющие процесс аудирования иноязычной речи – фонетические, лексические, грамматические, психологические, когнитивные, а также акустические и технические барьеры. Показано, что лингвистические и нелингвистические факторы аудирования проявляются во взаимосвязи, и освещаются возможности использования комплексной системы упражнений в практике обучения английскому языку, способствующей снижению фонетических, лексических и грамматических трудностей. Показано влияние оперативной памяти, скорости обработки информации, эмоционального состояния и внутренних «настроек» (психической готовности) обучающегося на полноценное понимание иноязычной речи на слух. Результаты педагогических экспериментов и тестирования подтверждают положительную динамику развития аудирования в группах, где использовался комплексный комплекс упражнений.

Ключевые слова: аудирование, слуховое восприятие, фонетические трудности, лексическая компетенция, грамматическая компетенция, психологические барьеры, когнитивные процессы, рабочая память, фоновый шум, мультимодальное восприятие.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda chet tillarini o‘rganish shaxsning kasbiy va shaxslararo muloqotdagi muvaffaqiyatini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biriga aylangan. Shu bilan birga, ko‘plab o‘rganuvchilarda o‘qish va yozish ko‘nikmalari nisbatan yaxshi shakllangan bo‘lsa-da, og‘zaki muloqotda faol ishtirok eta olmaslik, ayniqsa tinglab tushunishdagi sustlik asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, chet tildagi nutqni tinglab tushunishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklarni tizimlashtirish, ularning psixolingvistik va pedagogik asoslarini ochib berish hamda o‘qitish amaliyotida ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan strategik yo‘l-yo‘riqlarni o‘rganish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan, tinglash faoliyatini ishlab chiqish va amalga oshirish usuli tushunishni osonlashtirishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin. An’anaviy tinglash vazifalari ko‘pincha mahsulotga asoslangan baholashni ortiqcha ta’kidlaydi, bunda o‘quvchilar audio material bilan bir marta tanishgandan so‘ng to‘g‘ri javoblar berishlari kutiladi. Biroq, bunday yondashuvlar metakognitiv xabardorlikni yoki strategik kompetensiyani rivojlantirish uchun juda kam ish qiladi. Samarali tinglash bo‘yicha o‘qitish jarayonga yo‘naltirilgan modellarga o‘tishni talab qiladi, bunda tinglashdan oldingi, tinglash paytidagi va tinglashdan keyingi bosqichlar qo‘llaniladi. Sxemani faollashtirish, so‘z boyligini o‘qitishdan oldingi va bashorat qilish vazifalari kabi tinglashdan oldingi mashg‘ulotlar kognitiv yukni kamaytiradi va o‘quvchilarni kiruvchi

ma’lumotlarga tayyorlaydi. Tanlab tinglash, eslatma olish va tafsilotlardan oldin asosiy fikrga e’tibor qaratishni o‘z ichiga olgan tinglash paytidagi strategiyalar o‘quvchilarga kirish oqimini boshqarishga yordam beradi. Xulosa qilish, xulosa chiqarish va mulohazali muhokama kabi tinglashdan keyingi mashg‘ulotlar chuqurroq tushunish va uzoq muddatli eslab qolishni qo‘llab-quvvatlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunos va metodist olimlar B.I.Lixobobin, L.V.Kalinina, I.I.Xaleeva va boshqalar tadqiqotlarida dialogik nutqni eshitib idrok etish monologik nutqqa nisbatan ancha murakkab ekanligini ta’kidlaydilar. Bu holat, birinchi navbatda, dialogik muloqotning analitik va sintetik fikrlash faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi, shu bilan birga nutq sur’ati, tembri, adresatning o‘zgaruvchanligi, replikalarning qisqaligi va uzluksizligi bilan izohlanadi. M.M. Baxtin tilning kommunikativ mohiyati haqida fikr yuritar ekan, haqiqat alohida individ ongida emas, balki dialogik muloqot jarayonida tug‘ilishini ta’kidlaydi (Baxtin M., 1986: 32). Demak, tinglab tushunish faqat passiv “eshitish” emas, balki dialogik munosabatga kirishishga tayyorlovchi faol ma’no kasb etadigan jarayondir.

N.V.Yeluxina chet tili nutqini eshitib tushunishdagi qiyinchiliklarni shartli ravishda uch guruhga ajratadi:

1.tinglovchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

2.til egalari nutqining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

3.madaniy-sivilizatsion va so‘zlashuv uslubi bilan bog‘liq sotsiolingvistik qiyinchiliklar (Елюхина Н., 1996: 25).

Shu nuqtayi nazardan, tinglab tushunishni o‘rganishda faqat lingvistik darajani emas, balki psixologik, kognitiv, ijtimoiy-madaniy va texnik omillar majmuini hisobga olish zarur bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi nutqni tinglab tushunish jarayonida uchraydigan psixolingvistik, lingvistik va pedagogik xususiyatlarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan samarali strategiyalarni aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot dizayni sifatida aralash yondashuv - miqdoriy **(quantitative)** va sifat **(qualitative)** usullarning integratsiyasi tanlandi. Bu tanlov muammoning murakkab tabiatini to‘laqonli ochib berish hamda tinglab tushunish ko‘nikmasiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘p qirrali nuqtayi nazardan o‘rganish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlarida dialogik nutqni eshitib idrok etish monologik nutqqa nisbatan ancha murakkab ekanligi to‘g‘risidagi xulosalar beriladi. Dialogik muloqotning analitik va sintetik fikrlash faoliyati bilan uzviy bog’liqligi, shu bilan birga nutq sur’ati, tembri, adresatning o’zgaruvchanligi, replikalarning qisqaligi va uzluksizligi bilan izohlanadi (Лихобобин Б.И., Калинина Л.В., Халеева И.И., 1987).

1.Nutqni tinglab tushunishning nazariy asoslari: tinglash jarayonining psixolingvistik mohiyati; tinglashda ichki va tashqi omillar o‘zaro bog‘liqligi.

Tinglab tushunish (auditiv qabul) – bu faol retseptiv nutq faoliyati turi bo‘lib, unda eshitilayotgan signal fonemal, so‘z, sintagma, gap va butun matn darajasida qayta ishlanadi. Bu jarayonda eshitish analizatori, ishchi xotira, diqqat, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv tizimlar bir vaqtning o‘zida ishga tushadi. Shu nuqtayi nazardan, tinglab tushunishni o‘rganishda faqat lingvistik darajani emas, balki psixologik, kognitiv, ijtimoiy-madaniy va texnik omillar majmuini hisobga olish zarur bo‘ladi.

2. Lingvistik qiyinchiliklar: fonetik qiyinchiliklar; leksik qiyinchiliklar; grammatik qiyinchiliklar.

Tilning fonetik xususiyatlari nutqni idrok etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar tinglovchi nutq manbasini ko‘ra olsa (mimika, artikulyatsiya, jestlar), eshitib tushunish darajasi faqat audio sharoitga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi (Anderson A., Lynch T., 1988). Bu multimodal qabul mexanizmlarining samaradorligini ko‘rsatadi.

Fonetik qiyinchiliklarning asosiy turlari quyidagilar:

- Tovush reduksiyasi va assimilyatsiya – tabiiy nutqda tovushlar qisqarishi va bir-biriga moslashishi (going to → gonna, want to → wanna kabi; o‘zbekcha “olib kelaman” → obkelaman kabi variantlar). Bu holatda so‘zlar o‘zining “lug‘at” shaklidan farq qiladi va o‘quvchi uchun tanish bo‘lmagan fonetik obraz hosil qiladi.

- Qo‘shilgan nutq (connected speech) – so‘zlar bir-biriga “yopishib ketishi” natijasida segmentlashtirish qiyinlashadi (Did you → Didja / Dyou kabi).

- Intonatsiya va urg‘u – intonatsion konturning o‘zgarishi gapning kommunikativ turini (bayon, savol, shubha, ironiya) almashtirishi mumkin. Ingliz tilida REcord (ot) va reCORD (fe’l) misoli, yoki o‘zbekchada “Sen kelding.”/”Sen kelding?” misoli shunga dalildir.

- Nutq sur’ati – turli madaniy muhitda faoliyat yurituvchi til egalari nutq sur’ati bilan farqlanadi; masalan, ispan yoki fransuz til egalari odatda tezroq gapirishi qayd etilgan.

Fonetik qiyinchiliklarni kamaytirish uchun turli aksent va shevalarni qamrab olgan audio-materiallar, shuningdek fonetik treninglar, shadowing, minimal juftliklar bilan ishlash kabi mashqlar tavsiya etiladi (Соловёва Е.Н. 2017:56).

Leksik qiyinchiliklar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- Notanish so‘zlar va iboralar – matndagi kalit leksema va kollokatsiyalarni bilmaslik umumiy mazmunni tushunmaslikka olib keladi.

- Ko‘p ma’nolilik (polisemija) – bir so‘zning turli kontekstlarda turlicha ma’no olishi (bank – “daryo qirg‘og‘i”/”bank”; o‘zbekcha oyoq – “tana a’zosi”/”buyum tayanchi”).

- Frazeologizm va idiomalar – “kick the bucket” (o‘lmoq), “veshat lapshu na ushi” (aldamoq) kabi iboralar so‘zma-so‘z tarjimada ma’nosini yo‘qotadi va madaniy kontekstga tayanishni talab qiladi.

- Jargon va kasbiy leksika – anglash uchun maxsus sohaviy bilim talab etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tinglab tushunishda qiynalayotgan o‘quvchilar uchun matngacha bosqichda asosiy mavzuli leksik birliklarni faollashtirish, kalit so‘z va iboralar bilan tanishtirish, leksik maydonlar (semantic fields) asosida ishlash yuqori samara beradi (Погарсева Т.А., 2013: №5).

Grammatik qiyinchiliklar:

M.A.Abdullayeva, V.Yu.Kopitin, M.N.Hamidova va S.Xolovlar ingliz tili grammatikasini o‘zlashtirishdagi to‘rtta tipik qiyinchilikni ajratadilar (Abdullayeva M.A., Kopitin V.Yu., Hamidova M.N., Xolov S. 2019.):

1. Grammatik strukturalarni tanlashdagi qiyinchiliklar – kommunikativ vaziyatga eng mos grammatik shaklni topa olmaslik (masalan, zamonlar, modal fe’llar, shart mayli).

2. So‘z tartibini anglash va qayta ishlashdagi qiyinchiliklar – ingliz tilida so‘z tartibi ma’no yuklovchi asosiy vositalardan biri bo’lib, uning buzilishi gapning funktsional roliga ta’sir etadi.

3. Murakkab sintaktik tuzilmalarni idrok etish – ergash gapli, uyushiq bo‘lakli, qo‘shma gaplar uzunligi va ma’lumot zichligi tufayli ishchi xotiraga katta yuk tushiradi.

4. Ellipsis va to‘liqsiz gaplar – tabiiy nutqda keraksiz deb hisoblangan elementlar tashlab yuboriladi (Wanna go? o‘rniga Do you want to go?), buning ma’nosini tinglovchi kontekst asnosida tiklashi kerak bo‘ladi.

Shu bois, tinglab tushunishni takomillashtirishda grammatik kompetensiyani faqat “qoidalar majmuasi” sifatida emas, balki ishchi xotira va kognitiv qayta ishlash imkoniyatlari bilan integratsiyada rivojlantirish muhim hisoblanadi.

3. Psixologik va kognitiv to’siqlar: psixologik to‘siqlar va “ustanovkalar”; ishchi xotiraning cheklanganligi; axborotni qayta ishlash tezligi; hissiy omillar: xavotir va stress.

Chet tilini o‘zlashtirishda psixologik to‘siqlar – bu o‘quvchining o‘z kuchiga ishonmasligi, xato qilishdan qo‘rqishi, auditoriya oldida nutq so‘zlashdan cho‘chishi,

o‘qituvchi bilan muloqotdan qochishi, tilga bo‘lgan ichki motivatsiyaning pastligi kabi holatlardir.

D.N. Uznadze qo‘llagan “ustanovka” tushunchasi subyektning ma’lum harakat yoki reaksiyaga oldindan ruhiy tayyorligini anglatadi. Chet tilida muloqotga kirishishda “men barobar tushunmayman”, “tez gapirsa tushunmayman” kabi salbiy kognitiv ustanovkalar tinglab tushunish jarayonini sezilarli darajada susaytiradi.

Bunday holatlarda: qo’llab-quvvatlovchi muhit, xato qilishni tabiiy jarayon sifatida qabul qiluvchi o’qitish uslubi, kichik guruhlarda role-play, dialog, debat kabi qo‘rquvni kamaytiruvchi faol mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi.

Ishchi xotiraning cheklanganligi:

Ishchi (operativ) xotira tinglab tushunish va o‘qish kabi retseptiv faoliyat turlarida asosiy ahamiyatga ega. Tinglovchi: so‘z tarkibidagi tovushlar zanjirini, gap tarkibidagi kalit so‘z va grammatik tayanchlarni, matndagi asosiy mazmuniy punktlarni vaqtinchalik xotirada ushlab turishi kerak.

Agar kelayotgan axborot hajmi ishchi xotira imkoniyatlaridan oshib ketsa, tinglovchi “hikoya ipini yo‘qotishi”, ya’ni matn umumiy konstruksiyasini yo‘qotib qo‘yadi. Bu holat ayniqsa uzun, pauzasiz murakkab gaplarda yaqqol seziladi.

Shuning uchun audio-materiallar bilan ishlashda:

- matnni semantik bloklarga bo’lib eshitish,
- birinchi bosqichda kuyi tezlikda, keyin asta-sekin tezlikni oshirish,
- gapning qisqa konspektini tuzish, mazmuniy tayanch so‘z va iboralarni ajratish kabi usullar ishchi xotiraga tushadigan yukni kamaytiradi.

Axborotni qayta ishlash tezligi:

Har bir shaxs nutqni tinglab, ma’noga aylantirishda individual tezlikka ega. Agar nutq sur’ati o‘quvchining qayta ishlash tezligidan ortiq bo‘lsa, u matnning muhim qismini yo‘qotib qo‘yadi.

Buni yengish uchun:

- pre-listening bosqichida mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va leksik birliklarni faollashtirish,
- gist listening (umumiy mazmun uchun tinglash) va detail listening (detallarni izlab tinglash) ni bosqichma-bosqich tashkil etish,
- audio tezligini boshqarish (0.75x → 1x → 1.25x) orqali miyani moslashtirish tavsiya etiladi.

Hissiy omillar: xavotir va stress:

Imtihon, omma oldida nutq so‘zlash, native speaker bilan bevosita muloqot kabi vaziyatlarda xavotir va stress darajasi ko‘tariladi. Bunda vegetativ reaksiyalar (yurak urishining tezlashishi, nafasning tezlashishi) diqqatning barqarorligini pasaytiradi va eshitilayotgan axborotni qayta ishlashga xalaqit beradi.

Pedagogik amaliyotda buni kamaytirish uchun:

- muntazam simulyatsion vaziyatlar (mock imtihon, mini-debatlar),
- pair-work va group-work,
- muvaffaqiyatni kichik qadamlar asosida baholash (micro-success) usullari tavsiya etiladi.

4. Akustik va texnik omillar: tovush sifati va fon shovqini; vizual kontekstning yetishmasligi.

Yozuv sifati past bo‘lgan audio, aks sado, mikrofon nosozligi, internet platformadagi uzilishlar signal sifatini 30% gacha pasaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Odatda, ona tilida bu kamroq sezilsa-da, chet tilida bu omil sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi.

Bir tomondan, o‘quv jarayonida tinch, fon shovqinisiz muhit ta’minlanishi kerak. Boshqa tomondan esa, tinglash ko‘nikmasi bosqichma-bosqich shakllangach, “real hayotga yaqin sharoit” uchun sun’iy fon shovqinli materiallar (kafe, ko‘cha, jamoat transporti shovqini ostidagi suhbatlar) bilan ishlash maqsadga muvofiq.

“Shovqinli diktant” kabi mashqlar o‘quvchilarni o‘z suhbatdoshining nutqini umumiy shovqindan ajratib olish, diqqatni asosiy axborot manbaiga qaratishga o‘rgatadi.

Vizual kontekstning yetishmasligi-tinglovchining mimika, jest, predmetli vaziyatni ko‘rmasligi axborotni talqin qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda:

- audio bilan bir vaqtda rasmlar ketma-ketligi,
- videoroliklar, suratlar, komiks-elementli materiallar

qo‘llanishi multimodal qabulni yo‘lga qo‘yadi va tinglab tushunishni ancha yengillashtiradi (Соловёва Е.Н., 2017: 142).

5. Chet tili darslarida tinglab tushunishni rivojlantirish strategiyalari: integratsiyalashgan uch bosqichli mashqlar majmuasi; pedagogik tajriba-sinov natijalarining umumiy tahlili.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fonetik, leksik va grammatik qiyinchiliklarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki integratsiyalashgan uch bosqichli mashqlar tizimi orqali bartaraf etish yuqori samara beradi.

Tayyorgarlik (pre-listening) bosqichi: mavzuga oid asosiy leksik birliklarni faollashtirish; fonematik eshitishni faollashtiruvchi qisqa fonetik mashqlar; grammatik tayanch strukturani eslatish (masalan, zamonlar, so‘z tartibi, linking words).

Asosiy tinglash (while-listening) bosqichi: avval umumiy mazmunga qaratilgan savollar (Who? Where? What about?); so‘ng detallarga qaratilgan topshiriqlar (gapni tugatish, moslashtirish, jadvalni to‘ldirish, gapni haqiqiy/yolg‘on deb belgilash); nutq suratini asta-sekin oshirib borish.

Refleksiya va mustahkamlash (post-listening) bosqichi: eshitilgan mazmun asosida og‘zaki va yozma qayta bayon; guruhli muhokama, rolli o‘yin, debate; o‘quvchilarning o‘z tinglash strategiyalarini tahlil qilishi (nimalar tushunildi, nimalarda qiyinchilik bo‘ldi, keyingi safar nimaga e’tibor berish kerak).

Pedagogik tajriba-sinov natijalarining umumiy tahlili- tajriba-sinov ishlarida integratsiyalashgan uch bosqichli mashqlar majmuasi qo‘llanilgan guruh natijalari kontrol guruh ko’rsatkichlari bilan taqqoslanganda: fonetik xatolarni tanib olish va tuzatish tezligining oshgani, kalit leksik birliklarni ajratish qobiliyatining mustahkamlangani, murakkab sintaktik tuzilmalarni anglashdagi xato ko‘rsatkichlari kamaygani, tinglovchilarning tinglashga ichki motivatsiyasi oshgani kuzatilgan.

Bu, o‘z navbatida, chet tili darslarida tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tinglab tushunish - fonetik, leksik, grammatik, kognitiv, psixologik va akustik omillar o‘zaro bog’liq holda ishtirok etuvchi murakkab ko‘p bosqichli jarayondir. Asosiy qiyinchiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, nutqning tabiiy fonetik o‘zgarishlari (reduksiya, qo’shilgan nutq, aksentlar), leksik zaxiraning yetarli emasligi va frazeologik birliklar, murakkab grammatik tuzilmalar va elliptik gaplar, ishchi xotira imkoniyatlarining cheklanganligi, axborotni qayta ishlash tezligi, xavotir, stress, salbiy kognitiv ustanovkalar, fon shovqini, yozuv sifati pastligi va vizual kontekstning yetishmasligi bilan bog‘liq.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, chet tilidagi og‘zaki nutqni muvaffaqiyatli tushunish uchun quyidagi omillar bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

- Lingvistik (fonetik, leksik, grammatik) kompetensiyalar
- Psixologik barqarorlik va ijobiy motivatsiya
- Kognitiv mexanizmlar (ishchi xotira, diqqat, tafakkur)
- Akustik va texnik sharoitlar

Pedagogik tajriba-sinov natijalari esa chet tili darslarida fonetik, leksik va grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan integratsiyalashgan uch bosqichli mashqlar majmuasidan foydalanish tinglovchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda sezilarli ijobiy dinamika berayotganini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva M.A., Kopitin V.Yu., Hamidova M.N., Xolov S. Ingliz tili grammatikasini o‘qitishning ayrim masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 128 b.

2. Anderson A., Lynch T. Listening. – Oxford: OUP, 1988. – 154 p.

3. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986. – 445 с.

4. Simonova M.A., Sitnikov A., Chmich I. “Shovqinli diktant” texnologiyasi orqali tinglab tushunishni rivojlantirish // Zamonaviy pedagogika jurnali. – 2020. – № 3. – B. 45-48.

5. Соловёва Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс. – М.: Просвещение, 2017. – 239 с.

6. Елюхина Н.В. Преодоление основных трудностей понимания иноязычной речи на слух как условие формирования способности устно общаться // Иностранные языки в школе. – 1996. – № 4. – С. 25-29.

7. Лихобобин Б.И., Калинина Л.В., Халеева И.И. Психолингвистические основы обучения аудитивному восприятию речи. – М.: Высшая школа, 1985. – 160 с.

8. Погарцева Т.А. Развитие навыков аудитивного восприятия иностранной речи // Иностранные языки в школе. – 2013. – № 5. – С. 38-42.

9. Узнадзе Д.Н. Психология установки. – Тбилиси: Мецниереба, 1966. – 250 с.

REFERENCES:

1. Abdullayeva M.A., Kopitin V.Yu., Hamidova M.N., Xolov S. Ingliz tili grammatikasini o‘qitishning ayrim masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 128 b. (In Uzbek)

2. Anderson A., Lynch T. Listening. – Oxford: OUP, 1988. – 154 p. (In English)

3. Simonova M.A., Sitnikov A., Chmich I. “Shovqinli diktant” texnologiyasi orqali tinglab tushunishni rivojlantirish // Zamonaviy pedagogika jurnali. – 2020. – № 3. – B. 45–48. (In Uzbek)

4. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo, 1986. – 445 s. (In Russian)

5. Yelyuxina N.V. Preodoleniye osnovnix trudnostey ponimaniya inoyazichnoy rechi na slux kak usloviye formirovaniya sposobnosti ustno obshchattsya // Inostranniye yaziki v shkole. – 1996. – № 4. – S. 25-29. (In Russian)

6. Lixobobin B.I., Kalinina L.V., Xaleyeva I.I. Psixolingvisticheskiye osnovi obucheniya auditivnomu vospriyatiyu rechi. – M.: Visshaya shkola, 1985. – 160 s. (In Russian)

7. Pogartseva T.A. Razvitiye navikov auditivnogo vospriyatiya inostrannoy rechi // Inostranniye yaziki v shkole. – 2013. – № 5. – S. 38–42. (In Russian)

8. Solovyova Ye.N. Metodika obucheniya inostrannim yazikam: bazoviy kurs. – M.: Prosveshcheniye, 2017. – 239 s. (In Russian)

9. Uznadze D.N. Psixologiya ustanovki. – Tbilisi: Metsniyereba, 1966. – 250 s. (In Russian)

“PREVENTIV BOSHQARUV” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDAGI AHAMIYATI
THE CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF “PREVENTIVE MANAGEMENT” AND ITS SIGNIFICANCE IN THE PREVENTION OF OFFENSES
СОДЕРЖАНИЕ ИСУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ “ПРЕВЕНТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ” И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

O‘rozaliyev Oybek Abdujamol o‘g‘li
Oriental universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
Tel: +998 94 609-14-41
E-mail:oybekorozaliyev4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda “preventiv boshqaruv”ning ahamiyati, uning mazmun-mohiyati, kelib chiqish evolyutsiyasi hamda nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Maqolada klassik va zamonaviy menejment nazariyalari, milliy boshqaruv merosi (xususan, “Temur tuzuklari”) hamda xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, reaktiv va preventiv boshqaruv modellari o‘rtasidagi tafovutlar yoritilib, oliy ta’lim tizimida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning bosqichli preventiv modeli va uning funksional mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *preventiv boshqaruv, ta’lim menejmenti, huquqbuzarliklar profilaktikasi, Temur tuzuklari, profilaktik model, reaktiv boshqaruv, oliy ta’lim muassasasi, risklarni baholash.*

Abstract. This article examines the significance of “preventive management” in the early prevention of offenses among students of higher education institutions, with particular emphasis on its content and essence, historical evolution, and theoretical and methodological foundations. The study provides a comparative analysis of classical and modern management theories, the national heritage of governance, particularly “*The Temur Tuzuklari”* (The Code of Timur), as well as the views of foreign and national scholars. The differences between reactive and preventive management models are also explored. Furthermore, the article proposes a phased preventive model for organizing offense prevention within the higher education system and identifies its functional mechanisms.

Keywords: *preventive management, educational management, offense prevention, “The Temur tuzuklari”, preventive model, reactive management, higher education institution, risk assessment.*

Аннотация. В статье исследуется значение «превентивного управления» в раннем предупреждении правонарушений среди студентов высших образовательных учреждений, раскрываются его содержание и сущность, эволюция становления, а также теоретико-методологические основы. Проведен сравнительный анализ классических и современных теорий менеджмента, национального наследия управления, в частности «Темур тузуклари» («Уложений Тимура»), а также взглядов зарубежных и отечественных ученых. Освещены различия между реактивной и превентивной моделями управления. Кроме того, предложена поэтапная превентивная модель организации профилактики правонарушений в системе высшего образования и определены ее функциональные механизмы.

Ключевые слова: *превентивное управление, управление в сфере образования, профилактика правонарушений, «Темур тузуклари», превентивная модель, реактивное управление, высшее образовательное учреждение, оценка рисков.*

KIRISH

XXI asr tom ma’noda axborot va texnologiya asri, shu bilan birga inson ongi, milliy qadriyatlar va tarixiy o‘zlikka turlicha mafkuraviy xatarlar tahdid solayotgan, demokratiyaning murakkab va noqis jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanayotgan davr hisoblanadi. Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherchill ta’kidlaganidek: “Demokratiyaning noqisliklari qanchalik ko‘p bo‘lmasin, insoniyat hali undan yaxshiroq tuzum o‘ylab topganicha yo‘q” (Churchill W., 1947).

XXI asr axborot globallashuvi sharoitida demokratik erkinliklarning salbiy oqibatlari va ma’naviy tahdidlarni yaqqol namoyon etmoqda. Bugun jamiyat ko‘z o‘ngida texnika taraqqiyoti tufayli, dunyo namoyon. Olamning eng yorqin, go‘zal va insonparvar ko‘rinishi ham, aksincha, eng jirkanch, insonni tubanlikka yetaklaydigan salbiy jihatlari ham birdek namoyon bo‘lmoqda. Inson ma’naviy-ruhiy jihatdan o‘zini cheksiz erkin qo‘ygani sari, uning salbiy illatlarga moyilligi ortib borishi kuzatiladi. Shu sababli, demokratiya va erkinlik g‘oyasi insoniyatni rivojlantirish bilan bir qatorda ma’naviy inqiroz sari ham yetaklamoqda. Ushbu global jarayonlarning bir bo‘lagi sifatida mamlakatimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish belgilari bilan bir qatorda muayyan salbiy illatlar va huquqbuzarlik holatlari ko‘zga tashlanmoqda. Zamonaviy taraqqiyot va nazorat qilish mushkul bo‘lgan axborot xurujlari aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy kamolotiga va ijtimoiy moslashuviga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Har qanday ijobiy islohotlar va muvaffaqiyatlar jamiyat kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lsa, salbiy illatlar va huquqbuzarliklar kelajak taraqqiyotini yemiruvchi halokat manbayidir. Shu sababli, jamiyatda insonlar ongini zaharlashga va tartib-

intizomni buzishga qaratilgan illatlarga qarshi tizimli va doimiy kurashish davlat siyosatining uzviy va to‘xtovsiz ishlaydigan mexanizmi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasidagi 207 ta oliy ta’lim muassasalarida 1 million 600 ming nafardan ortiq talabalar tahsil olmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy statistik ma’lumotlari. 2026). Talaba-yoshlar o‘rtasida turli darajadagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishi jamiyat va ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Oliy ta’lim muassasalarida huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, reaktiv yondashuvdan zamonaviy preventiv boshqaruv modellariga o‘tish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv va menejment tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash uchun klassik va zamonaviy boshqaruv nazariyalari vakillarining qarashlarini tahlil qilish lozim. Boshqaruv ilmining asoschilari va yetakchi namoyandalari ushbu kategoriyaga quyidagicha ta’rif berganlar:

F.W.Taylor (1911) bo‘yicha “Boshqaruv – bu ishni ilmiy asosda tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish va xodimlarning faoliyatini ratsional tashkil etish jarayonidir”.

H.Fayol (1949) boshqaruvni rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish (yo‘naltirish), muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat faoliyat sifatida talqin etadi.

P.F.Drucker (1954) nazariyasiga ko‘ra boshqaruv – tashkilotning mavjud resurslarini natijaga yo‘naltirish va insonlarning kuchli tomonlaridan samarali foydalanish orqali maqsadlarga erishish jarayonidir.

H.Koontz va C.O‘Donnellga (1976) ko‘ra boshqaruv – umumiy maqsadga erishish uchun kishilar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va yo‘naltirish jarayonidir.

G.R.Terry (1968) nazariyasiga ko‘ra boshqaruv – belgilangan maqsadlarga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish, harakatga keltirish va nazorat qilish jarayonidir.

Shuningdek, ushbu tushuncha o‘zbekistonlik iqtisodchi va menejer-olimlar tomonidan ham keng tadqiq qilingan. M.Sharifxo‘jayev va Y.Abdullayevlar (2001) menejmentni korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqarish tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmuyi hamda ishchi-xizmatchilar mehnatini namunali tashkil etish jarayoni deb hisoblaydilar.

Sh.N.Zaynutdinov, F.T.Shermuhamedov va I.Murakayevlar (2004) darsligida menejmentning metodologik va nazariy asoslari, boshqaruv qonuniyatlari, davlat va hududiy boshqaruv, tashkiliy tuzilma va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimli ravishda yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, mantiqiy, tizimli yondashuv hamda mazmuniy (kontent) tahlil usullaridan keng foydalanildi. Preventiv boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda klassik va zamonaviy menejment nazariyalari, milliy-tarixiy manbalar (xususan, “Temur tuzuklari”) va me’yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini baholashda reaktiv va preventiv modellar o‘rtasidagi tafovutlar modellashtirish va prognozlash metodlari orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJA

N.K.Yo‘ldoshev va G.E.Zohidovlar boshqaruv jarayonining markaziy subyekti sifatida professional boshqaruvchi – menejer faoliyatiga to‘xtalib, boshqaruvni tashkilot faoliyatini rivojlantirish va inson resurslarini maqsadli yo‘naltirish jarayoni sifatida baholaydilar (Yo‘ldoshev N.K., Zohidov G.E., 2014: 72-76.).

N.M.Ziyaviddinova, Y.M.O‘rinov va S.N.Xayitovlar esa boshqaruvni tashkilot madaniyati, rahbar rollari, axborot-kommunikatsiya va qaror qabul qilish jarayonlariga asoslangan yaxlit tizim deb biladilar (Ziyaviddinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov S.N., 2018: 35-42).

O‘zbekiston ilmiy-huquqiy amaliyotida “preventiv boshqaruv” kategoriyasi “huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “barvaqt oldini olish”, “viktimologik profilaktika” kabi tushunchalar bilan bevosita bog‘liq holda qo‘llaniladi.

Reaktiv va Preventiv boshqaruv modellari solishtirma tahlili:

Tahlil mezonlari	Reaktiv boshqaruv (An’anaviy)	Preventiv boshqaruv (Zamonaviy)
Yondashuv yo‘nalishi	Oqibat va sodir bo‘lgan hodisaga javob berish	Sabab va risk omillarini barvaqt bartaraf etish
Asosiy savol	“Nima sodir bo‘ldi va kim aybdor?”	“Nima sodir bo‘lishi mumkin va nega?”
Taktika va usullar	Jazolash, huquqiy jazo muqarrarligi, surishtiruv	Erta ogohlantirish, diagnostika, psixologik ko‘mak
Boshqaruv ob'ekti	Individual huquqbuzar va alohida holat	Tizimli risklar, ijtimoiy va akademik muhit
Natijadorlik ko‘rsatkichi	Yo‘qotish bor (moddiy/ma’naviy zarar yetib bo‘lingan)	Zarar va huquqbuzarlik holatining to‘liq oldi olinadi

J.Quick konsepsiyasiga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida preventiv boshqaruv uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Birlamchi preventiv boshqaruv: barcha talabalar uchun xavfsiz, sog‘lom va yuqori huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy muhitni yaratish.

2. Ikkilamchi preventiv boshqaruv: huquqbuzarlik sodir etish xavfi (risk guruhi) bo‘lgan talabalarni barvaqt aniqlash va ular bilan individual-pedagogik choralarni ko‘rish.

3. Uchlamchi preventiv boshqaruv: huquqbuzarlik yoki intizomsizlik sodir etgan talabalarni resotsializatsiya qilish va qayta huquqbuzarlikning oldini olish.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish faqatgina huquq-tartibot organlarining vazifasi emas. Oliy ta’lim muassasasi – bu talaba, tyutor, professor-o‘qituvchi, psixolog, ma’naviyat bo‘limi, mahalla va profilaktika inspektorining o‘zaro hamkorligiga asoslangan murakkab ijtimoiy tizimdir. Preventiv boshqaruv tizimi quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

Diagnostik funksiya: talabalarning ijtimoiy-psixologik holati va risk ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Prognozlash funksiyasi: ehtimoliy huquqbuzarlik va salbiy oqibatlarni oldindan bashorat qilish.

Profilaktik va korreksion funksiya: salbiy xulq-atvor shakllarini ijobiy sifatlarga o‘zgartirish.

Muvofiqlashtiruvchi funksiya: oliy ta’lim muassasasining ichki va tashqi subyektlari faoliyatini yagona maqsadga yo‘naltirish.

Umumlashtirgan holda aytganda, boshqaruv – bu maqsadga yo‘naltirilgan tizim faoliyatini tashkil etish, unga tizimli ta’sir ko‘rsatish va boshqaruv funksiyalari orqali uning barqaror rivojlanishini ta’minlash jarayonidir.

Boshqaruv va profilaktik faoliyatning tarixiy ildizlarini o‘rganishda Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari g‘oyat katta metodologik va amaliy ahamiyatga ega. Asarda zamonaviy ta’lim menejmenti va preventiv boshqaruvning ko‘plab unsurlari o‘z aksini topgan (Temur tuzuklari, 2018: 25-60).

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”. Bu hikmat kadrlar siyosatida professionalizm va kompetentlikka e’tibor qaratish preventiv boshqaruvning bosh bo‘g‘ini ekanligini ko‘rsatadi.

“Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur”. Bu qoida preventiv boshqaruvda muammolar va huquqbuzarliklarning oldini olishda zo‘ravonlik yoki jazo emas, balki kengash, kollegial muhokama va ilmiy asoslangan profilaktika yetakchi o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

“Har bir ishni kengashib va maslahatlashib qilur edim” hamda “Ishlarni ko‘rib chiqishda har bir ishning foyda va zararini o‘ylab ko‘rardim” degan tuzuklar qarorlar samaradorligini va ehtimoliy xavflarni oldindan baholash (risk-menejment) mexanizmini ifodalaydi.

“Har kimning qadr-qimmatini, qilgan ishini, xizmatini hisobga olib, unga yarasha hurmat ko‘rsatdim. Kimning aqli va shijoatini sinab ko‘rmasdan turib, uni biror mansabga tayinlamadim”. Boshqaruvda adolatli va munosib rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ijtimoiy nizolar va intizomsizliklarning barvaqt oldini oladi. Shunday qilib, “Temur tuzuklari”dagi mashvarat (ishtirokchi boshqaruv), adolat (boshqaruv etikasi), kadr sinovi (kompetensiya) va ehtiyotkorlik (strategik risk-menejment) tamoyillari zamonaviy ta’lim menejmenti va preventiv profilaktika tizimining milliy-tarixiy poydevori hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim menejmenti tushunchasining ilmiy-amaliy muomalaga kirib kelishi 1997-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda ushbu sohaning nazariy-amaliy asoslari L.V.Peregudov va M.X.Saidovlar tomonidan chop etilgan “Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti” (2002-yil) hamda R.X.Jo‘rayev va S.T.Turg‘unovlarning “Ta’lim menejmenti” (2006-yil) darsliklarida tizimlashtirilgan.

“Preventiv” atamasi lotincha “praevenire” so‘zidan olingan bo‘lib, “oldindan kelish”, “oldini olish”, “barvaqt chora ko‘rish” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu yondashuv dastlab tibbiyotda kasallikning oqibatini emas, sababini davolash g‘oyasi sifatida paydo bo‘lib, keyinchalik kriminologiya va boshqaruv psixologiyasiga tatbiq etildi. Tashkiliy boshqaruvda preventiv yondashuvni ilmiy asoslab bergan yetakchi olimlar James Quick va Jonathan Quick (1984-yil) hisoblanadi (Quick J.C., Quick J.D., 1984:105-120). Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, preventiv boshqaruv – bu muammo yoki inqiroz yuzaga kelganidan keyin harakat qilish emas, balki risk omillarini barvaqt aniqlash va sog‘lom tashkiliy muhitni shakllantirish jarayonidir. Kriminolog va psixolog
R.Novaco ham preventiv yondashuvni xulq-atvor og‘ishlarini erta bosqichda boshqarish nuqtayi nazaridan tadqiq etgan (Novaco R.W., 1975: 55-70).

Yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalardan kelib chiqib, quyidagi preventiv boshqaruv modelini amaliyotda qo‘llashni taklif etish mumkin:

1. Xavf indikatorlarini aniqlash va monitoring qilish. Talabalarning darsga qatnashishi (davomat), akademik o‘zlashtirishi, agressiv xulq-atvori, oilaviy va moddiy muammolari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi xavfli kontentga tobora berilishi doimiy ravishda kuzatib boriladi.

2. Xavf darajasini baholash (Klassifikatsiya). Talabalarni “yashil” (barqaror), “sariq” (diqqat talab) va “qizil” (yuqori xavf guruhi) toifalarga ajratish, bunda ularga bu darajalar tamg‘a sifatida ko‘rsatilishi kerak emas.

3. Erta va kompleks aralashuv. Individuallashtirilgan chora-tadbirlar – psixologik suhbatlar, tyutorlik ko‘magi, sport va to‘garaklarga jalb etish, moddiy-ma’naviy yordam va ota-onalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

4. Individual preventiv reja va monitoring: Har bir xavf guruhidagi talaba bo‘yicha tyutor va psixolog tomonidan individual reja tuzilib, har oyda uning natijadorligi kollegial tarzda tahlil qilib boriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda an’anaviy reaktiv boshqaruv (oqibatlar bilan kurashish) o‘rnini zamonaviy preventiv yondashuv (xavflarni barvaqt aniqlash va oldini olish) egallashi zarur. Preventiv boshqaruv – bu oliy ta’lim muassasasida talabalarning huquqbuzarlik sodir etishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy xavf omillarini oldindan aniqlash, baholash hamda profilaktik choralarni muvofiqlashtirishga qaratilgan mukammal tizimdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Raqamli monitoring va risk-analitika platformasini joriy etish: OTMlarda talabalarning akademik mashg‘ulotlarga qatnashuvi, akademik o‘zlashtirishi va ijtimoiy-psixologik holatini barvaqt tahlil qiluvchi raqamli axborot tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

2. Kafedralar va tyutorlar kompetensiyasini oshirish: Tyutorlar hamda profilaktika inspektorlarining preventiv diagnostika va viktimologik profilaktika sohasidagi malakasini oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv modullarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

3. Subyektlararo hamkorlik mexanizmini mustahkamlash: OTM, mahalla, huquq-tartibot organlari hamda ota-onalar o‘rtasida xavf guruhidagi talabalar bo‘yicha tezkor va uzviy axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish hamda individual profilaktika rejalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 14-may, O‘RQ-371-son. – 32 b.

2. Bobbitt F. The Supervision of City Schools. – Chicago: University of Chicago Press, 1913. – 119 p.

3. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – 4th ed. – London: SAGE Publications, 2011. – 232 p.

4. Churchill W. Speech to the House of Commons. – London, 1947. – 12 p.

5. Drucker P.F. The Practice of Management. – New York: Harper & Row, 1954. – 400 p.

6. Fayol H. General and Industrial Management. – London: Pitman, 1949. – 110 p.

7. Jo‘rayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.

8. Koontz H., O‘Donnell C. Principles of Management: An Analysis of Managerial Functions. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 758 p.

9. Novaco R.W. Anger Control: The Development and Evaluation of an Experimental Treatment. – Lexington: D.C. Heath, 1975. – 160 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy statistik ma’lumotlari. – Toshkent, 2026. – 45 b.

11. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2002. – 184 b.

12. Quick J.C., Quick J.D. Organizational Stress and Preventive Management. – New York: McGraw-Hill, 1984. – 320 p.

13. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment: 100 savol va 100 javob. – Toshkent: Mehnat, 2001. – 192 b.

14. Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. – New York: Harper & Brothers, 1911. – 144 p.

15. Temur tuzuklari / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: B. Ahmedov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 216 b.

16. Terry G.R. Principles of Management. – Homewood: Richard D. Irwin, 1968. – 798 p.

17. Yo‘ldoshev N.K., Zohidov G.E. Menejment: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – 392 b.

18. Zaynutdinov Sh.N., Shermuhamedov F.T., Murakayev I. Menejment: Darslik. – Toshkent: Moliya, 2004. – 304 b.

19. Ziyaviddinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov S.N. Menejment: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 256 b.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 14-may, O‘RQ-371-son. – 32 b. (In Uzbek)

2. Bobbitt F. The Supervision of City Schools. – Chicago: University of Chicago Press, 1913. – 119 p.

3. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – 4th ed. – London: SAGE Publications, 2011. – 232 p.

4. Churchill W. Speech to the House of Commons. – London, 1947. – 12 p.

5. Drucker P.F. The Practice of Management. – New York: Harper & Row, 1954. – 400 p.

6. Fayol H. General and Industrial Management. – London: Pitman, 1949. – 110 p.

7. Jo‘rayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b. (In Uzbek)

8. Koontz H., O‘Donnell C. Principles of Management: An Analysis of Managerial Functions. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 758 p.

9. Novaco R.W. Anger Control: The Development and Evaluation of an Experimental Treatment. – Lexington: D.C. Heath, 1975. – 160 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy statistik ma’lumotlari. – Toshkent, 2026. – 45 b. (In Uzbek)

11. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2002. – 184 b. (In Uzbek)

12. Quick J.C., Quick J.D. Organizational Stress and Preventive Management. – New York: McGraw-Hill, 1984. – 320 p.

13. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment: 100 savol va 100 javob. – Toshkent: Mehnat, 2001. – 192 b. (In Uzbek)

14. Taylor F.W. The Principles of Scientific Management. – New York: Harper & Brothers, 1911. – 144 p.

15. Temur tuzuklari / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: B. Ahmedov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 216 b. (In Uzbek)

16. Terry G.R. Principles of Management. – Homewood: Richard D. Irwin, 1968. – 798 p.

17. Yo‘ldoshev N.K., Zohidov G.E. Menejment: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – 392 b. (In Uzbek)

18. Zaynutdinov Sh.N., Shermuhamedov F.T., Murakayev I. Menejment: Darslik. – Toshkent: Moliya, 2004. – 304 b.

19. Ziyaviddinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov S.N. Menejment: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 256 b. (In Uzbek)

PSYCHOLOGICAL AND SOCIOCULTURAL ADAPTATION IN RELATION TO ACADEMIC ADAPTATION AMONG INTERNATIONAL STUDENTS IN CHINA

XITOYDAGI XORIJIY TALABALAR O‘RTASIDA PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY-MADANIY MOSLASHUVNING AKADEMIK MOSLASHUV BILAN BOG‘LIQLIGI

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ ВО ВЗАИМОСВЯЗИ С АКАДЕМИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИЕЙ У ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ В КИТАЕ

Zhang Na

Professor of School of Educational Science,

Northwest Normal University

Anning East Road, Lanzhou, Gansu Province, China

E-mail: stephaniepaper@163.com

Abstract. Academic adaptation is central to the educational success of international students, yet the relative contribution of psychological and sociocultural adaptation, beyond language proficiency and campus engagement, remains insufficiently examined in the context of Chinese higher education. This study investigated the associations of instructional language, Chinese proficiency, number of Chinese friends, campus participation, psychological adaptation, and sociocultural adaptation with academic adaptation among international students in China. A cross-sectional survey was conducted with 528 international students from four universities. Hierarchical regression analysis was used: Model 1 included instructional language, Chinese proficiency, number of Chinese friends, and campus participation, whereas Model 2 additionally included psychological and sociocultural adaptation. Model 1 explained 14.4% of the variance in academic adaptation ($R^2 = .144$, $F(4, 523) = 21.995$, $p < .001$). Instructional language ($\beta = .179$, $p < .001$), Chinese proficiency ($\beta = .210$, $p < .001$), and campus participation ($\beta = .198$, $p < .001$) were significant, while the number of Chinese friends was not ($\beta = .004$, $p = .923$). After psychological adaptation ($\beta = .244$, $p < .001$) and sociocultural adaptation ($\beta = .355$, $p < .001$) were added, the explained variance increased to 37.0% ($R^2 = .370$, $\Delta R^2 = .226$, $\Delta F(2, 521) = 28.963$, $p < .001$). Sociocultural adaptation showed the strongest association with academic adaptation. The findings indicate that universities should address students' emotional well-being and sociocultural adjustment alongside language development and campus participation.

Keywords: *international students; academic adaptation; cross-cultural adaptation; psychological adaptation; sociocultural adaptation; Chinese higher education; hierarchical regression.*

Annotatsiya. Akademik moslashuv xorijiy talabalarning ta’limdagi muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lsa-da, til bilish darajasi va talabalar shaharchasidagi (kampus) faollikdan tashqari, psixologik hamda ijtimoiy-madaniy moslashuvning nisbiy hissasi Xitoy oliy ta’limi kontekstida yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqotda Xitoydagi xorijiy talabalar misolida ta’lim tili, xitoy tilini bilish darajasi, xitoylik do‘stlar soni, kampus hayotidagi ishtirok, shuningdek, psixologik va ijtimoiy-madaniy moslashuvning akademik moslashuv bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. To‘rtta universitetning 528 nafar xorijiy talabasi ishtirokida bir bosqichli (kross-seksional) so‘rovnoma o‘tkazildi. Tahlil jarayonida iyerarxik regressiya usuli qo‘llanildi: 1-model ta’lim tili, xitoy tilini bilish darajasi, xitoylik do‘stlar soni va kampus hayotidagi ishtirokni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, 2-modelga qo‘shimcha ravishda psixologik va ijtimoiy-madaniy moslashuv kiritildi. 1-model akademik moslashuvdagi dispersiyaning 14,4% ini izohladi ($R^2 = .144$, $F(4, 523) = 21.995$, $p < .001$). Unda ta’lim tili ($\beta = .179$, $p < .001$), xitoy tilini bilish darajasi ($\beta = .210$, $p < .001$) va kampus hayotidagi ishtirok ($\beta = .198$, $p < .001$) statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib chiqdi, xitoylik do‘stlar soni esa statistik ahamiyat kasb etmadi ($\beta = .004$, $p = .923$). Psixologik moslashuv ($\beta = .244$, $p < .001$) va ijtimoiy-madaniy moslashuv ($\beta = .355$, $p < .001$) qo‘shilgach, izohlangan dispersiya ulushi 37,0% gacha oshdi ($R^2 = .370$, $\Delta R^2 = .226$, $\Delta F(2, 521) = 28.963$, $p < .001$). Akademik moslashuv bilan eng kuchli bog‘liqlik ijtimoiy-madaniy moslashuvda kuzatildi. Tadqiqot natijalari universitetlar til ko‘nikmalarini rivojlantirish va kampus hayotidagi faollikni oshirish bilan bir qatorda, talabalarning ruhiy-emotsional holati hamda ijtimoiy-madaniy moslashuviga ham alohida e’tibor qaratishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *xorijiy talabalar; akademik moslashuv; madaniyatlararo moslashuv; psixologik moslashuv; ijtimoiy-madaniy moslashuv; Xitoy oliy ta’limi; iyerarxik regressiya.*

Аннотация. Академическая адаптация играет ключевую роль в успешности обучения иностранных студентов, однако относительный вклад психологической и социокультурной адаптации — помимо уровня владения языком и вовлеченности в жизнь кампуса — остается недостаточно изученным в контексте высшего образования в Китае. В данном исследовании изучалась взаимосвязь языка обучения, уровня владения китайским языком, количества друзей из числа местного населения, участия в жизни кампуса, а также психологической и социокультурной адаптации с академической адаптацией иностранных студентов в Китае. Был проведен кросс-секционный опрос с участием 528 иностранных студентов из четырех университетов. Для обработки данных применялся иерархический регрессионный анализ: Модель 1 включала язык обучения, уровень владения китайским языком, количество китайских друзей и участие в

жизни кампуса, тогда как Модель 2 дополнительно учитывала психологическую и социокультурную адаптацию. Модель 1 объяснила 14,4% дисперсии академической адаптации (R2 = .144, F (4, 523) = 21.995, p < .001). Язык обучения (β = .179, p < .001), уровень владения китайским языком (β = .210, p < .001) и участие в жизни кампуса (β = .198, p < .001) оказались статистически значимыми факторами, тогда как количество китайских друзей — нет (β = .004, p = .923). После включения психологической адаптации (β = .244, p < .001) и социокультурной адаптации (β = .355, p < .001) доля объясненной дисперсии возросла до 37,0% (R2 = .370, ΔR2 = .226, ΔF (2, 521) = 28.963, p < .001). Социокультурная адаптация продемонстрировала наиболее сильную связь с академической адаптацией. Полученные результаты свидетельствуют о том, что университетам следует уделять внимание эмоциональному благополучию и социокультурной интеграции студентов наряду с развитием их языковых навыков и вовлечением в жизнь кампуса.

Ключевые слова: *иностранные студенты; академическая адаптация; межкультурная адаптация; психологическая адаптация; социокультурная адаптация; высшее образование в Китае; иерархическая регрессия*.

INTRODUCTION

The number of international students in China reached 492,185 in 2018 (Ministry of Education of the People's Republic of China, 2019), reflecting China's growing role as a destination for international higher education. Along with this expansion, increasing attention has been paid to the difficulties that international students may experience when adapting to unfamiliar linguistic, cultural, social, and academic environments. Cross-cultural adaptation is generally understood as a multidimensional process that includes psychological well-being, sociocultural competence, and successful participation in the host academic environment (Berry, 1997, 2005; Ward et al., 2001).

Academic adaptation refers to students' capacity to manage academic tasks, meet institutional expectations, understand teaching and assessment practices, and function effectively within the host education system (Baker & Siryk, 1984; Tinto, 1975). Difficulties in academic adaptation may be accompanied by acculturative stress, weaker psychological well-being, reduced engagement, and stronger intentions to leave the institution (Smith & Khawaja, 2011; Mesidor & Sly, 2016). These issues are especially important in the Chinese higher education context, where teaching styles, assessment practices, and classroom interaction may differ from students' prior educational experiences (Holmes, 2004, 2005; Gu & Maley, 2008).

Although language proficiency, local friendships, and campus participation are frequently identified as important correlates of international students' adjustment, less

attention has been given to whether psychological and sociocultural adaptation explain additional variance in academic adaptation when these background and engagement-related variables are considered simultaneously. This gap is important because the answer has direct implications for university support strategies: if academic adaptation is mainly associated with language and participation, interventions can focus primarily on linguistic and academic skills; if psychological well-being and sociocultural comfort make a substantial additional contribution, more comprehensive support is required.

Accordingly, the purpose of the present study is to examine the relative associations of instructional language, Chinese proficiency, number of Chinese friends, campus participation, psychological adaptation, and sociocultural adaptation with academic adaptation among international students in China. The study further assesses whether psychological and sociocultural adaptation provide incremental explanatory power beyond the baseline language and engagement variables.

LITERATURE REVIEW

Cross-cultural adaptation has been conceptualized as a process involving several related but distinct domains. Berry (1997, 2005) emphasized acculturation as an interaction between individuals and the host cultural environment, while Ward et al. (2001) distinguished psychological adjustment from sociocultural competence. Psychological adaptation concerns emotional well-being, stress management, belonging, and confidence, whereas sociocultural adaptation concerns the ability to perform everyday tasks, understand cultural norms, communicate effectively, and participate in social life. Academic adaptation can be viewed as a further domain that reflects students' ability to meet the requirements of the educational environment.

Previous research has identified several factors associated with academic adjustment. Host-language proficiency is especially important because it supports comprehension of lectures, communication with instructors, participation in classroom activities, and access to academic resources (Zhang & Goodson, 2011; Li, 2019). Local friendships may facilitate social integration and provide informational and emotional support (Hendrickson et al., 2011; Glass & Westmont, 2014). Campus participation, including extracurricular, social, and volunteer activities, may also strengthen students' sense of belonging and increase opportunities for interaction with the host community (Glass & Westmont, 2014).

Psychological resources are likewise central to successful adjustment. Reviews of international students' acculturation experiences show that acculturative stress, loneliness, anxiety, perceived social support, and self-efficacy are closely related to psychological well-being and adjustment outcomes (Smith & Khawaja, 2011; Mesidor & Sly, 2016). Zhang and Goodson (2011) further showed that psychological variables such as self-efficacy and perceived support can be more informative than purely

demographic characteristics when explaining psychosocial adjustment. However, much of this evidence comes from English-speaking destinations, which leaves open the question of whether comparable patterns are observed in China.

Recent research in the Chinese context has strengthened the case for examining multiple adaptation domains together. Mensah et al. (2024) found that general health partially mediated the relationship between intercultural sensitivity and academic adaptation among international students in Chinese universities. Tang et al. (2024) reported that perceived cultural distance, cultural intelligence, and cross-cultural adaptation were related to academic performance, with psychological, sociocultural, and academic adaptation playing important mediating roles. Pan and Zheng (2024) demonstrated the usefulness of hierarchical regression for estimating how the sequential addition of adjustment-related variables changes explanatory power. These studies suggest that psychological and sociocultural adaptation should be examined not as isolated outcomes but as factors that may help explain academic adaptation beyond language and participation variables.

Based on this literature, the present study tests three hypotheses. H1: instructional language, Chinese proficiency, and campus participation will be significantly associated with academic adaptation in the baseline model. H2: adding psychological and sociocultural adaptation will result in a significant increase in explained variance ($\Delta R^2 > 0$). H3: sociocultural adaptation will show the strongest association with academic adaptation among the variables included in the full model.

RESEARCH METHODOLOGY

A cross-sectional survey was conducted between January and March 2025 at four universities in China. In total, 550 questionnaires were distributed and 528 valid responses were obtained, yielding a valid response rate of 96.0%. Questionnaires were distributed and collected on site by trained research assistants, who provided clarification when needed and checked the completeness of responses before submission.

The sample included 288 male students (54.55%) and 240 female students (45.45%). Participants aged 18-20 years accounted for 45.27% of the sample, those aged 21-25 for 25.76%, those aged 26-30 for 15.91%, and those aged 31 years or older for 13.07%. Thus, 71.03% of participants were 25 years old or younger. Students from Asia formed the largest regional group (80.11%), followed by Africa (14.58%), Europe (5.11%), and Oceania (0.19%). By academic level, 43.75% were undergraduates, 32.39% were enrolled in language programs, 17.61% were master's students, and 6.25% were doctoral students. Regarding instructional language, 49.05% studied in Chinese-taught programs, 26.33% in bilingual programs, and 24.62% in English-taught

programs. The study received approval from the university ethics committee, and informed consent was obtained from all participants.

Unless otherwise specified, all measures used a five-point Likert scale ranging from 1 (strongly disagree) to 5 (strongly agree). The questionnaire was developed through a Delphi process involving 25 experts in international student education. Because online and hybrid learning have become increasingly relevant in Chinese higher education, four items assessing digital learning adaptation were included following the Delphi consultation.

Academic adaptation, the dependent variable, was measured with 13 items covering course-content understanding (2 items), adaptation to teaching methods (2 items), teacher-student interaction (2 items), academic norms and assessment (3 items), and digital learning (4 items). Sample items included "I can understand course content" and "I can adapt to the teaching methods used in Chinese universities." Cronbach's α for the total scale was .845. Exploratory factor analysis (EFA) extracted five factors explaining 77.54% of the variance (KMO = .800, Bartlett's test $p < .001$). Confirmatory factor analysis (CFA) indicated good model fit: $\chi^2/df = 1.817$, RMSEA = .039, CFI = .984, TLI = .978, and NFI = .966. Average variance extracted (AVE) values exceeded .60, and composite reliability (CR) values ranged from .799 to .856.

Psychological adaptation was measured with 13 items covering emotional regulation (2 items), psychological stress adaptation (3 items), perceived emotional support (3 items), environmental belonging and identification (3 items), and self-efficacy (2 items). Sample items included "I can cope with feelings of loneliness while living in China" and "I feel a sense of belonging to my university." Cronbach's α was .877. EFA extracted five factors explaining 80.34% of the total variance (KMO = .824, Bartlett's test $p < .001$). CFA showed excellent fit: $\chi^2/df = 1.655$, RMSEA = .035, CFI = .990, TLI = .985, and NFI = .975.

Sociocultural adaptation was measured with 20 items covering language communication (3 items), daily life (3 items), cultural understanding (4 items), interpersonal interaction (4 items), campus participation (3 items), and institutional adaptation (3 items). The measure was based on Ward and Kennedy's (1999) Sociocultural Adaptation Scale. Sample items included "I can establish good relationships with Chinese students" and "I can understand Chinese cultural customs." Cronbach's α was .914. EFA extracted six factors explaining 75.99% of the variance (KMO = .893, Bartlett's test $p < .001$). CFA indicated excellent fit: $\chi^2/df = 1.598$, RMSEA = .034, CFI = .985, TLI = .981, and NFI = .961. All AVE values exceeded .64, all CR values exceeded .84, and the square roots of AVE were larger than the inter-construct correlations, supporting convergent and discriminant validity.

Instructional language was coded as an ordinal variable: 1 = Chinese-taught, 2 = English-taught, and 3 = bilingual. The original analytical framework treated this coding as reflecting increasing levels of institutional accommodation for international students, from standard Chinese-medium instruction to English-medium and then bilingual provision.

Harman's single-factor test was used to assess common method bias. The first unrotated factor accounted for 24.96% of the total variance, below the 40% threshold suggested by Podsakoff et al. (2003). On this basis, common method bias was not considered a major concern in the dataset.

Hierarchical regression analysis was conducted using SPSS 27.0. Model 1 included instructional language, Chinese proficiency, number of Chinese friends, and campus participation frequency as independent variables associated with academic adaptation. Model 2 added psychological adaptation and sociocultural adaptation. The significance of the change in R^2 (ΔR^2) was evaluated with an F-test, and standardized regression coefficients (β) are reported.

The sample size (N = 528) exceeded the minimum required for detecting medium effects in a hierarchical regression model with up to six predictors (Tabachnick & Fidell, 2013). Based on Cohen's (1988) conventions, the reported ΔR^2 of .226 corresponds to a large incremental effect ($f^2 = .36$).

ANALYSIS AND RESULTS

4.1 Descriptive Statistics and Correlations

The mean scores were 3.07 (SD = 0.77) for psychological adaptation, 3.15 (SD = 0.72) for sociocultural adaptation, and 3.42 (SD = 0.66) for academic adaptation. The variables were approximately normally distributed: absolute skewness values ranged from .03 to .80 and absolute kurtosis values ranged from .10 to 1.36, satisfying the assumptions for parametric analysis (Kline, 2016).

Pearson correlations showed significant positive relationships among all three adaptation dimensions. Psychological adaptation was correlated with sociocultural adaptation ($r = .373$, $p < .01$) and academic adaptation ($r = .417$, $p < .01$). Sociocultural adaptation showed the strongest bivariate association with academic adaptation ($r = .513$, $p < .01$).

Table 1. Pearson Correlations, Means, and Standard Deviations Among Adaptation Dimensions (N = 528)

Variable	M	SD	1	2	3
Psychological adaptation	3.07	0.77	—		
Sociocultural adaptation	3.15	0.72	373**	—	
Academic adaptation	3.42	0.66	417**	513**	—

Note. **$p < .01$.

4.2 Hierarchical Regression Results

Model 1 was statistically significant, $F(4, 523) = 21.995$, $p < .001$, and explained 14.4% of the variance in academic adaptation ($R^2 = .144$, adjusted $R^2 = .137$). Instructional language ($\beta = .179$, $p < .001$), Chinese proficiency ($\beta = .210$, $p < .001$), and campus participation ($\beta = .198$, $p < .001$) showed significant positive associations with academic adaptation. The number of Chinese friends was not significant ($\beta = .004$, $p = .923$). These findings support H1 for instructional language, Chinese proficiency, and campus participation.

Model 2 was also statistically significant, $F(6, 521) = 50.958$, $p < .001$, and explained 37.0% of the variance in academic adaptation ($R^2 = .370$, adjusted $R^2 = .363$). Adding psychological and sociocultural adaptation produced a reported increase of $\Delta R^2 = .226$, $\Delta F(2, 521) = 28.963$, $p < .001$. In the full model, psychological adaptation ($\beta = .244$, $p < .001$) and sociocultural adaptation ($\beta = .355$, $p < .001$) were strong positive correlates. Instructional language ($\beta = .101$, $p = .005$), Chinese proficiency ($\beta = .127$, $p = .001$), and campus participation ($\beta = .140$, $p < .001$) remained significant, but their coefficients were smaller than in Model 1. These results support H2 and H3.

Table 2. Hierarchical Regression Analysis of Academic Adaptation (N = 528)

Predictor	**Model 1**		**Model 2**	
	B (SE)	β	B (SE)	β
Constant	2.398 (0.117)	—	1.171 (0.135)	—
Instructional language	0.140 (0.032)	179***	0.080 (0.028)	.101***
Chinese proficiency	0.126 (0.026)	210***	0.076 (0.023)	.127***
Number of Chinese friends	0.003 (0.030)	004	-0.019 (0.025)	-.029
Campus participation	0.132 (0.028)	198***	0.093 (0.024)	140***
Psychological adaptation	—	—	0.209 (0.032)	244***
Sociocultural adaptation	—	—	0.323 (0.035)	355***
R^2	144		370	
Adjusted R^2	137		363	

*Model fit: Model 1 F = 21.995***; Model 2 F = 50.958***; ΔR² = .226; ΔF = 28.963***. Note. **p < .01; ***p < .001.*

4.3 Interpretation of the Findings

The baseline variables explained a meaningful but limited portion of academic adaptation. Although instructional language, Chinese proficiency, and campus participation were statistically significant, together they accounted for only 14.4% of the variance. This suggests that language and participation are important components of academic adjustment but do not, by themselves, capture the broader adaptation process experienced by international students.

The most important finding is the substantial increase in explanatory power after psychological and sociocultural adaptation were added to the model. R^2 increased from

.144 to .370, and sociocultural adaptation showed the largest standardized coefficient (β = .355), followed by psychological adaptation (β = .244). This pattern is consistent with Ward and Kennedy's (1999) distinction between emotional well-being and sociocultural competence. Students who can navigate everyday interactions, understand cultural expectations, and participate comfortably in the host environment may be better positioned to devote attention and cognitive resources to academic demands. Likewise, students with stronger emotional regulation, perceived support, belonging, and self-efficacy may be more able to manage the stress associated with study abroad.

The number of Chinese friends was not significant in either multivariable model. Although the original analysis also reported significant mean differences across friendship-quantity groups in a bivariate ANOVA, $F(3, 524) = 4.729$, $p = .003$, the multivariable results indicate that the sheer number of local friends is less informative once broader psychological and sociocultural resources are taken into account. This supports the interpretation that the benefits of local friendship may depend more on the quality and meaning of interaction than on quantity alone (Hendrickson et al., 2011; Glass & Westmont, 2014).

The reduction in the coefficients of the baseline variables after the adaptation variables were entered is also noteworthy. Chinese proficiency declined from β = .210 to β = .127, instructional language from β = .179 to β = .101, and campus participation from β = .198 to β = .140. This attenuation is compatible with the possibility that language and participation are linked to academic adaptation partly through psychological and sociocultural pathways; however, the cross-sectional design and the absence of formal mediation tests do not permit causal or mediational conclusions. Longitudinal designs and formal mediation analysis would be required to test these mechanisms directly (Hayes, 2018).

The results therefore support a multidimensional interpretation of international-student adaptation. Psychological, sociocultural, and academic adaptation are positively related but distinct, and the incremental contribution of psychological and sociocultural adaptation ($\Delta R^2 = .226$) indicates that academic success cannot be understood solely through demographic, linguistic, or participation-related variables.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

This study examined the relative contribution of psychological and sociocultural adaptation to academic adaptation among international students in China while accounting for instructional language, Chinese proficiency, number of Chinese friends, and campus participation. The results show that the baseline variables were associated with academic adaptation, but their combined explanatory power was modest. When psychological and sociocultural adaptation were added, the explained variance increased

substantially, and sociocultural adaptation emerged as the strongest associated factor, followed by psychological adaptation.

The findings reinforce the view that international students' academic adjustment is embedded in a broader cross-cultural adaptation process. Language proficiency and participation remain relevant, but students' emotional well-being, sense of belonging, confidence in managing daily life, cultural understanding, and ability to interact effectively within the host environment appear to be central to academic adjustment. University support systems should therefore move beyond isolated academic or language interventions and adopt a more integrated model of student support.

1. Prioritize holistic support. Universities should combine language and academic assistance with services that strengthen psychological well-being and sociocultural competence, including counseling, cultural orientation, and mentoring programs (Rienties & Nolan, 2014).

2. Identify adaptation difficulties early. Brief screening during orientation can help identify students experiencing psychological or sociocultural difficulties and connect them with appropriate support before academic problems intensify (Mesidor & Sly, 2016).

3. Redesign campus participation with adaptation goals in mind. Campus activities should be structured not only to increase attendance but also to reduce social barriers, encourage meaningful interaction, and develop practical sociocultural skills. The quality of participation may be as important as its frequency (Glass & Westmont, 2014).

4. Integrate language learning with cultural and social experience. Language courses may be strengthened through conversation partnerships, culturally focused activities, and project-based collaboration with local students so that linguistic, psychological, and sociocultural development occur together (Li, 2019).

5. Focus on relationship quality rather than friendship quantity. Peer mentoring, language-partner programs, and collaborative learning projects that promote sustained interaction may be more useful than simply increasing the number of local contacts.

Several limitations should be considered when interpreting the findings. First, the cross-sectional design does not permit causal inference, and longitudinal studies with multiple measurement points are needed to establish directionality (Zhou et al., 2008). Second, local friendship was measured primarily in terms of quantity; future research should assess friendship quality, closeness, trust, and frequency of meaningful interaction. Third, the sample was drawn from four universities in one province and was predominantly Asian (80.11%), which limits generalizability. Broader multi-site samples are therefore needed. Fourth, the study relied on self-report measures; future studies should incorporate objective indicators such as GPA, course completion, or retention. Fifth, larger samples would permit more complex modeling, including

structural equation modeling and formal mediation tests. Finally, future research should examine institutional-level support structures and whether the quality of university services moderates the relationships observed in this study.

REFERENCES:

1. Baker R.W., Siryk B. (1984). Measuring adjustment to college. // Journal of Counseling Psychology, 31(2), –P. 179-189.

2. Berry J.W. (1997). Immigration, acculturation, and adaptation. // Applied Psychology, 46(1), –P. 5-34.

3. Berry J.W. (2005). Acculturation: Living successfully in two cultures. // International Journal of Intercultural Relations, 29(6), –P. 697-712.

4. Cao C., Meng Q. (2022). A systematic review of predictors of international students' cross-cultural adjustment in China: Current knowledge and agenda for future research. Asia Pacific Education Review, 23(1), –P. 45-67.

5. Cohen J. (1988). Statistical power analysis for the behavioral sciences (2nd ed.). Lawrence Erlbaum Associates.

6. Glass C.R., Westmont C.M. (2014). Comparative effects of belongingness on the academic success and cross-cultural interactions of domestic and international students. // International Journal of Intercultural Relations, 38, 106-119.

7. Gu Q., Maley A. (2008). Changing places: A study of Chinese students in the UK. // Language and Intercultural Communication 8(4). –P. 224-245.

8. Hendrickson B., Rosen D., Aune R.K. (2011). An analysis of friendship networks, social connectedness, homesickness, and satisfaction levels of international students. // International Journal of Intercultural Relations, 35(3), –P. 281-295.

9. Holmes P. (2004). Negotiating differences in learning and intercultural communication. // Business Communication Quarterly, 67(3). –P. 294-307.

10. Holmes P. (2005). Ethnic Chinese students' communication with cultural others in a New Zealand university. // Communication Education, 54(4). –P. 289-311.

11. Li G. (2019). From "parasites" to "butterflies": The acculturation of Chinese international students in the United States. // Journal of International Students, 9(3). –P. 779-800.

12. Mensah E.T., Chen M., Ntim S.Y., Shen T., Asanga A.A., Aboagye M.O., Gabrah A.Y.B. (2024). International students' intercultural sensitivity and academic adaptation in Chinese universities: The mediating role of general health. // Psychology in the Schools, 61(10). –P.4005-4025.

13. Mesidor J.K., Sly K.F. (2016). Factors that contribute to the adjustment of international students. // Journal of International Students, 6(1). –P. 262-282.

14. Pan Y., Zheng X. (2024). Exploring how demographic, adjustment, and online learning readiness related factors shape international students' online learning anxiety: A hierarchical regression analysis. Educational Psychology, 44(6-7), –P. 730-748.

15. Podsakoff P.M., MacKenzie S.B., Lee J.Y., Podsakoff N.P. (2003). Common method biases in behavioral research: A critical review of the literature and recommended remedies. // Journal of Applied Psychology, 88(5). –P. 879–903.

16. Rienties B., Nolan E.M. (2014). Understanding friendship and learning networks of international and host students using longitudinal social network analysis. International Journal of Intercultural Relations, 41, –P.165-180.

17. Smith R.A., Khawaja N.G. (2011). A review of the acculturation experiences of international students. // International Journal of Intercultural Relations, 35(6), –P. 699-713.

18. Tinto V. (1997). Classrooms as communities: Exploring the educational character of student persistence. // Journal of Higher Education, 68(6). –P. 599-623.

19. Ward C., Kennedy A. (1999). The measurement of sociocultural adaptation. // International Journal of Intercultural Relations, 23(4), –P. 659-677.

20. Zhang J., Goodson P. (2011). Predictors of international students' psychosocial adjustment to life in the United States: A systematic review. // International Journal of Intercultural Relations, 35(2), –P. 139-162.

21. Zhou Y., Jindal-Snape D., Topping K., Todman J. (2008). Theoretical models of culture shock and adaptation in international students in higher education. Studies in Higher Education, 33(1), –P. 63-75.

TALABALARDA AKADEMIK PROKRASTINATSIYANI KAMAYTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI
PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF REDUCING ACADEMIC PROCRASTINATION AMONG STUDENTS
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СНИЖЕНИЯ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ПРОКРАСТИНАЦИИ У СТУДЕНТОВ

Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o‘g‘li
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.:+998 88-348-01-02
E-mail:*mansurbekodilbekov85@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada talabalarda akademik prokrastinatsiyani kamaytirishga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar tizimli-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Akademik prokrastinatsiya topshiriqni kechiktirishning oddiy odati emas, balki o‘zini o‘zi boshqarishdagi uzilish, vazifaga nisbatan salbiy emotsiyalarni qisqa muddatli yengillashtirishga intilish, vaqt istiqbolining buzilishi va motivatsion resurslarning yetarli safarbar qilinmasligi bilan bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida izohlanadi. Ilmiy manbalarni integrativ tahlil qilish natijasida akademik o‘ziga ishonch, avtonom motivatsiya, maqsadlarning aniqligi, vaqtni boshqarish, emotsiyalarni tartibga solish, o‘zini nazorat qilish, psixologik bardoshlilik va ta’lim muhitining tizimlanganligi prokrastinatsiyani kamaytiruvchi asosiy determinantlar sifatida ajratildi. Maqolada “resurs–regulyatsiya–harakat” tamoyiliga tayanuvchi konseptual model hamda oliy ta’lim amaliyotiga mos bosqichli profilaktik-rivojlantiruvchi mexanizm taklif etiladi. Taklif etilgan yondashuv akademik prokrastinatsiyaning tashqi belgilarini emas, uni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni o‘zgartirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *akademik prokrastinatsiya, psixologik determinant, o‘zini o‘zi boshqarish, akademik o‘ziga ishonch, avtonom motivatsiya, emotsional regulyatsiya, vaqtni boshqarish, o‘zini nazorat qilish, psixologik bardoshlilik, ta’lim muhiti.*

Аннотация. В статье на основе системно-теоретического подхода анализируются психологические детерминанты снижения академической прокрастинации у студентов. Академическая прокрастинация рассматривается не как простая привычка откладывать задания, а как сложный психологический феномен, связанный с нарушением саморегуляции, стремлением к кратковременному облегчению негативных эмоций, искажением временной перспективы и недостаточной мобилизацией мотивационных ресурсов. Интегративный анализ научных источников позволил выделить академическую самоэффективность, автономную мотивацию, ясность целей, управление

временем, эмоциональную регуляцию, самоконтроль, психологическую устойчивость и структурированность образовательной среды в качестве основных факторов снижения прокрастинации. Предложены концептуальная модель, основанная на принципе «ресурс–регуляция–действие», и поэтапный профилактико-развивающий механизм, адаптированный к практике высшего образования.

Ключевые слова: *академическая прокрастинация, психологическая детерминанта, саморегуляция, академическая самоэффективность, автономная мотивация, эмоциональная регуляция, управление временем, самоконтроль, психологическая устойчивость, образовательная среда.*

Abstract. This article analyzes the psychological determinants of reducing academic procrastination among students through a systemic theoretical approach. Academic procrastination is interpreted not as a simple habit of delaying assignments, but as a complex psychological phenomenon associated with self-regulatory failure, short-term avoidance of task-related negative emotions, distorted time perspective, and insufficient mobilization of motivational resources. An integrative analysis of the literature identifies academic self-efficacy, autonomous motivation, goal clarity, time management, emotion regulation, self-control, psychological resilience, and a structured learning environment as the principal determinants that may reduce procrastination. The article proposes a conceptual “resource–regulation–action” model and a staged preventive-developmental mechanism adapted to higher education. The approach is significant because it targets the psychological mechanisms that generate procrastination rather than merely its observable symptoms.

Keywords: *academic procrastination, psychological determinant, self-regulation, academic self-efficacy, autonomous motivation, emotion regulation, time management, self-control, psychological resilience, learning environment.*

KIRISH

Oliy ta’limda talabaning muvaffaqiyati faqat bilim va intellektual salohiyat bilan belgilanmaydi. O‘quv vazifalarini o‘z vaqtida boshlash, ustuvor maqsadlarni belgilash, qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish hamda emotsional zo‘riqishni boshqarish akademik samaradorlikning muhim shartlari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, akademik prokrastinatsiya rejalashtirilgan o‘quv faoliyatini zaruratsiz ravishda kechiktirish va bunday kechiktirish salbiy oqibatlarga olib kelishini anglagan holda ham vazifani boshlamaslik yoki yakunlamaslik bilan tavsiflanadi (Steel P., 2007: 66-68).

Akademik kechiktirish talabalarning yozma topshiriqlarni bajarishi, imtihonlarga tayyorlanishi, haftalik o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi va universitet bilan bog‘liq ma’muriy vazifalarni amalga oshirishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Prokrastinatsiyaning keng tarqalganligi ushbu hodisani talabalarning o‘quv faoliyatiga xos muhim psixologik muammo sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi (Solomon L.J., Rothblum E.D., 1984: 503-505).

Prokrastinatsiya ko‘pincha vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash bilan tenglashtiriladi. Biroq uning markazida faqat vaqtni boshqarishdagi kamchilik emas, balki o‘zini o‘zi regulyatsiya qilish va vazifaga oid salbiy emotsiyalarni boshqarish muammosi turadi. Talaba murakkab, noaniq yoki yoqimsiz vazifaga duch kelganida xavotir, zerikish, uyat yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish hissini vaqtincha kamaytiradigan faoliyatni tanlashi mumkin. Natijada qisqa muddatli emotsional yengillik uzoq muddatli akademik maqsaddan ustun keladi (Sirois F.M., Pychyl T.A., 2013: 116-119).

Akademik prokrastinatsiya talabaning faqat kundalik o‘quv tartibiga emas, balki uning ta’lim natijalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Topshiriqni kechiktirish uchun mavjud vaqtning qisqarishi bajarilgan ish sifatining pasayishi, xatolar sonining ortishi va akademik ko‘rsatkichlarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin (Kim K.R., Seo E.H., 2015: 27-30).

Stressli vaziyatlarda shaxsning kognitiv va emotsional resurslari kamayadi, salbiy emotsiyalarga chidamlilik chegarasi pasayadi va oson emotsional yengillik beradigan faoliyatlarni tanlash ehtimoli ortadi. Shu sababli akademik yuklama, vaqt bosimi va psixologik zo‘riqish prokrastinatsiyaning kuchayishiga xizmat qiluvchi kontekstual omillar sifatida qaraladi (Sirois F.M., 2023: 3-7).

Raqamli ta’lim muhiti talabalarga ilmiy axborotdan foydalanish va o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar, tezkor xabarlar, qisqa videolar va boshqa raqamli stimullar diqqatning bo‘linishiga hamda vazifani boshlashning subyektiv jihatdan murakkablashishiga olib kelishi mumkin. Demak, akademik prokrastinatsiyani kamaytirish faqat intizomiy talablarni kuchaytirish bilan cheklanmasdan, shaxsiy va ta’lim muhiti determinantlarini kompleks ravishda o‘zgartirishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Akademik o‘ziga ishonch talabaning muayyan o‘quv vazifasini muvaffaqiyatli bajara olishiga doir subyektiv ishonchini ifodalaydi. O‘z imkoniyatlariga ishonchi yuqori bo‘lgan talaba murakkab vazifani o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan faoliyat sifatida qabul qiladi, qiyinchilikka duch kelganida esa sa’y-harakatni davom ettirishga moyil bo‘ladi. Aksincha, o‘ziga ishonchning pastligi vazifani tahdid sifatida idrok etish va undan qochish ehtimolini oshiradi (Bandura A., 1997: 79-85).

Talabaning o‘z o‘quv faoliyatini boshqarishga doir ishonchi akademik prokrastinatsiya darajasini bashorat qiluvchi muhim omillardan biridir. Maqsad qo‘yish, vaqtni rejalashtirish, diqqatni boshqarish va o‘z natijalarini nazorat qilishga ishonchi

past talabalar o‘quv vazifalarini ko‘proq kechiktirishi aniqlangan (Klassen R.M., Krawchuk L.L., Rajani S., 2008: 920-925).

O‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlikka bo‘lgan psixologik ehtiyojlarning qondirilishi shaxsning ichki va identifikatsiyalangan motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Talaba o‘quv vazifasini faqat tashqi nazorat yoki baho uchun emas, balki shaxsiy va kasbiy maqsadlari bilan bog‘lab bajarganida uning faoliyatga egalik hissi va barqarorligi kuchayadi (Ryan R.M., Deci E.L., 2017: 10-14).

O‘quv maqsadining umumiy va mavhum shaklda belgilanishi ko‘pincha real harakatni boshlash uchun yetarli bo‘lmaydi. “Qachon, qayerda va qanday harakatni amalga oshiraman?” shaklidagi oldindan tuzilgan niyatlar vaziyatli signal bilan konkret xatti-harakatni bog‘laydi hamda vazifani boshlash paytidagi ikkilanishni kamaytiradi (Gollwitzer P.M., 1999: 493-496).

Metakognitiv rejalashtirish, o‘z faoliyatini monitoring qilish va natijalarni refleksiv baholash talabaning o‘quv jarayonini mustaqil boshqarishida muhim ahamiyatga ega. O‘zini o‘zi boshqarib o‘qish jarayonida talaba maqsad belgilaydi, tegishli strategiyani tanlaydi, faoliyatning borishini kuzatadi va olingan natijalar asosida keyingi harakatlarini tuzatadi (Zimmerman B.J., 2002: 65-69).

Ta’lim muhitining tashkiliy xususiyatlari ham akademik kechiktirishning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq muddatli yagona yakuniy muddat, topshiriq talablarining noaniqligi, ish hajmining kattaligi, kechiktirilgan qayta aloqa va turli chalg‘ituvchi omillar prokrastinatsiya uchun qulay sharoit yaratishi mumkin. Topshiriqlarni bosqichlarga ajratish, oraliq muddatlarni belgilash va muntazam qayta aloqa berish esa kechiktirish ehtimolini kamaytiradi (Svartdal F. va boshq., 2020: 3-8).

Akademik prokrastinatsiyani kamaytirishga yo‘naltirilgan intervensiyalar orasida kognitiv-xulqiy usullar, vaqtni boshqarish, maqsadlarni konkretlashtirish va o‘z faoliyatini monitoring qilishga asoslangan yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi. Bunday dasturlarning samaradorligi prokrastinatsiyaning faqat tashqi belgilariga emas, balki uni yuzaga keltiruvchi kognitiv, emotsional va xulqiy mexanizmlarga ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liq (Zacks S., Hen M., 2018: 120-126).

Intervensiyalar bo‘yicha o‘tkazilgan meta-tahlil natijalari akademik prokrastinatsiyani kamaytirishda psixologik dasturlar ijobiy imkoniyatga ega ekanligini, ayniqsa, kognitiv-xulqiy yondashuvlar nisbatan istiqbolli natijalar berishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, dasturlarni talabalarning individual psixologik profili va kechiktirish sabablariga moslashtirish zarur (van Eerde W., Klingsieck K.B., 2018: 78-83).

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili akademik prokrastinatsiyaning yagona sabab bilan izohlanmasligini ko‘rsatadi. Uning shakllanishi akademik o‘ziga ishonch, motivatsiya, emotsional regulyatsiya, metakognitiv nazorat, faoliyatni rejalashtirish va

ta’lim muhitining tashkiliy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir bilan belgilanadi. Mazkur determinantlarni bir butun tizim sifatida o‘rganish akademik kechiktirishni kamaytirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy-analitik tadqiqot dizayniga asoslangan. Akademik prokrastinatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, motivatsiya, emotsional regulyatsiya, akademik o‘ziga ishonch va ta’lim muhiti bo‘yicha klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar konseptual sintez qilindi. Tahlilda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish, determinantlarni klasterlash va sababiy mexanizmlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. Akademik prokrastinatsiyani kamaytirishga qaratilgan ta’limiy va psixologik intervensiyalar bo‘yicha sharh hamda meta-tahlil natijalari ham konseptual sintezga kiritildi (Zacks S., Hen M., 2018: 118-126; van Eerde W., Klingsieck K.B., 2018: 76-83).

Nazariy sintezning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: birinchidan, omilning prokrastinatsiya bilan takroran aniqlangan aloqasi; ikkinchidan, uning psixologik ta’sir mexanizmining nazariy asoslanganligi; uchinchidan, ta’lim amaliyotida o‘zgartirish imkoniyati; to‘rtinchidan, individual va ta’lim muhiti darajalarini birlashtira olishi. Mazkur mezonlar asosida determinantlar beshta blokka ajratildi: motivatsion-ma’noviy, kognitiv-regulyativ, emotsional-resurs, shaxsiy kompetentlik va tashkiliy-kontekstual.

Maqola nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, unda empirik natijalarni taqdim etish maqsad qilinmagan. Taklif etilgan model keyingi bosqichda PASS (Procrastination Assessment Scale for Students), akademik o‘ziga ishonch, o‘quv motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish va emotsional regulyatsiyani baholovchi metodikalar yordamida empirik tekshirish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Mazkur yondashuv tadqiqot xulosalarining dalillilik chegaralarini aniq belgilash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Integrativ tahlil natijasida akademik prokrastinatsiyani kamaytirishning psixologik determinantlari quyidagi tizimda umumlashtirildi.

1-jadval. **Akademik prokrastinatsiyani kamaytiruvchi determinantlar tizimi**

Determinantlar bloki	Asosiy tarkib	Psixologik mexanizm	Kutiladigan natija
Motivatsion-ma’noviy	Avtonom motivatsiya, maqsad aniqligi, vazifaning shaxsiy qiymati	Vazifa “majburiyat”dan shaxsiy maqsad vositasiga aylanadi	Boshlash istagi va qat’iyat ortadi
Kognitiv-regulyativ	Rejalashtirish, vaqtni boshqarish, metakognitiv monitoring, amalga oshirish niyatlari	Niyat konkret harakat rejasi va tashqi signalga bog‘lanadi	Kechiktirish uchun qaror bo‘shlig‘i qisqaradi

Emotsional-resurs	Emotsiyalarni tartibga solish, o‘ziga rahmdillik, stressga bardoshlilik	Vazifaga oid noqulay emotsiyalar qochishsiz boshqariladi	Qisqa muddatli kayfiyatni tiklash ehtiyoji kamayadi
Shaxsiy kompetentlik	Akademik o‘ziga ishonch, o‘zini nazorat qilish, psixologik moslashuvchanlik	Muvaffaqiyat ehtimoli yuqoriroq baholanadi, impulslar nazorat qilinadi	Faoliyatni davom ettirish va yakunlash kuchayadi
Tashkiliy-kontekstual	Bosqichli muddat, aniq mezon, tezkor qayta aloqa, hisobdorlik	Vazifa noaniqligi va psixologik masofa kamayadi	Ta’lim muhiti prokrastinatsiyaga kamroq “qulay” bo‘ladi

Birinchi blok – motivatsion-ma’naviy determinantlar. Talaba vazifaning nima uchun zarurligini anglamasa yoki uning natijasini shaxsiy maqsadlari bilan bog‘lamasa, vazifa tashqi bosim sifatida idrok etiladi. Shu sababli topshiriqni ma’noli kontekstga joylashtirish, tanlov imkoniyatini berish va natijani kelajak kasbiy kompetensiyalar bilan bog‘lash prokrastinatsiyani kamaytiradi. Avtonom motivatsiya vazifaning subyektiv qiymatini oshiradi, maqsad aniqligi esa harakatning yo‘nalishini belgilaydi.

Ikkinchi blok – kognitiv-regulyativ determinantlar. “Referat yozish” kabi umumiy maqsad xatti-harakat uchun yetarlicha aniq signal bermaydi. “Dushanba soat 19:00 da kutubxonada 25 daqiqa davomida uchta manbaning tezislarini yozaman” shaklidagi reja esa vaqt, joy va birinchi qadamni birlashtiradi. Vazifani 15-30 daqiqalik mikroqadamlarga ajratish boshlashning subyektiv xarajatini kamaytiradi. Jarayon monitoringi talabaning real va rejalashtirilgan faoliyati o‘rtasidagi tafovutni ko‘rishga yordam beradi.

Uchinchi blok – emotsional-resurs determinantlar. Prokrastinatsiya paytida talaba ko‘pincha vazifani emas, vazifa bilan bog‘liq noqulay emotsiyani kechiktiradi. Shuning uchun faqat vaqt jadvali tuzish yetarli emas. Talabaga xavotirni nomlash, noqulaylikka chidash, o‘ziga nisbatan keskin tanqidni yumshatish va vazifani mukammal emas, yetarli darajada bajarishga ruxsat berish ko‘nikmalari kerak. Psixologik bardoshlilik muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilikni yakuniy hukm emas, tuzatiladigan tajriba sifatida qabul qilishga yordam beradi.

To‘rtinchi blok – shaxsiy kompetentlik determinantlari. Akademik o‘ziga ishonch vazifani boshlashning muhim shartidir. O‘zini qobiliyatsiz deb hisoblagan talaba ishni kechiktirish orqali o‘zini salbiy bahodan vaqtincha himoya qiladi. Kichik va o‘lchanadigan muvaffaqiyatlar, model namunalar, bosqichma-bosqich murakkablashtirish hamda aniq qayta aloqa kompetentlik hissini shakllantiradi. O‘zini nazorat qilish esa raqamli chalg‘ituvchilar va darhol mukofot beruvchi alternativ faoliyatlarga qarshi turish imkonini beradi.

Beshinchi blok – tashkiliy-kontekstual determinantlar. Talaba xulqini faqat shaxsiy intizom bilan izohlash ta’lim muhitining rolini kamaytiradi. Bir semestr oxiriga

belgilangan katta topshiriq, noaniq baholash mezonlari va oraliq nazoratning yo‘qligi kechiktirish ehtimolini oshiradi. O‘qituvchi topshiriqni oraliq bosqichlarga ajratib, har bir bosqich uchun qisqa qayta aloqa berganida tashqi tuzilma asta-sekin ichki o‘zini boshqarish ko‘nikmasiga aylanadi.

“Resurs–regulyatsiya–harakat” konseptual modeli

Taklif etilayotgan modelga ko‘ra, prokrastinatsiyani kamaytirish uchta o‘zaro bog‘liq mexanizm orqali sodir bo‘ladi. “Resurs” bosqichida akademik o‘ziga ishonch, avtonom motivatsiya, psixologik bardoshlilik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kuchaytiriladi. Bu determinantlar talabaning vazifaga kirishish uchun zarur ichki quvvatini shakllantiradi.

“Regulyatsiya” bosqichida maqsadni konkretlashtirish, vaqtni rejalashtirish, emotsiyalarni boshqarish, chalg‘ituvchilarni cheklash va jarayonni monitoring qilish amalga oshiriladi. Ushbu bosqich ichki resurslarni tartibli faoliyatga yo‘naltiradi. “Harakat” bosqichida esa birinchi mikroqadamni boshlash, muntazam davom ettirish, yakunlash va natijani mustahkamlash sodir bo‘ladi.

Modelning muhim jihati shundaki, harakat faqat motivatsiya mavjud bo‘lganda emas, oldindan tuzilgan vaziyatli signallar orqali ham boshlanishi mumkin. Talaba “kayfiyat kelishini” kutmaydi; u belgilangan vaqt va joyda minimal harakatni bajaradi. Minimal harakat muvaffaqiyat hissini yuzaga keltiradi, bu esa o‘ziga ishonch va motivatsiyani qayta kuchaytirib, ijobiy siklni shakllantiradi.

2-jadval. **Prokrastinatsiyani kamaytirish bo‘yicha bosqichli mexanizm**

Bosqich	Asosiy vazifa	Amaliy vositalar	Baholash indikatori
1. Diagnostika	Prokrastinatsiya funksiyasi va xavf omillarini aniqlash	PASS, suhbat, bir haftalik faoliyat kundaligi	Kechiktiriladigan vazifalar va triggerlar xaritasi
2. Ma’nolashtirish	Vazifani shaxsiy va kasbiy maqsad bilan bog‘lash	“Nima uchun?” zanjiri, kelajakdagi “men” bilan bog‘lash	Vazifaning subyektiv qiymati
3. Mikrorejalash	Birinchi qadam va qisqa ish bloklarini belgilash	Mikroqadam, vaqt bloklari, amalga oshirish niyati	Boshlash kechikishining qisqarishi
4. Emotsional regulyatsiya	Noqulay emotsiyadan qochishni kamaytirish	Nafas, nomlash, kognitiv qayta baholash, o‘ziga rahmdillik	Vazifaga oid xavotirni boshqarish
5. Muhit dizayni	Chalg‘ituvchilar va noaniqlikni kamaytirish	Telefonni cheklash, aniq yakuniy muddat, oraliq nazorat	Fokus va topshiriq bajarilish chastotasi
6. Mustahkamlash	Yangi xulqni barqaror odatga aylantirish	Haftalik refleksiya, o‘zini rag‘batlantirish, tengdosh hisobdorligi	O‘z vaqtida bajarilgan vazifalar ulushi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil akademik prokrastinatsiyani talabaning dangasaligi yoki mas’uliyatsizligining oddiy ko‘rinishi sifatida talqin etish ilmiy jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatdi. Mazkur hodisa shaxsning kognitiv, motivatsion, emotsional va irodaviy xususiyatlari hamda ta’lim muhitining tashkiliy-psixologik omillari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadigan ko‘p komponentli psixologik jarayondir. Maqsadlarning noaniqligi, vaqt istiqbolining sustligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, maladaptiv perfektsionizm, akademik o‘ziga ishonchning pastligi, emotsional zo‘riqish va o‘zini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar akademik kechiktirishning asosiy xavf omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy umumlashtirish natijasida akademik o‘ziga ishonch, avtonom motivatsiya, maqsadlarning aniqligi, vaqtni boshqarish, emotsional regulyatsiya, o‘zini nazorat qilish, psixologik bardoshlilik, refleksiya va tizimlangan ta’lim muhiti prokrastinatsiyani kamaytiruvchi muhim determinantlar sifatida ajratildi. Ushbu determinantlar alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan funksional tizim sifatida faoliyat yuritadi. Talabaning ichki motivatsiyasi va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi faoliyatni boshlash uchun zarur psixologik resursni shakllantirsa, rejalashtirish, vaqtni boshqarish va emotsional nazorat mazkur resursni konkret akademik harakatga aylantiradi. Topshiriqlarning aniq tuzilishi, bosqichli muddatlar va o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi qayta aloqasi esa ushbu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi.

Taklif etilgan “resurs – regulyatsiya – harakat” modeli akademik prokrastinatsiyani kamaytirish mexanizmini tizimli izohlash imkonini beradi. Modelning birinchi bosqichida motivatsiya, akademik o‘ziga ishonch, maqsadga yo‘nalganlik va psixologik bardoshlilik kabi ichki resurslar faollashadi. Ikkinchi bosqichda mazkur resurslar rejalashtirish, vaqtni boshqarish, emotsiyalarni tartibga solish va faoliyat monitoringi orqali boshqariladi. Uchinchi bosqichda esa vazifani o‘z vaqtida boshlash, izchil davom ettirish va yakunlash kabi xulq-atvor shakllari yuzaga keladi. Erishilgan kichik natijalar talabaning kompetentlik hissini mustahkamlab, keyingi faoliyat uchun yangi motivatsion resurs yaratadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati akademik prokrastinatsiyani individual psixologik xususiyatlar va ta’lim muhiti birligida tahlil qilish imkonini berishidadir. Amaliy jihatdan esa olingan xulosalar oliy ta’lim muassasalarida akademik prokrastinatsiyani erta aniqlash, profilaktika qilish va psixologik korreksiya dasturlarini ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida taklif etilgan modelni korrelyatsion, regressiv va strukturaviy modellashtirish usullari orqali empirik tekshirish, shuningdek, trening dasturlarining samaradorligini eksperimental va nazorat guruhlari kesimida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tahlildan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, katta hajmdagi akademik topshiriqlarni oraliq bosqichlarga ajratish, har bir bosqich uchun aniq muddat, natija va baholash mezonlarini belgilash.

Ikkinchidan, talabalarga vaqtni boshqarish bilan bir qatorda, vazifaga oid xavotir, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va perfektsionistik talablarni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Uchinchidan, murakkab topshiriqlar uchun “birinchi 10 daqiqalik qadam” tamoyilidan foydalanish va ishni boshlashni alohida muvaffaqiyat indikatori sifatida baholash.

To‘rtinchidan, akademik o‘ziga ishonchni rivojlantirish maqsadida o‘qituvchining qayta aloqasini shaxsiy qobiliyatga emas, strategiya, sa’y-harakat, rivojlanish dinamikasi va tuzatish imkoniyatlariga yo‘naltirish.

Beshinchidan, raqamli chalg‘ituvchilar ta’sirini kamaytirish uchun fokus intervallari, bildirishnomalarni cheklash va faoliyat monitoringi vositalaridan foydalanish.

Oltinchidan, talabalar bilan muntazam refleksiya tashkil etib, reja, bajarilgan ish, yuzaga kelgan to‘siq va keyingi mikroqadamlar bo‘yicha monitoring olib borish.

Yettinchidan, barqaror va psixologik farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi prokrastinatsiya holatlarida universitet psixologi tomonidan individual maslahat hamda qisqa muddatli kognitiv-xulqiy treninglarni tashkil etish.

Umuman olganda, akademik prokrastinatsiyani kamaytirish talabaning faqat vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon uning motivatsion resurslari, akademik o‘ziga ishonchi, emotsional barqarorligi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va ta’lim muhitining tashkiliy xususiyatlarini kompleks ravishda takomillashtirishni talab etadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida profilaktik, diagnostik va korreksion chora-tadbirlarni yagona tizim asosida tashkil etish akademik samaradorlikni oshirish, psixologik farovonlikni qo‘llab-quvvatlash hamda mustaqil va mas’uliyatli mutaxassisni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES:

1. Bandura A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W.H. Freeman. – 604 p.

2. Gollwitzer P.M. (1999). Implementation intentions: Strong effects of simple plans. // *American Psychologist*, 54(7), –Pp. 493-496.

3. Kim K.R., Seo E.H. (2015). The relationship between procrastination and academic performance: A meta-analysis. // *Personality and Individual Differences*, –Pp. 82, 27-30.

4. Klassen R.M., Krawchuk L.L., Rajani S. (2008). Academic procrastination of undergraduates: Low self-efficacy to self-regulate predicts higher levels of procrastination. // *Contemporary Educational Psychology*, 33(4), – Pp. 920-925.

5. Ryan R.M., Deci E.L. (2017). Self-Determination Theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness. New York: Guilford Press. – 756 p.

6. Sirois F.M. (2023). Procrastination and stress: A conceptual review of why context matters. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 20(6), 5031.

7. Sirois F.M., Pychyl T.A. (2013). Procrastination and the priority of short-term mood regulation: Consequences for future self. // *Social and Personality Psychology Compass*, 7(2), –Pp.116-119.

8. Solomon L.J., Rothblum E.D. (1984). Academic procrastination: Frequency and cognitive-behavioral correlates. // *Journal of Counseling Psychology*, 31(4), –Pp. 503-505.

9. Steel P. (2007). The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure. // *Psychological Bulletin*, 133(1), –Pp. 66-68.

10. Svartdal F., Dahl T.I., Gamst-Klaussen T., Koppenborg M., Klingsieck K.B. (2020). How study environments foster academic procrastination: Overview and recommendations. // *Frontiers in Psychology*, 11, 540910.

11. Van Eerde W., Klingsieck K.B. (2018). Overcoming procrastination? A meta-analysis of intervention studies. // *Educational Research Review*, 25, –Pp. 78-83.

12. Zacks S., Hen M. (2018). Academic interventions for academic procrastination: A review of the literature. // *Journal of Prevention & Intervention in the Community*, 46(2), –Pp. 120-126.

13. Zimmerman B.J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. // *Theory Into Practice*, 41(2), –Pp. 65-69.

МОТИВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ В ОБРАЗОВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

PSIXOLOGIK ATAMALARNI SHAKLLANTIRISHNING MOTIVATSION MODELLARI

MOTIVATIONAL MODELS IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL TERMS

Хакимова Насиба Тургуновна
старший преподаватель кафедры
«Тиллар – 2» Университета Oriental
Tel.:+998 90-320-53-81
E-mail: nasiba.kh.t@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются основные типы мотивации, лежащие в основе образования психологических терминов современного языка. Особое внимание уделяется когнитивным и словообразовательным механизмам, обеспечивающим появление новых терминов в сфере психологии. Анализируются морфологические, семантические и метафорические модели мотивации, а также их взаимодействие в процессе терминообразования. Отмечается роль междисциплинарных заимствований и влияние английского языка на формирование современной психологической терминологии. Делается вывод о том, что мотивационные модели отражают не только структурные особенности языка, но и когнитивные стратегии научного познания психики человека.

Ключевые слова: *мотивация, терминообразование, психологическая терминология, когнитивная модель, метафора, словообразование, лингвистика.*

